


48302  
T 873

**Kavsar TURDIYEVA**  
**Dilbar AHMEDOVA**


# O'ZBEK TILI



K.TURDIYEVA, D.AHMEDOVA

## O'ZBEK TILI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan  
oliy o'quv yurtlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan  
(Tibbiyot institutlarining rus guruhлари uchun)*



“MUSIQA” nashriyoti  
Toshkent  
2007

**Taqrizchilar:**

**R.Jomonov** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

**X.F.Haydarov** – falsafa fanlari doktori, professor.

Mazkur darslik tibbiyot institutlarining talabalariga mo'ljallangan.

Unga oliy hamshiralik ishining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda matnlar, ish yuritish qog'ozlari kiritilgan. Darslikning grammatika qismi fan o'qitilishining uzluksiz va uzviy ketma-ketligi hisobga olingan holda yozilgan. Unda matn ustida ishlash uchun ma'lum chizma va grafiklar ko'rinishidagi konstruksiyalar, qiziqarli testlar, asosiy kommunikativ ehtiyojlar uchun so'z va so'z birikmalari, ularning tarjimasi va lug'at kiritilgan.

Ushbu kitobni tayyorlashda yordamini ayamagan ToshPTI o'zbek tili kafedrası o'qituvchilari va, ayniqsa, M.H.Mahkamovga mualliflar minnatdorlik bildiradilar.

ISBN 978-9943-307-22-3

Qat'iy buyurtma.

© O'zbekiston davlat konservatoriyasining

«Musiq» nashriyoti, 2007-y.

**1-DARS  
O'ZBEK TILI**

Odamlar til vositasida o'z fikrlari, his-tuyg'ularini ifodalaydilar. Jamiyatning shakllanishi va rivojlanishida tilning ahamiyati kattadir. XI asrda yashab o'tgan Yusuf Xos Hojib tilga aql va idrok tarjimoni. deb baho bergan.

Olimlar hisobiga ko'ra, dunyo aholisi 3000 ga yaqin tilda so'zlashadi. Ana shu tillar kelib chiqishi, lug'aviy va grammatik jihatdan yaqinligiga qarab til oilalariga bo'linadi. Yer yuzida 20 ga yaqin til oilasi bor. Til oilalari o'z navbatida til guruhlariga bo'linadi.

O'zbek tili oltoy tillar oilasi va turkiy tillar guruhiga kiradi. O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining Davlat tilidir. O'zbek tiliga 1989-yil 21-oktabrda Davlat tili maqomi berilgan. Bu tilda O'zbekistonda yashovchi aholidan tashqari Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Afg'onistonning shimolida va boshqa joylarda yashovchi o'zbeklar gaplashadilar.

O'zbek tili XI asrdan boshlab mustaqil til sifatida shakllana boshladi. O'zbek tilining rivojlanishida XI asrda yashab o'tgan turkiy tilshunos olim Mahmud Qoshg'ariy, adib Yusuf Xos Hojib, buyuk alloma Alisher Navoiylarning hissalarini kattadir.

O'zbek tilining rivojiga, ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng katta ahamiyat berildi.

**Lug'at**

fikr – мысль

ifodalamoq – выражать

ahamiyat – значение

aql – ум

his-tuyg'u – чувство, эмоция

tarjimon – переводчик

aholi – население

maqom – статус

mustaqil – самостоятельный


**Topshiriq.**

**1. Matnni o'qing, tarjima qiling.**

**2. Quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.**


«Nima bu nima?»

Til bu



«Nima nimaga kiradi?»

O'zbek tili



«Nimalar nimalarga bo‘linadi?»



TALABALARGA AYTAR SO‘ZIM

Shifokor bo‘lishni dilingizga tugib, olam-olam orzu-umidlar bilan ushbu dargohga qadam qo‘ydingiz. Talaba bo‘lishingizga yordam bergan va sababchi bo‘lgan ustozlaringiz, ota-onangiz, do‘st-birodarlaringiz ishonchini oqlashingiz lozimligini doimo yodda tuting.

Aqli, bilimdon, yuksak ma‘naviyatli, bilimdon mutaxassis doimo muvaffaqiyat qozonib, obro‘-e‘tiborli bo‘ladi. Bunday mutaxassis bo‘lish uchun hozirdan harakatga tushing. Har daqiqangiz bebahodir, intilishlaringiz va sa‘y-harakatlaringiz ana shu daqiqalaringizni mazmunga to‘ldirsin. «Talabalik – oltin davr» deb bejiz aytishmagan. Bu davringizni bekorchilik, maqsadsiz o‘tkazishdan ehtiyot bo‘ling. «Bilimga eltuvchi yo‘l – bu faoliyatdir», degan Bernard Shou. Bilimga faqat sizning faoliyatingiz va mustaqil o‘rganishingiz tufayli erishiladi. Ana shundagina siz rivojlanasiz, shakllanasiz va taraqqiy etasiz. Ilmu fanni, tibbiy bilimlar va yangiliklarni, tabiat qonuniyatlarini, O‘zbekiston tarixi va ijtimoiy hayoti, iqtisodini, madaniyati va ma‘naviyati asoslarini puxta o‘rganish sizning asosiy vazifangizdir.

O‘qishdan tashqari ijod bilan ham mashg‘ul bo‘lishga harakat qiling.

Yurish-turishingiz, kiyinishingiz, ozoda va chiroyli chehrangizu qalbingiz samimiy bo‘lsin. Yashash va o‘qish joyingizni tartibli saqlang. sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilib, sog‘lig‘ingizga e‘tibor bering. Axloq-odob shartlarini ham nazardan chetlatmay, yigitlik va qizlik sha‘ningizni saqlang.

Ibn Sino «Shifokorda lochinning ko‘zi, qiz bolaning qo‘li, ilonning aqli va sherning yuragi bo‘lishi lozim» degan. Ma‘ruzalarga muntazam qatnashib diqqat bilan tinglang, muhim ma‘lumotlarni, albatta, yozib oling, aytilayotgan har bir fikrning ma‘nosiga tushunib, uni hayotda, amaliyotda qo‘llash, tatbiq etishni o‘rganib oling. Har bir o‘rganilayotgan fan yoki mavzuni mustaqil egallashga harakat qiling. Kutubxonalarga muntazam qatnab, kompyuter texnologiyalaridan axborot manbai sifatida doimo foydalaning. Vazifalarni puxta, qunt bilan tayyorlang, o‘qing, o‘rganing, tahlil qiling, xulosalar chiqaring. xotirangizga joylab oling. «Oq xalatli xaloskorlar»ning asosiy xislati insonparvarlik va shirinso‘zlikdir. Odamlarni kuzating, ularning ruhiyatini, yurish-turishi, ichki-tashqi dunyosini o‘rganing. Bu sizga kelajakda mehnatingiz samarasi uchun, heyorlar bilan oson muloqot o‘rnata olishingiz uchun juda muhimdir.

Ota-onangiz sizdek solih farzandidan, ustozlaringiz sizdek ma‘naviyati yuksak mutaxassisdan faxrlanishi lozim. Oppoq xalatingizga, oppoq ko‘nglingizga va oppoq hayot yo‘lingizga hech qachon dog‘ tushmasin, aziz talabalar!

Lug‘at

dil – душа	harakat – действие
dilga tugib – вложить в душу	bejiz emas – недаром
muntazam – постоянно	maqsad – цель
ishonchni oqlash – оправдать доверие	bekorchilik – безделие
ma‘naviyatli – духовный	tinimsiz – беспрестанно
muvaffaqiyat – успех	faoliyat – деятельность
hurmat-izzat – уважение	mazmun – содержание
sher – лев	chehra – лицо
dargoh – порог (буквально обитель)	lochin – сокол

Topshiriq.

1. Matnni o‘qing. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo‘yicha gap tuzing.

«Nima bu nima?»

Talabalik	<input type="text"/>	Faoliyat	<input type="text"/>
Talabaning vazifasi	<input type="text"/>		

«Nima qanday bo‘lsin?»

Yurish-turishingiz	<input type="text"/>	Kiyinishingiz	<input type="text"/>
Chehrangiz va qalbingiz	<input type="text"/>		

«Kimda nima bo'lishi lozim?»

Shifokorlarda

2. Talaba bo'lgan har bir yigit-qiz nimani yodda tutishi kerak?
3. Kimlar hayotda doim muvaffaqiyat qozonadi?
4. Talabalik davrida nimalarga yo'l qo'ymaslik kerak?
5. Ibn Sino shifokorda nimalar bo'lishini aytgan?
6. Zamonaviy talaba o'qish bilan birga yana nimalarga e'tibor berishi lozim?
7. Ushbu matnni ko'chiring. U o'qish davomida yoningizda bo'lsin.

Mashqni bajaring. Quyidagi gaplardagi nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib ko'chiring.

- a) O'zbek tili adabiy til sifatida ..... asrda shakllangan .
- b) O'zbek tili ..... tillar oilasiga, ..... guruhiga kiradi.
- c) Turkiy tillar guruhiga o'zbek tilidan tashqari ..... tillari ham kiradi.
- d) Yangi lotin alifbosida..... harf bor .
- e) Lotin alifbosida ..... harfiy birikma bor.

### SUHBAT

Ira:

- Yaxshimisiz? Kechirasiz, Navoiy nomidagi kutubxonaga qanday borsa bo'ladi?

- Rahmat. Tanishaylik, mening ismim Ira. Sizniki-chi?

- O'qyman. Bu yil Borovskiy nomidagi tibbiyot kollejiga kirdim.

- Bir yil davomida rosa o'rgandim. Menga bu til juda yoqadi. Ilgari Moskva shahrida yashaganmiz. Bir yildan beri shu yerda yashayapmiz. Lekin tilni juda to'liq bilmayman.

- 10 oktabrda 16 ga kiraman.

Gulshoda:

- Yaxshimisiz! Ana kutubxona, ko'chaning narigi betiga o'tsak bo'ldi. Yuring birga boramiz. Men ham kutubxonaga ketyapman.

- Mening ismim Gulshoda. O'qiysizmi, ishlaysizmi?

- Tabriklayman. Sohamiz bir ekan. Men Toshkent Pediatriya tibbiyot institutiga o'qishga kirdim. O'zbekchani yaxshi gapirar ekansiz.

- Hechqisi yo'q o'rganib ketasiz. Yoshingiz nechada?

- Voy, men 9 oktyabrda 16 ga kiraman. Tengdosh ekanmiz.

- Men bugun kutubxonaga a'zo bo'lmoqchiman. Gulshoda, telefon raqamingizni berasizmi? Meniki 23-83-94.
- Albatta. Meniki 43-31-92. Mana kutubxona. yetib ham keldik. Qanday adabiyot olmoqchisiz?
- Gulshoda, tengdosh ekanmiz, sen deb murojaat qilsam bo'ladimi?
- Albatta. Men Ko'kcha dahasida yashayman. Siz-chi?
- Men ham. Mayli, xayr, telefon qilib turing.
- Mayli, Ira.

Topshiriq.

1. Matnni tarjima qiling
2. Gulshoda bilan Iraning suhbatini davom ettiring
3. Mashq bajaring. Quyidagi so'zlarning talaffuzi va tarjimasiga e'tibor bering.

### Lotin alifbosi

Hozirgi davrda jahon xalqlari 220 xil yozuvdan foydalanadilar. Shu yozuvdan eng keng tarqalgani lotin yozuvi bo'lib, jahon xalqlarining 30% idan ziyodi shu yozuvni qo'llaydilar.

1993-yil 2-3-sentabrda bo'lib o'tgan Oliy Kengash yig'ilishida o'zbek yozuvini lotin alifbosiga o'tkazish to'g'risidagi qonun qabul qilindi. 1995-yil 6-maydagi Oliy Majlis sessiyasida bu alifboga o'zgartirishlar kiritildi.

Islah qilingan yangi o'zbek alifbosida 29 ta harf bor. Shulardan 3 tasi harfiy birikma: sh, ch, ng. 6 ta unli, 23 ta undosh harf bor.

Harflar	Yozma	O'qilishi	Harflar	Yozma	O'qilishi
Aa	<i>Aa</i>	a	Qq	<i>Qq</i>	qe
Bb	<i>Bb</i>	be	Rr	<i>Rr</i>	re
Dd	<i>Dd</i>	de	Ss	<i>Ss</i>	se
Ee	<i>Ee</i>	e	Tt	<i>Tt</i>	te
Ff	<i>Ff</i>	fe	Uu	<i>Uu</i>	u
Gg	<i>Gg</i>	ge	Vv	<i>Vv</i>	ve
Hh	<i>Hh</i>	he	Xx	<i>Xx</i>	xe

I i	ii	i	Yu	y y	Ye
Jj	Jj	je	Zx	z z	Ze
Kk	Kk	ke	O'o'	O' o'	o'
Ll	Ll	le	G'g'	G' g'	g'
Mm	Mm	me	Shsh	Sh sh	she
Nn	Nn	ne	Chch	Ch ch	che
Oo	Oo	o	Ngng	Ng ng	nge
Pp	Pp	pe			

### Unlilar

a, o, e, i, o', u.

### Undoshlar

b, v, g, d, j, z, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, ts, ch, sh, q, g', h,

Quyidagi so'zlarni taqqoslab o'qing.

Lotincha	Kirillcha
moy	мой
mis	мис
pastda	пастда
tur	тур
oy	ой
par	пар
bil	бил

**Mashq:** Quyidagi so'zlarning talaffuzi va yozilishini farqlang va ulardan foydalanib gap tuzing.

bor – есть	bo'r – мел	qo'y – оставь, баран
bol – мёд	bo'l – давай	quy – палец
os – повесть	o's – расти	osmoq – повесить
o'y – мысль	ou – месяц, луна	o'zim – я сам
oupa – окно	o'upa – играй	qul – раб
ulan – соединись	o'lan – трава	o'chmoq – гаснуть
ora – промежуток	o'ra – яма	o'rmoq – косить, заплетать

olma – яблоко      uzum – виноград      o'lma – не умирай  
oq – белый      o'q – пуля

**Nuqtalar o'rniga kerakli unlilarni qo'yib, ko'chiring.**

Agar b...g'imlar b...lmaganda edi, harakat bo'lm...sdi. B...shimiz, oyog'imiz, q...llarmizni h...rakatga k...ltira ...lmas edik. H...tto bitta barm...qni ham qim...rlata olmas edik. B...g'imlar t...fayli tal...y harak...t q.lish imkon...yatiga egamiz.

### 2-DARS

Bo'g'in (Слог)	
Bo'g'in unli tovushlar ishtirokida hosil bo'ladi. So'zda nechta unli tovush bo'lsa shuncha bo'g'in bo'ladi. Bor, kel- 1 bo'g'inli borma, kelma- 2 bo'g'inli	Слог образуется с помощью гласных звуков. Число слогов в слове совпадает с числом гласных. Boʻ, kel- 1 слог borma, kelma- 2 слога
Urg'u (Ударение)	
Urg'u odatda so'z oxiriga tushadi. O'quvchilalr, o'qituvchilarga <sup>l</sup> .	Место ударения в узбекском языке последний слог.

**Topishmoqni tarjima qiling va javobini toping:**

Inson a'zosi bu nom,  
Bitta bo'g'ini taom.  
Boshqalarichi har vaqt,  
Sizga pishirar ovqat.

### MUSTAQIL O'ZBEKISTON

O'zbekistonda 130 dan ortiq millat vakillari yashaydi. Uning aholisi soni 26 milliondan ortiq. O'zbekistonning o'rta qismi Sirdaryo va Amudaryo orasida joylashgan. Uning maydoni 4474 ming kv.km ni tashkil etadi. O'zbekiston Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston bilan chegaradoshdir.

XXI asr bo'sag'asida dunyo xaritasida yana bir mustaqil davlat- O'zbekiston paydo bo'ldi. 1991-yil 31-avgustda Oliy Kengashning navbatdan tashqari VI sessiyasida O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilindi.

1992-yil 8-dekabrda mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining Davlat Gerbi 1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida tasdiqlandi. Shuningdek, mustaqil O'zbekiston Respublikasining madhiyasi va bayrog'i tasdiqlandi. O'zbek tili Davlat tili maqomini oldi. O'zbekiston mustaqillikni

qo'lga kiritgach, o'z madaniy merosiga, milliy qadriyatlarga e'tiborni kuchaytirdi.

Har bir sohada yer yuzining barcha mamlakatlari bilan hamkorlik kuchaydi. Ta'lim, tibbiyot sohaslariga asosiy e'tibor qaratildi. Bu yutuqlar fan, madaniyat, sport sohasida ko'zga yaqqol tashlandi.

### Topshiriq.

1. Matnni o'qing va tarjima qiling.

2. Quyidagi konstruksiyalar asosida gap tuzing.

«Nima qanchani tashkil etadi?»

O'zbekistondagi millat vakillari



O'zbekiston maydoni



O'zbekiston aholisi



«Nima qachon bo'ldi?»

O'zbekiston mustaqilligi



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi



O'zbekiston Davlat gerbining tasdiqlanishi



O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i va Madhiyasi tasdiqlanishi



3. O'zbekiston Respublikasi ramzlari haqida ma'lumot bering.

4. O'zingiz tug'ilgan joy haqida so'zlab bering.

### Lug'at

xarita – карта

bo'sag'a – канун

millat – нация

elat – народность

navbatdan tashqari – внеочередной

hamkorlik – сотрудничество

tashkil etmoq – составлять

chegara – граница

mustaqil – суверенный

meros – наследие

soha – сфера

aholi – население

## SUHBAT

**Gulshoda:**

-Men O'zbekistonimizning qiyofasi kundan-kun o'zgarib borishiga hayron qolmoqdaman.

-Ha, O'zbekiston mustaqil bo'lgandan beri uning o'ziga xos bayramlari paydo bo'ldi.

-Bayram tantanalarida mustaqil O'zbekiston crishgan yutuqlar haqida gapiriladi.

-Men yurtdoshimiz Rustam Qosimjonov jahon chempioni bo'lgan kunni hech unuta olmayman.

-Yaqinda esa iste'dodli kinorejissor Y.Roziqov «Erkak» filmi uchun Fransiya kinofestivalida Gran prini qo'lga kiritdi.

-Mamlakatimizda tibbiyot sohasiga ham katta e'tibor berilmoqda.

-Yillarning nomidan ham buni bilsa bo'ladi.

-Har bir yil uchun dasturlar tuzilib, ular hayotga tatbiq etiladi.

**Ira:**

-Bu o'zgarish shahrimizda yaqqol sezilmoqda. Ayniqsa, uning bayramlarini aytmaysanmi?

-Menga Mustaqillik bayrami juda yoqadi. Shu kuni men, albatta, bayram sayliga chiqaman.

-Mamlakatimizda fan, madaniyat va sport sohasidagi yutuqlar anchagina.

-O'shanda butun respublika aholisi xursand edi.

-Men bu haqda vaqtli matbuotdan bildim.

-Ha, respublikamizda Tibbiyot akademiyasining tashkil etilishi buning yorqin dalili.

-Ha, «Sog'lom avlod yili», «Sihat-salomatlik yili», «Homiylar va shifokorlar yili», «Ijtimoiy himoya yili».

-Ha, albatta. Barcha ishlarning asosida mustaqilligimiz sharofati yaqqol sezilib turadi.

### O'zbekiston Davlat madhiyasi

A.Oripov she'ri

M.Burxonov musiqasi

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,  
Sen o'zing do'stlarga, yo'ldosh, mehribon.  
Yashnagay to'abad, ilmu-fan, ijod,  
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Oltin bu vodiylar-jon O'zbekiston!  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon.  
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,  
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!  
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,  
Haqsevar ona yurt, mangu bo'l obod!

Oltin bu vodiylar-jon O'zbekiston!  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining so'zlarini  
O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov, musiqasini esa Mutal Burxonov  
yozgan.

Davlat madhiyasi muayyan bir davlatning milliy suverinetetini  
ifodalaydigan, tarixan tarkib topgan davlat ramzlaridan biri bo'lib, davlat  
bayrog'i, gerbi bilan birga mustaqil davlatning muhim tashqi belgilarini o'zida  
mujassamlashtiradi. Davlat ramzlari xalqning azaliy orzusi, ezgu niyatlari,  
bugungi hayot mazmunini o'zida eks ettiradi.

### Lug'at

aytmoq – сказать	ortiq – больше
topmoq – найти	viloyat – область
har bir – каждый	tuman – район
so'z birikmasi – словосочетание	hudud – территория
gap – предложение	yozmoq – писать
ko'chirmoq – переписать	ko'cha – улица
millat – нация	so'zlab bermoq – пересказать

### Quyidagi Vatan haqidagi maqollarni rus tiliga tarjima qiling.

O'z uyim – o'lan to'shagim.

Bulbul chamanni sevar,  
Odam Vatanni.

Ona yurtning omon bo'lsa,  
Rangi-ro'ying somon bo'lmas.

Eldan ayrilguncha, jondan ayril.

O'zga yurtning dang'illama saroyidan,  
O'z yurtning kulbai vayronasi yaxshi.

Yurt qo'risang o'zarsan,  
Qo'rimasang to'zarsan.

Yurti boyning – o'zi boy.

Yurti obod qilaman degan  
O'zi obod bo'ladi.

Yurti tinchning – o'zi tinch.

Yurt bilan bo'lgan yetar murodga,  
Yurtdan ayrilgan qolar uyatga.

Vatan gadosi – kafan gadosi.

Yeridan ayrilgan yetti yil yig'lar,  
Elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar.

Yurting – onang.  
Yurting – otang.

Eldan kechgan – ota bilan onadan kechar.

### TANISHUV

O'qituvchi: Assalomu alaykum, aziz talabalar! Bugun guruhimizga yangi talaba keldi. Uning nomi Parizod, familiyasi esa Suyunova. U bilan tanishib olasizlar, degan umiddaman.

Parizod: Assalomu alaykum! Men guruhingizning yangi talabasiman.

Talaba: Parizod, siz bilan tanishayotganimizdan xursandmiz. Institutimizga qaysi o'quv yurtidan keldingiz?

Parizod: Men institutingizga Andijon meditsina institutidan keldim.

2-talaba: Nima uchun Andijondan keldingiz? Iltimos, gapirib bering.

Parizod: Mening otam harbiy. U kishining ishlari o'zgarganligi tufayli biz Toshkentga keldik. Menga ham o'qish joyimni o'zgartirishimga to'g'ri keldi.

3-talaba: Oilangiz haqida gapirib bering.

Parizod: Oilamizda 6 kishi bor: buvim, buvam, dadam, oyim, men va ukam. Buvam va buvim nafaqaxo'r. Oyim esa dorishunos. U kishi dorixonada ishlaydilar. Ukam esa 6-sinf o'quvchisi.

4-talaba: Parizod, bo'sh vaqtlaringizda nima bilan shug'ullanishni yaxshi ko'rasiz?

Parizod: Men bo'sh vaqtlarimda tikish va musiqa chalishni yaxshi ko'raman.



### Topshiriq.

Darsda «Guruhimizga yangi qiz (yigit) keldi» mavzusida savol-javob o'tkazing.

### 3-DARS LEKSIKOLOGIYA

Leksikologiya – tilning lug'at tarkibini o'rganadi. So'zlar bir ma'noli va ko'p ma'noli bo'ladi. Bitta leksik ma'no bildirgan so'zlar <b>bir ma'noli</b> so'zlarga deyiladi. Masalan: stol, fonetika, kitob; Bir nechta leksik ma'no bildirgan so'zlarga <b>ko'p ma'noli</b> so'zlar deyiladi. Masalan: bosh, ko'z, burun; Yoziishi va aytilishi har xil, ammo ma'nolari bir xil so'zlarga <b>sinonimlar</b> deyiladi. Masalan: yuz, aft, bet, bashara, turq, chehra; Yoziishi va aytilishi bir xil, ammo ma'nolari har xil so'zlarga <b>omonimlar</b> deyiladi. Masalan: olma, qirq, yuz, tush, chang; Qarama-qarshi ma'noli so'zlarga <b>antonimlar</b> deyiladi. Masalan: katta-kichik, yaxshi-yomon, keng-tor;	Лексикология – изучает словарный состав языка. Слова бывают одно-значными и многозначными. Слова, имеющие одно лексическое значение, называются <b>однозначными</b> . Например: стол, книга, фонетика. Слова, имеющие несколько лексических значений, называются <b>многозначными</b> : голова, глаза, нос. <b>Синонимы</b> – это слова, различные по написанию и звучанию, но одинаковые по значению. Например: юз, афт (лицо). Слова, одинаковые по звучанию и написанию, но разные по значению называются <b>омонимами</b> . Например: olma – яблоко, olma – не берн. <b>Антонимы</b> – это слова с противоположными значениями. Например: большой-маленький, хороший-плохой, широкий-узкий.
--	---

**Mashq. Quyidagi gaplardagi omonimlarni toping, ma'nosini izohlang.**

1. O'choqda kul o'chib qoldi. O'yna, kul, o'qi – talabalik oltin davr. 2. Ichburug'ni kir qo'l kasali deb aytishadi. Ko'chada turmay uyuqa kir, bo'lmasa shamollab qolasan. 3. Och qoringa birdan ko'p ovqat yeyish hazm qilishni qiyinlashtiradi. 4. Eshikni tezroq och, meni ko'rgani kursdoshlarim kelishmoqda.

**Mashq. Quyidagi gaplardagi antonimlarni toping.**

1. Qadim zamonda zolim bir shoh o'tgan ekan. Ovchi rahimdil chiqdi, u bug'uni qo'yib yubordi.  
2. Bu salbiy hol! Hamma yoq ag'dar-to'ntar. Bu xol qanday sifatlil o'smaligini aniqlangach va davo yo'lga qo'yilgach bemor ahvoli ijobiy tomonga o'zgardi.

**Mashq. Gaplardan antonimlarni toping.**

1. Kattalar gapirganda kichkinalar jimgina quloq solishlari kerak. 2. Kam gapir, ko'p tingla. 3. Mashg'ulotda og'ir bo'lsa, jangda yengil bo'ladi. 4. Daryo chuchuk – ariq chuchuk, daryo achchiq – ariq achchiq. 5. Yaxshi bola nom keltirar, yomon bola g'am keltirar. 6. Egri bo'lsang sinar qanoting, to'g'ri bo'lsang chiqadi oting. 7. Yolg'on uyaltirar, rost suyuntirar.

**Mashq. Quyida berilgan gaplardagi ajratilgan so'zlar o'rniga qavs ichidagi sinonimlarni qo'yib qo'ying.**

1. Kasalxonada bemor ko'p bo'lganligi sababli bo'sh joy yo'q edi. 2. Ishyoqmaslikdan ortiq azob yo'q. 3. Tabiat qasr emas, ishxonadir, inson esa uning mehnatkashidir. 5. Tilingda boling bormi? 6. Oftob nurlarini ayamay sochar edi. 7. Samoning rangi ko'm-ko'k, qarasang ko'zlaring dam oladi. (yalqovlik, quyosh, asal, osmon, odam, shifoxona)

### BIZNING OILA

Men, Malikova Sevara, Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining oliy ma'lumotli hamshira fakulteti 2-kurs talabasiman. Oilamiz katta, 9 kishidan iborat. Bobom, buvim, otam, onam, ikkita akam, kelinoyim, jiyanlarim va ukam.

Bobom va buvim hozir nafaqadalar. Bobom ilgari o'qituvchi bo'lib ishlaganlar. Buvim esa uy bekasi bo'lganlar. Otam oliy toifali muhandis. Onam – oliy toifali shifokor, tibbiyot fanlari nomzodi.

Onam tug'ilgan chaqaloqlarni tug'ruqxonadan boshlab qaraydigan shifokorlar.

Akam xususiy firmada ish yurituvchi bo'lib ishlaydilar. Kelinoyim uyda farzandi tarbiyasi bilan shug'ullanadilar. Ularning 2 ta farzandi bor. Katta jiyanim Samandar bog'chaga boradi. Uning yoshi 3 da. Abdulloh esa hali kichkina. Endigina 6 oylik bo'ldi. U uyda hammamizning ovunchog'imiz.

Ukam Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi akademik litsey o'quvchisi. U kelajakda axborot sohasi bo'yicha ishlamoqchi, kompyuterga judayam qiziqadi.

Men oilamizdagilarni judayam yaxshi ko'raman va hurmat qilaman. Oilam davrasida bo'lish menga juda yoqadi va har doim ular bilan birga ko'proq bo'lishga harakat qilaman.

**Topshiriq.**

1. Ushbu matn asosida o'zingizning oilangiz haqida so'zlang.  
2. Oilangiz a'zolarini sanab chiqing. Ularning ismlarini, necha yoshdaligini, nima bilan shug'ullanishlarini (kasblari qandayligini), bo'sh vaqtlarida nima bilan shug'ullanishlarini, uyda nima yumush bajarishlarini ayting. Siz ular uchun nima qilasiz, nima qilmoqchisiz?

3. «Oila va jamiyat», «Turkiston» gazetalarini ko'rib chiqib, yosh oilalarning muammolari haqidagi maqolalarni toping. Ular turli muammolarga bag'ishlangan bo'lishi mumkin, masalan: xo'jalikni boshqarish, vazifalar taqsimoti, oila mablag'ini to'g'ri taqsimlash, vaqtdan unumli foydalanish, kechirish va kechirimli bo'lish va h.k. Ushbu mavzulardan biriga oid maqolani guruhingizda muhokama qiling.

### Lug'at

oila – семья	bugun – сегодня
davra – круг	xontaxta – узбекский стол
buva – бабушка	jiyan – племянник (племянница)
ona – мать	ota – отец
pozik – нежный	to'planmoq – собираться
buvi – бабушка	tog'a – дядя по матери
aka – старший брат	amaki – дядя по отцу
katta – большой	amma – тётя по отцу
xola – тётя по матери	kuyov – зять
mas'uliyat – ответственность	mutaxassis – специалист
chaqaloq – новорожденный, младенец	

### Topshiriq.

1. Matnni o'qing va lug'at yordamida tarjima qiling.
2. O'z oilangiz haqida so'zlab bering.
3. Qarindosh-urug'chilikka oid so'zlarni yod oling.

### 4-DARS

#### SO'Z VA UNING MA'NOLARI. SO'Z VA ATAMA

So'zlar o'z ma'nosida va ko'chma ma'noda ishlatilishi mumkin. Masalan: oq oltin, qo'li gul, qora oltin, oltin kuz; Inson nutqi umum ishlatiluvchi so'zlardan va atamalardan tashkil topadi. Atamalar fanning ma'lum sohasida ishlatilib, ularni shu soha kishilari tushunadi. Masalan:		Слова могут иметь прямое и переносное значение. Речь человека состоит из общеупотребительных слов и терминов. Термины употребляются в определенной области науки. Представители этой науки понимают эти слова. Например:	
<b>Filologiya</b>	<b>Tibbiyot</b>	<b>Филология</b>	<b>Медицина</b>
morfologiya	tonometr	морфология	танометр
fonetika	fonendoskop	фонетика	офендоскоп

leksikologiya	kardiogramma	лексикология	кардиограмма
ega	skalpel	эга	скальпель
kesim	shprints	кесим	шприц

Topshiriq. Quyidagi gaplarni o'qing. Ulardagi atamalarni aniqlang.

1. Ega va kesim – gapning bosh bo'laklari. 2. Jamiyatda hamma o'z o'rniga ega. 3. Rentgen surati jarrohning ishi uchun juda muhim. 4. Gastroskop - me'dani tekshiruvchi asbobdir. 5. Fonetik usulda odamlar harflar talaffuzini o'rganadilar. 6. Nog'ora parda ortida o'rta quloqda uchta mayda eshitish suyakchalari bo'lib, «bolg'acha», «uzangi», «sandon» deb ataladi. 7. Fermentlar tarkibida doimo uglerod, vodorod, ba'zida kislorod va azot bo'ladigan birikma hosil bo'ladi.

### Ibora (Фразеологизм)

**Ibora** alohida predmetlar, belgilar va harakatlar nomlari uchun xizmat qiladigan turg'un so'z birikmalari bo'lib, gapda bitta bo'lak vazifasida keladi.

ionim bilan, bosh ustiga alamdand chiqmoq

aravangni tort  
achchiq kulgi  
asabga tegmoq  
achchiq ustida  
kapalagi uchdi


**Фразеологизм** – это устойчивое сочетание слов, используемое для названия отдельного предмета, признака, действий. Фразеологизм в предложении является одним членом предложения.

С большим удовольствием отвести душу, облегчиться,

отомстить  
катись, проваливай  
язвительный смех  
действовать на нервы  
сгоряча  
испугался

Mashq: O'z va ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarni ajrating.

Ovqat achchiqdir yema!  
Menga achchiq so'z dema!  
Kelib qoldi kumush qish.  
Men qo'y dirdim oltin tish.  
Sinadi egri yog'och,  
Egri ishdan tezroq qoch.  
Tilla boladir Nizom,  
Bizda temir intizom.  
Qora sovuq kezadi.  
Sovuq shamol esadi.  
Olmalar ekan yoqut,  
Bugun iliq xabar kut.



**Mashq: Quyidagi iboralar qanday ma'noni bildirishini toping. So'z birikmalarining qaysi birida so'zlar ko'chma ma'noda qo'llangan?**

- |                 |                  |
|-----------------|------------------|
| 1. Shirin til   | 6. Egri ish      |
| 2. Zangori olov | 7. Achchiq ovqat |
| 3. Katta uy     | 8. Shirin nok    |
| 4. Ochiq qo'l   | 9. Ochiq eshik   |
| 5. Issiq non    | 10. Sovuq gap    |

**Mashq. Omonim so'zlarning har biri qanday ma'nolarni bildirishini ayting.**

Ot, o'l, ko'r, kir, ol, tor, qil, hol, suz, qovoq, to'p, tut, olma, soch, oq, ko'k. Es, oz, son, qo'y, ich, osh, yoz, bog'lar, yoy, yosh.

### TABIAT VA INSON SALOMATLIGI

Atrofimizdagi poyonsiz dunyo olam, deb ataladi. Yer va uning atmosferasi shu olamda mavjuddir. Bizni o'rab turgan atmosferaning har qanday holati ob-havo deyiladi. Ob-havo to'xtovsiz o'zgarib turadi. Ma'lum bir joyning ma'lum bir vaqtdagi ob-havosi: harorat, havo namligi, bulut, yog'in miqdori, shamol tezligi va yo'nalishi, qor bo'roni, momaqaldiroq, tuman va boshqalar farqlanadi. Ob-havoning qanday bo'lishi haqidagi ma'lumotlar bilan metereologiya fani shug'ullanadi. Ertaga, bir haftadan keyin, bir oy davomida ob-havoning qanday bo'lishi haqidagi ma'lumot kema kapitanlari, uchuvchilar, temiryo'lchilar, dehqonlar, aholiga xizmat ko'rsatish xodimlari, shifokorlar uchun muhimdir. Ob-havodagi keskin o'zgarishlar, atmosfera bosimining turlicha bo'lishi bemorlar ahvolining og'irlashuviga turtki bo'ladi. Shuning uchun shifokorlar bunday holatlarda yurak kasalligi, qon bosimi, suyak tizimi kasalliklari bilan og'riyotgan bemorlar ahvolini yaxshilash uchun profilaktik chora-tadbirlar ko'radilar.

Tabiatdagi barcha o'zgarishlar inson organizmiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Chunki har birimiz ona tabiatning bir bo'lagimiz. Shuning uchun ham tabiatni avaylab-asrashimiz, ehtiyotkor munosabatda bo'lmog'imiz lozim.

#### Lug'at

atrof – вокруг  
poyonsiz – бескрайний  
olam – мир  
ma'lumot – известие, сводка, сведение

bosim – давление  
ma'lum – известный  
ob-havo – погода

#### Topshiriq.

1. Matnni tarjima qiling.
2. Ob-havoga oid so'z va so'z birikmalarini yod oling.
3. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.  
«Nima nimada mavjud?»

Shu olamda

«Kim nimaning bo'lagi?»

Biz

«Nimaga nima deyiladi?»

ob-havo deyiladi.

«Nimaning nimasi farqlanadi?»

Ma'lum bir joyning ma'lum bir vaqtdagi





«Nima nima bilan shug'ullanadi?»

bilan metereologiya fani shug'ullanadi.

«Nima kimlar uchun muhimdir?»

Ertaga ob-havo qanday bo'lishi




Ob-havoga oid so'z birikmalari va gaplar

Весна, лето, осень, зима  
Год

Bahor, yoz, kuz, qish  
Yil

Сегодня хорошая погода	Bugun havo yaxshi
Сегодня плохая погода	Bugun havo yomon
Сегодня солнечно	Bugun havo ochiq
Сегодня пасмурно	Bugun havo bulut
Сегодня тепло	Bugun kun issiq
Сегодня холодно	Bugun kun sovuq
Что сообщает бюро погоды?	Ob-havo byurosi nima deydi?
Какая будет завтра погода?	Ertaga ob-havo qanday bo'ladi?
Погода неустойчивая	Havo aynib turibdi
Дождливая погода	Yog'ingarchilik
Идет дождь, идет снег	Yomg'ir yog'yapti. qor yog'yapti
Стало тепло	Isib qoldi
Стало холодно	Sovuq tushib qoldi
Гром	Momaqaldiroq
Жара	Jazirama
Мелкий дождь	Mayda yomg'ir
Метель	Izg'irin
Молния	Chaqmoq
Мороз	Sovuq

**Topshiriq.** Yuqoridagi so'zlardan foydalangan holda bugungi kun ob-havosi haqida so'zlang. Ertangi kun obi-havosi haqida ma'lumot tayyorlang.

### SUHBAT

**Gulshoda:**

-Allo, salom Ira. O'qishlaring yaxshimi?

-Xo'p, faqat xafa bo'lmaysan. Kutubxonaga borib turibsanmi?

-“Zontik”ka o'zbek tilida “soyabon” deyiladi.

-Ha, to'g'ri gapirding. Yomg'irda qolgan bo'lsang, shamollab qolma. Ertalab ob-havo ma'lumotida bugun tushdan keyin yomg'ir yog'ishi

**Ira:**

-Rahmat, Gulshoda. Telefon qilganingdan xursandman. Agar o'zbek tilida noto'g'ri gapirsam aytasan.

-Ha, borib o'zimga kerakli kitoblarni olyapman. Bugun ham darsdan keyin borgan edim, yomg'irda qolib ketdim. Zontigimni ham olmagan ekanman.

-Rahmat. Soyabon. To'g'ri talaffuz qildimmi?

-Men ertalabki ma'lumotni eshitmay qolibman. Quyosh chiqib turganiga ishongan edim.

haqida ma'lumot berilgan edi.

-Ob-havoni oldindan bilish ko'pgina kasb egalari uchun zarur.

-Faqat uchuvchilargina emas, kema kapitanlariga ham, uzoq reysga qatnovchi haydovchilar uchun ham qiyinchilik tug'diradi.

-Ha, ob-havodagi o'zgarishlar ko'pchilik bemorlar dardini qo'zg'atadi. Demak, shifokorlar uchun ham ob-havo ma'lumotini oldindan bilish zarur ekan.

-To'g'ri. Mayli, Ira. Xayr.

-To'g'ri, og'ir ob-havo sharoitida uchuvchilar samolyotni boshqarishi qiyin bo'ladi.

-Bilasanmi, ob-havo o'zgarishidan oldin buvimlarning ham oyoqlari og'riydi.

-Ha, bu paytda bemorlarga shifokorlar qo'shimcha davo muokajalari belgilashadi.

-Xo'p, xayr.

### Ushbu matnni rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qiling.

Загрязненность атмосферы, воды, почвы и пищевых продуктов наносит ущерб здоровью человека. Каждый год в атмосферу выбрасывается более 200 миллионов тонн ядовитых газов – это отходы работы фабрик, электростанций, автомобильных двигателей и т.п. Эти газы вызывают у людей болезни легких, разрушают озоновый слой атмосферы, защищающий Землю от вредных излучений, вызывают парниковый эффект и кислотные дожди, уничтожающие растительность. Вода, необходимая человеку так же, как и воздух, тоже постоянно загрязняется: в воду попадает мусор, промышленные отходы и сельскохозяйственные удобрения, что делает ее непригодной для питья. Загрязнение рек и морей вызывает гибель многих животных и растений, а также становится причиной болезней и отравлений среди людей.

### TABIATNI ASRAYLIK

Agar havoda kislorod bo'lmasa, odam bir daqiqqa ham yashay olmaydi. Ammo tabiat bunga yo'l qo'ymaydi. U o'pkamiz uchun hamisha kerakli miqdorda toza havo yetkazib beradi. Agar suv bo'lmasa, hayot bo'lmas edi. Lekin g'amxo'r tabiatning shu kungacha insonni suvsiz qoldirgan hollari bo'lgan emas. Quyosh bo'lmasa, hayot to'xtab qolgan bo'lar edi. Ammo tabiatning buyuk qonuniga bo'ysungan Quyosh har doim erta tongda chiqib, tirik mavjudotga xizmat qiladi.

Inson – tabiatning oliy mahsuli. Boshqacha qilib aytganda – farzandi. Tabiat marhamatisiz yashay olmas ekanmiz, demak u bizning onamiz. Ha, shuning uchun ham ona-tabiatni, uning qushlari, hayvonlari, o'simliklari va boshqa boyliklarini sevishimiz, e'zozlashimiz va ko'paytirib borishimiz kerak.

Tabiat insonga faqat toza suv, havo, oziq-ovqat, kiyim-kechakkina

emas, balki sog'liq, a'lo kayfiyat ham beradi. Inson ana shu boyliklarni tabiatdan tayyor holda olmaydi, albatta. U o'zining mehnati, aql-zakovati, bilimini ishga soladi. Tabiat qonuni va sirlarini o'rgana boradi.

Tabiatni sevish, uni muhofaza qilish, yoshlarni tabiat shaydosi bo'lish ruhida tarbiyalash borasida mamlakatimizda ko'pgina ishlar amalga oshirilgan.

Havoda kisloroddan tashqari oz miqdorda ozon bo'ladi. Ozon kuchli oksidlovchanlik xossasiga ega bo'lib, bakteriyalarni o'ldiradi. Ozon, odatda, bulutli elektr zaryadidan keyin paydo bo'ladi. Olimlarning hisoblashlaricha, ona sayyoramizdagi barcha o'simliklardan yiliga 400 mlrd. tonna kislorod ajraladi.

Tabiatni muhofaza qilish barchaning burchi.

Taniqli yozuvchi Ch.Aytmatov aytganidek, tabiat bu o'zimiz demak. Hammamiz ham tabiatdan o'sib chiqib, tabiatda kamol topamiz. Tabiat oldidagi burchimiz tuganmasdir.

### Lug'at

havo – воздух  
g'amxo'g – заботливый  
buyuk – великий  
mavjudot – всеущее  
oziq-ovqat – продукты

kayfiyat – настроение  
kiyim – одежда  
ruh – дух  
muhofaza – беречь

### Savol va topshiriqlar.

#### 1. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.

«Nima bu nima?»

Inson

Tabiat bu

«Nima bo'lmasa nima bo'lmaydi?»

Agar suv bo'lmasa

Quyosh bo'lmasa

«Nima nima qiladi?»

Tabiat

Suv

Quyosh

Ozon

«Nima nima beradi?»

Tabiat insonga


Tabiat insonga yana


2. Inson – tabiatning bo'lagi deganda nimani tushunasiz?

3. «Tabiatni sevish» tushunchasini izohlab bering.

4. Siz ham atrofingizdagi tabiatni muhofaza qilishga hissa qo'shganmisiz?

5. Sizningcha, buning uchun nimalar qilish kerak?

6. Vaqtli matbuotdan tabiat muhofazasi haqida ma'lumot topib quyidagicha dialog tuzing.

-Siz kechagi gazetadagi «Tabiat qasos oladi» maqolasini o'qidingizmi?

-Afsuski, o'qimagan ekanman. U yerda nima haqida yozilgan ekan?

-Fransiya mamlakatining qirg'og'ida supertanker cho'kib, dengizga 200 tonna neft to'kilgan.

-Bu dahshat-ku! Endi nima bo'ladi? Oqibati yaxshi bo'lmasa kerak.

-Neft qirg'oqqa yaqin joylardagi suvlarning ekologik muvozanatini izdan chiqargan.

-Bu nima degani?

-Neft dengiz o'tlarini qirib yubordi. Bu esa o'z-o'zidan ular bilan oziqlanadigan dengiz hayvonlariga ta'sir qildi. Ko'p baliqlar halok bo'ldi.

-Bu narsa baliqchilar hayotiga ham ta'sir qilgan bo'lsa kerak.

-Ha, u yerda ishsizlik avj oldi.

-Demak, inson tabiatga ozor yetkazsa o'zi ham ozor chekadi, deb bekoraga aytishmas ekan.

<p>Ot predmetni bildirib, kim? nima? savoliga javob beradi. O'zbek tilida rus tilidan farqli holda kim? savoli faqat odamlarga beriladi. Otlar <u>atoqli</u> va <u>turdosh</u> bo'ladi.</p>	<p>Имя существительное обозначает предмет и отвечает на вопросы кто? что? В отличие от русского языка вопрос кто? (ким?) в узбекском языке относится только к людям. Имена существительные бывают <u>собственные</u> и <u> нарицательные</u>.</p>								
<p>Otlarda ko'plik (Множественное число имён существительных)</p>									
<p>Otlarda ko'plik shaxsni yasash uchun <u>-lar</u> qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan: <u>qush-qush+l</u>, <u>odam-odam+l</u>, <u>kitob-kitob+l</u>; Narsalar sanash ohangida aytilsa, <u>-lar</u> qo'shimchasi oxirgi so'zga qo'shilishi mumkin. Masalan: <u>Stolda kitob, daftar va darsliklar bor</u>. Sondan keyin kelgan otlarga <u>-lar</u> qo'shimchasi qo'shilmaydi. Masalan: <u>Guruhi-mizda o'n ikki talaba bor</u>.</p>	<p>Для образования множественного числа к существительным присоединяется аффикс <u>-lar</u>. Например: При перечислении ряда предметов аффикс <u>-lar</u> можно прибавить к последнему слову. Например: На столе есть книга, тетрадь и учебники. Существительные, стоящие после числительного, употребляются без аффикса <u>-lar</u>. Например: <u>В нашей группе есть 12 студентов</u>.</p>								
<p>Egalik qo'shimchalari (Аффиксы принадлежности)</p>									
<p>Egalik qo'shimchalari narsaning qaysi shaxsga tegishli ekanini bildiradi.</p> <table border="1"> <thead> <tr> <th>Birlik</th> <th>Ko'plik</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>1-shaxs <u>-m; -im</u></td> <td><u>-miz; imiz</u></td> </tr> <tr> <td>2-shaxs <u>-ng; ing</u></td> <td><u>-ngiz; ingiz</u></td> </tr> <tr> <td>3-shaxs <u>-i; -si</u></td> <td><u>-si; lari</u></td> </tr> </tbody> </table>	Birlik	Ko'plik	1-shaxs <u>-m; -im</u>	<u>-miz; imiz</u>	2-shaxs <u>-ng; ing</u>	<u>-ngiz; ingiz</u>	3-shaxs <u>-i; -si</u>	<u>-si; lari</u>	<p>Аффиксы принадлежности обозначают какому лицу принадлежит предмет.</p>
Birlik	Ko'plik								
1-shaxs <u>-m; -im</u>	<u>-miz; imiz</u>								
2-shaxs <u>-ng; ing</u>	<u>-ngiz; ingiz</u>								
3-shaxs <u>-i; -si</u>	<u>-si; lari</u>								

Mashq. Gaplarni ko'chiring. Atoqli va turdosh otlarni ajrating.

1. Barcha planetalar orasida Yupiter eng katta sayyora hisoblanadi.
2. Institutimizdagi ko'p talabalar «Sihat-salomatlik», «Hamshira» jurnallariga obuna bo'lishdi.
3. Havo yomon bo'lganligi sababli samolyot Sankt-

Peterburgda bir kun qolib ketdi. 4. O'zbekiston hududida 12 ta viloyat bor. 5. Ashurning Qorabayir oti musobaqada yutib chiqdi.

Mashq. Gaplardagi otlar qaysi shaxs va sonda berilganini ko'rsating.

1. Sog'lig'im yomonlashgani sababli shifokorga murojaat qildim.
2. Guruhingizda Afg'onistondan kelib o'qiyotganlar ham bormi?
3. Gapirmagan gaping – sening quling, gapirsang – uning quliga aylanasan.
4. Qizaloqning sochlari sharsharaday yoyilgan, yuzlarida kulgichi bor edi.
5. Osmonning rangi o'zgarib, birpasda osmonni qora bulut qopladi.
6. Insonning insonligi odob-axloqi bilan.
7. Yuzingdan kulgu, lablaringdan tabassum arimasin.
8. Yoshliging besamar o'tishini xohlamasang har bir daqiqadan unumli foydalan.

Mashq. Quyidagi otlarga III shaxs birlik qo'shimchalarini qo'shib yozing.

Bahor, kuz, nutq, burun, qayiq, ko'ngil.

### KURSDOSHIMNING PORTRETI

Mening Sevara ismli kursdoshim bor. Kursdoshimning bo'yi baland, qomati tik. Sochlari qora, qalin. Burni puchuq, peshonasi keng. Yuzlari dumaloq. Istarasi juda issiq. Doim kulib turadi. Ikki yuzida kulgichlari ham bor. Dugonam juda samimiy. O'zidan kechib bo'lsa ham menga yordam bergisi keladi. Agar o'zi yaxshi baho olsayu, mening bahom yomon bo'lsa, xafa bo'lib ketadi. Olgan a'lo bahosi ham unga tatimaydi. U juda mehnatkash. Biroq qilgan ishi yoqmasa o'sha ishni o'n marta qayta o'zgartirishdan erinmaydi. Ammo juda tez xafa bo'ladi.

U sportning basketbol, voleybol va suzish turlarini yaxshi ko'radi. O'zi esa suzishga qatnashadi. Balki shuning uchun ham uncha-bunchaga kasal bo'lavermaydi.

Oyoqlari ham uzun-uzun. U oilasidagilarga juda mehribon. Doim ularni o'ylab yuradi. Juda to'g'ri so'z, yolg'on gapirishni bilmaydi va xohlamaydi ham. Balki shuning uchun ham uni hamma hurmat qilsa kerak.

### TASHQI QIYOFA VA XULQ-ATVOR

Topshiriq. Quyidagi so'z birikmalaridan foydalangan holda do'stingiz yo tanishingizning tashqi qiyofasini tasvirlab bering.

*Yoshi:* Yigirma atrofida, o'ttizdan sal oshgan, qirqdan oshgan, oltmishga yuqin, o'rta yoshda, yosh yigit, yosh qiz, keksa, ancha keksa;

*Bo'yi:* baland, o'rtadan balandroq, o'rta, o'rtadan past, pastroq bo'yli, kichkina;

*Qomati:* qotma, ozg'in, ingichka, tik qomatli, to'la, semiz, jussali, kelishgan;

**Yelkasi:** keng, tor, to'g'ri, qush yelka;

**Ko'kragi:** baland, keng;

**Bo'yni:** yo'g'on, kalta, uzun, ingichka;

**Terisi:** qoracha, oq, qora, toza, ajin bosgan, nozik, qalin;

**Sochi:** uzun, kalta, to'g'ri, jingalak, to'lqinsimon, tekis, jamalak, paxmoq, qalin, ingichka, och, qora, jigarrang, sariq, oq, yaltiroq;

**Peshona:** keng, baland, do'ng, tor, ochiq;

**Qosh:** qora, och, qalin, keng, to'g'ri, qaldirg'och qanoidek, birlashgan, yoysimon;

**Kiprik:** uzun, kalta, egik, to'g'ri, nayzadek;

**Ko'zlar:** qora, qo'y, charos ko'z, kulrang, zangori, yashil, chuqur, nurli, ifodalı, o'ychan, ayyor, jiddiy, loqayd;

**Burun:** to'g'ri, ingichka, semiz, keng, dumaloq, yirik, bukri, puchuq, uzun, burgumikidek;

**Lab:** qalin, ingichka, to'mpaygan, oqargan, qizil, ko'kargan;

**Og'zi:** katta, kichik;

**Topshiriq.** Quyida berilgan so'zlarni qo'llagan holda kursdoshingizni tavsiflab bering.

Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari
Yaxshi, ko'rkam, yoqimtoy	yomon, xunuk, sovuqqon
<b>Xulqi</b>	
sodda, kamtar, kirishimli, xushmuomala, quvnoq, tortinchoq	loqayd, xayoli parishon, tund, «ichimdagini top» deydiganelardan
<b>Insonlarga munosabati</b>	
to'g'ri, jiddiy, prinsipli, faol, ob'yektiv	yolg'onchi, prinsipsiz, passiv, tovlamachi, ob'yektiv bo'lmagan
<b>Aqliy qobiliyatları</b>	
aqli, qobiliyatli, iste'dodli, sezgir, iqtidorli	ahmoq, aqli zaif, iste'dodsiz,
<b>Mehnatga munosabati</b>	
mehnatsevar, qiziquvchan	dangasa, yalqov, ishyoqmas

**Topshiriq.** Berilgan so'zlardan foydalangan holda gaplarni to'ldiring.

Men insonda ..... qadrlayman.	qalb go'zalligini, e'tiborlilikni, sezgirlikni
Unda ..... yetishmaydi	xushmuomalalik, hamdardlik, samimiylik
Hamma uning .... dan hayratlanadi.	to'g'ri so'zligi, aqlliligi

**Topshiriq.** Quyidagi sifatlardan otlarni hosil qiling.

Kuzatuvchan, parishonxotir, to'g'riso'z, o'ychan, mehnatsevar, ikkiyuzlamachi, qaysar.

**Topshiriq.** Quyidagi fikrlar bo'yicha o'z mulohazangizni bayon qiling.

-Zamonaviy bo'lish bu – tarixni bilish, inson madaniyatining boyliklaridan xabardor bo'lish demak.

-Zamonaviy bo'lish bu – o'zlikni anglash, jamiyatda. hayotda o'z o'rnini topish, hurmat-e'tiborga ega bo'lish, o'z qobiliyatiga yarasha va jamiyat ehtiyojiga ko'ra yaxshi mutaxassis bo'lish.

-Zamonaviy insonga faol hayot pozitsiyasi xosdir.

## 6-DARS

Kelishiklar (Падежи)	
Kelishiklar otlarning gapda boshqa so'zlarga munosabatini bildiruvchi grammatik shakllardir. O'zbek tilida 6 ta kelishik bor.	Падежами называются грамматические формы, показывающие различные отношения существительных к другим словам в предложении.

### Otlarning kelishiklarda turlanishi Склонение существительных по падежам

Название падежа	Падежные вопросы	Падежный аффикс	Соответствующая падежная форма в русском языке
Bosh kelishik	kim? (кто?), nima? (что)? Qayer? (что? какое место?)	-	Именительный падеж
Qaratqich kelishigi	kimning? (чей? чья? чье?) qayerning? (чего? какого места?)	-ning	Родительный падеж без предлога
Tushum kelishigi	kimni? (кого?) nima (ni)? (что?). qayerni? (что? какое место?)	-ni	Винительный падеж без предлога
Jo'nalish kelishigi	kimga? (кому?) nimaga? (чему?)	-ga	Дательный падеж без предлога

	qayerga? (куда?)		
O'rin-payt kelishigi	kimda? (у кого?). nimada? (на чем? за что?), qayerda (где?)	-ka,-qa  -da	Винительный падеж с предлогами в и на Родительный падеж с предлогом у Предложный падеж с предлогами в и на
Chiqish kelishigi	kimdan? (у кого, от кого?) qayerdan? (откуда?), nimadan? (из чего? с чего?)	-dan	Родительный падеж с предлогами у, от, из, с

## ANATOMIYA VA ANATOMIYA ATAMALARI

Odam organizmining barcha qismlarini, a'zolarining tuzilishini, shaklini o'rganishda lotin yoki yunon so'zlari keng qo'llaniladi. Anatomiya atamalarini birinchi marta 1894-yilda Shveysariyaning Bazeli atamalarini anatomiyasi nomenklaturasi (BNA) vositasida joriy etilgan. Lekin ular orasida a'zolar tuzilishiga mos kelmaydigan atamalar ham bo'lgan. Shuning uchun 1955-yilda Parijda chaqirilgan Xalqaro anatomlar qurultoyida yangi – Parij anatomiyasi atamalarini – PNA qabul qilindi. Hozirgi kunda anatomiyani o'rganishda PNA ga rivojlanadi.

Odam anatomiyasi (anatomiya yunoncha *anatomeo* – kesaman so'zidan olingan) odam organizmining shakli, tuzilishi, rivojlanish jaryonini o'rganadigan fanidir. Bu fan har bir a'zoning jinsiy tafvutlarini, shuningdek atrof-muhitning a'zolar tuzilishiga ta'sirini o'rganadi.

Qadimda anatomiya fani a'zolari alohida-alohida o'rgangan, ularning o'zaro munosabatlarini, organizmning bir butunligini hisobga olmasdan, faqat dalillarni to'plash bilan chegaralangan. Hozirgi davrda esa bu fan a'zolarining o'zaro munosabatlarini, ularning bir sistemaga birlashish qonuniyatlarini dialektika qonunlariga asoslangan holda o'rganadi, organizmning yagona sistema ekanligini, uning tashqi muhit bilan chambarchas bog'liqligini, shakli bilan funksiyasining bir-biriga bevosita aloqador ekanligini nazarda tutadi.

### Lug'at

qism – часть  
atama – термин  
kesmoq – резать  
jins – пол

alohida – отдельно  
dalil – доказательство  
butunlik – целостность  
to'plamoq – собирать

mos – подходящий  
chambarchas - тесно связанный

yagona – единый

### Topshiriq.

1. Matnni o'qib chiqing.
2. Matn asosida qu'yidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.

«Nima nimada keng qo'llaniladi?»

Lotin-yoki yunon so'zlar

«Nima bu nima?»

Odam anatomiyasi – bu

«Nima nimani o'rganadi?»

Odam anatomiyasi fani

Hozirgi davrda anatomiiya fani

«Nima nimani o'rganar edi?»

Qadimda anatomiya fani

## KASALXONADA

Bu shifoxona Toshkent shahrining Yunusobod tumanida joylashgan. U 1979-yili tashkil topgan. U ko'p o'rinishli va bemorlarga yuqori saviyali yordam ko'rsatishi bilan respublikada nom qozongan. Shifoxonaga kiraverishda bir nechta dorixonalar, ovqatlanish shoxobchalari tashkil etilgan. Bemorlardan tashqari, shu yerga kelib ketuvchilar uchun ham bu juda qulay. Biz shifoxonaning qabulxonasi bo'limiga kiramiz. Bu yerda shifokorlarning bir qancha xonalari mavjud. Ular quyidagilardan iborat: jarroh, travmatolog, ko'z kasalliklari, tomoq kasalliklari, nevropatolog, pediatr, UTT, tez laborator tahlil, rengtgen xonalaridan iboratdir.



Bu shifoxonada chaqaloqlar, chala tug'ilgan bolalar, reanimatsiya, emizikli bolalar bo'limi, pulmonologiya, nevrologiya, mikronevrologiya, somatika, xirurgiya bo'limlari ham mavjud. Shifokor va hamshiralar shifokorlar malakasini oshirish institutining kafedra xodimlari bilan muntazam bog'liqlikda faoliyat olib boradilar.

Har bir bo'limda navbatchi shifokor bor. Bu esa bemorlar hayoti doimiy nazoratda ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Har kuni ertalabki yig'ilish o'tkazilib, har bir bemor haqida bosh shifokor boshchiligida tahlil o'tkaziladi. Bu esa mas'uliyatni yanada oshiradi.

### Lug'at

hikoya – рассказ  
saviya – уровень  
zasluzhivayet  
mavjud – есть  
qulay – удобный  
yuqori – высокий  
miqyos – масштаб, размер

tahsin – похвала, восхищение  
sazovog – достойный,  
nazorat – контроль  
muntazam – постоянно  
bog'liqlik – связь  
oshirish – повышение квалификации

### Topshiriq.

1. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.

#### «Nima qayerda joylashgan?»

Hikoya qilmoqchi bo'lgan shifoxonamiz –

#### «Nima qanday?»

Shifoxona


#### «Nimada nimalar bor?»

Shifoxonaga kiraverishda


#### «Nimalar nimalardan iborat?»

Qabulxona bo'limidagi xonalar

#### «Nimada nima mavjud?»

Shifoxonada


2. Quyidagi «Bemordan xabar olish» nomli qabulxonadagi suhbatni o'qing, shunga o'xshash o'z dialogingizni tuzing.

### SHIFOXONADA (В БОЛЬНИЦЕ)

-Ra'no Aliyeva qaysi palatada? U bundan uch kun ilgari shu kasalxonaga keltirilgan edi.

-В какой палате находится Рано Алиева? Она поступила три дня назад в эту больницу?

-U ikkinchi qavat, o'n to'rtinchi palatada.

-Она в четырнадцатой палате на втором этаже.

-Uning ahvoli qalay?

-Как она себя чувствует?

-U ancha tuzalib qoldi.

-Ей лучше.

-U-bu narsani qay vaqtda keltirib berish mumkin?

-Когда принимаются передачи?

-Har kuni soat 17<sup>00</sup> dan.

Ежедневно с пяти часов.

-Uni kasalxonadan

qachon

-Когда её выпишут из больницы?

chiqarishadi?

-Uni uch haftadan keyin chiqarishadi.

-Ее выпишут через три недели.

### Topshiriq.

1. Matnni so'zlab bering.

2. Tibbiy muassasaning biror bo'limi haqida so'zlab bering.

3. «Bemor va shifokor» muloqotidan iborat rolli dialoglar tuzing.

Ushbu matnni ko'rib chiqib, sizning hududingizda joylashgan shifoxonani tasvirlab bering.

Shifoxonadan kiraverishda to'g'rida qabul bo'limi joylashgan. Uning chap tomonida shoshilinch yordam ko'rsatish bo'limi bor. O'ng tomonida shifoxonaning asosiy qismi joylashgan. Shifoxona foyesida eng fidoyi xodimlarning rasmlari ilingan stend bor. Stendning yonida yana bir stend bo'lib, u yerda avval shifoxonada ishlab ketgan, bu hayotdan ko'z yumganlar xotiralangan. Uning pastida chiroyli gultuvakda alvon gullar ochilib turibdi.

Qavslarning o'rniga zarur kelishikdagi so'zlarni qo'ying.

Shafar chekkasida (nima?) bor. (Nimaning) shoxida bulbullar sayrayapti. Yomg'ir yog'ib, quyosh porlagach, Anvar osmonda (nimani?) ko'rdi. Men o'qishga borish uchun (nimaga?) chiqaman. Tamaki (nimaga?) zarar. (Nimadan?) ulkan baxt yo'q. Badantarbiya (nimada?) moddalar almashinuvini yaxshilaydi.

Quyidagi savollarga so'z birikmalaridan foydalangan holda javob bering.

Bugun ma'ruzada kim bo'lmadi?	yaqin do'stim
Do'stingning nimasi yo'q?	qizil qalam
Bu gullar kimga atalgan?	aziz ustoz
O'qituvchi kimni chaqirdi?	mening kursdoshim
Odamlar nimadan vahimaga tushishdi?	qattiq zilzila
Mandat haqida kimdan bilish mumkin?	mas'ul kotib

Quyidagi gaplarni rus tiliga tarjima qiling. Gaplarda otlar qaysi kelishikda kelganini ko'rsating.

1. Shifokoming shifo topolmay o'z qolganinini bemor sezmasligi kerak. 2. Har kim ilmi bo'lishni xohlasa o'qishni yoshligidan boshlasin. 3. Sog'lik-bo'ylikdan a'lo. 4. Har bir inson o'z sog'lig'iga katta e'tibor berishi kerak. 5. To'g'ri tuzilgan kun tartibida hikmat ko'p.

## 7-DARS

Otlarning yasalishi (Образование имён существительных)	
Otlar, asosan, morfologik usul bilan yasaladi. Morfologik usulda so'z o'zagiga maxsus qo'shimchalar qo'shiladi.	Имена существительные образуются, в основном, морфологическим способом. При морфологическом способе к основе слова присоединяются особые аффиксы.
Shaxsni bildiruvchi otlar quyidagi qo'shimchalar bilan yasaladi:	Имена существительные, обозначающие названия лиц, образуются при помощи следующих аффиксов:
-chi; ishchi	рабочий
-dosh; vatandosh	соотечественник
-kash; mehnatkash	трудолюбивый
-bon; bog'bon	садовник
-paz; oshpaz	повар
-dor; chorvador	животновод
-shunos; tilshunos	языковед
-xon; kitobxon	читатель
-soz; soatsoz	часовщик
-kor; paxtakor	хлопкороб
Joyni bildiruvchi otlar quyidagi qo'shimchalar bilan yasaladi:	Имена существительные обозначающие названия мест образуются при помощи следующих аффиксов:
-zor; paxtazor	хлопковое поле
-iston; O'zbekiston	Узбекистан

Mashq. Nuqtalar o'rniga ot yasovchi qo'shimchalarni qo'yib ko'chiring.

1. Bog'... daraxtlar atrofini chopib chiqdi. 2. Kutubxonada kitob..... lar uchun konferensiya bo'ldi. 3. Paxta... xuddi oppoq qor bilan burkangandek. 4. Osh... juda shirin osh pishiribdi. 5. Chet elda vatan... larimizni uchratib qoldik. 6. Institutimizda tibbiyot... lar anjumani bo'lib o'tdi.

Mashq. Quyidagi mashqdagi yasama otlarni toping.

1. O'zbek xalqi juda mehnatkash xalq. 2. Paxtakorlar bu yilgi majburiyatni rejadan oshirib bajarishdi. 3. O'zbekiston O'rta Osiyodagi eng go'zal diyori. 4. Qozog'iston bizning eng yaqin qo'shnimiz. 5. Soatimni tuzatish uchun soatsozga olib bordim. 6. Har ikki yilda Samarqandda musiqashunoslar simpoziumi bo'lib o'tadi. 7. Kitobxonlar yozuvchi P. Qodirov bilan uchrashdilar. 8. «Qizil tong» fabrikasida juda ko'p ishchi qizlar mehnat qiladilar.

## MEN SHIFOKOR BO'LMOQCHIMAN

Yoshligimdan oq xalat kiyib yurgan shifokorlarga havas qilganim uchunmi yoki ko'p kasal bo'lganimdanmi, shifokor bo'lishni orzu qilardim. Shuning uchun ham tibbiyot institutiga kirdim. Mana 2-kursda o'qimoqdaman. Endi esa oldimda bir maqsad turibdi. U ham bo'lsa, malakali shifokor bo'lib yetishish. Shifokorlik kasbi boshqa kasblarga qaraganda ancha mas'uliyat talab qiladi. Chunki oldiga bemor kelganda bilimlarga tayanib, to'g'ri tashhis qo'yish, tez xulosa chiqara olish, davoni to'g'ri belgilash katta ahamiyatga ega.

Shifokor doimo bemorlarga yordam berishga tayyor turadigan inson bo'lishi kerak. Ba'zan bemor uchun o'z vaqti va sog'ligidan voz kechish kerak. Kasallik kechish jarayonini o'rganish uchun uni o'zida sinab ko'rgan shifokorlar ozmunchami? Qon kerak bo'lgan bemorlardan qonini ayamaganlar-chi?

Shifokorlar juda katta bilim zaxirasiga ega bo'lishlari kerak, chunki kasalliklarning kelib chiqishi, tarixi murakkab, yo'ldosh kasalliklar ko'p bo'lishi mumkin.

Men kelajakda endokrinolog bo'lmoqchiman. Bu sohaga oid ko'pgina kasalliklar qalqonsimon bez kasalliklari bilan bog'liq. Okean va dengizdan uzoqda joylashgan bizning mamlakatimizda ham yod tanqisligi muammosi bor. Bu esa o'z navbatida gipoteriozlarni hosil qiladi.

Men tibbiyot haqidagi bilimlarimni oshirib, endokrin kasallarni xalq tabobati yo'li bilan davolashni o'rganmoqchiman.

### Lug'at

tayanmoq – опираться  
xulosa – вывод  
voz kechmoq – отречься

tashxis – диагноз  
jarayon – процесс

### Topshiriq.

1. Matnni o'qib, tarjima qiling.

2. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.

«Nima nimani talab etadi?»

Shifokorlik kasbi

«Qachon nima ahamiyatli?»

Bemor shifokor oldiga kelganda

«Kim qanday bo'lishi kerak?»

Shifokor

1. Matnni mantiqiy xulosalang.

2. Matn muallifi kelajakda kim bo'lmoqchi?

3. Nima uchun u shu kasbni tanladi?

### MUTAXASSISLIKKA OID SUHBAT

**Gulshoda:**

-Salom, Dilnoza! Ishlaring yaxshimi? Biz qizlar bilan kelgusidagi mutaxassisliklarimiz haqida so'zlashib turgan edik.

-Men neonatolog bo'lmoqchiman.

-Nega aynan shu mutaxassislikni tanlamoqchisan?

-Juda yaxshi, senga havasim kelyapti.

**Dilnoza:**

-Salom, Gulshoda! Qiziq, siz qaysi mutaxassislikni tanlamoqchisiz?

Juda yaxshi. Men esa ko'z kasalliklari shifokor-oftalmolog bo'lmoqchiman.

-Chunki bir ko'rsatuvni ko'rgan edim. Bu ko'rsatuv ko'zi ojiz bolalar internati bolalari operatsiya qilinib, ko'rish qobiliyati qaytgani haqida edi. O'sha ko'rsatuvdan juda ta'sirlan-dimmi, shu mutaxassislikni tanlashga qaror qildim.

-Sen esa eng mitti bolalar bilan ishlar ekansan-da. Zamira, senchi, sen kim bo'lmoqchisan.

**Zamira:** Men esa yurak kasalliklari shifokori-kardiolog bo'lmoqchiman.

Buvimlarning yuraklari og'riydi. Ularni tuzatishni niyat qilganman.

**Salima:** Men esa endokrinolog bo'lmoqchiman.

**Qizlar:** Biz buni bilamiz.

**Salima:** Qayerdan?

**Zamira:** «Shifokor» ko'p nusxali gazetasida sening «Men shifokor bo'lmoqchiman» nomli maqolang chiqibdi-ku!

**Topshiriq.** O'zingiz orzu qilgan mutaxassislik haqida so'zlab bering. Oliy o'quv yurtiga kirishingizdan avval biror kasbingiz bo'lganmi? Boshqa kasblarga munosabatingiz qanday? Kerak yo kerak bo'lmagan kasblar ham bormi?

### KASBGA TOMON ELTADIGAN YO'L – O'QISH

Siz o'z kasbingizni to'g'ri tanladingizmi? Birinchi ma'ruzalar sizda pushaymonlik, afsus kayfiyatini uyg'otmadimi?

Kasbingizni tanlashda turli baho mezonlarini qo'llagan bo'lishingiz kerak.

-Bo'lajak kasbim qanday ijtimoiy ahamiyatga ega?

-Siz tanlagan o'quv yurti talabalariga qayerda ehtiyoj bor?

-Ishingiz shaxsiymi yoki odamlar bilan ishlashni talab qiladimi?

-Kasbingiz sizdan qanday shaxsiy sifatlarni talab qiladi? Siz bu sifatlarga egamisiz?

**Esingizda tuting:** zerikarli kasbning o'zi yo'q, faqat birdaniga uning eng qiziq tarafini ko'rish qiyin, axir, u darrov namoyon bo'lmaydi. Kasbga tomon yagona yo'l esa – o'qish, o'rganishdir.

**Topshiriq.** Quyidagi matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

### КТО КАК СЛЫШИТ?

Орган слуха у кузнечиков расположен на передних ногах. Поэтому можно сказать, что кузнечики и их родственники, сверчки, прыгают на «ушах».

У дельфинов слуховые окошки «примостились» на нижней челюсти. У раков слуховой аппарат находится на основании коротких усиков. Чуткий слух помогает некоторым хищниками охотиться. Подслеповатые от рождения летучие мыши научились на слух охотиться на бабочек и мух, находить своё гнездо и летать между линиями электропроводов, не задевая их.

Sifat (Прилагательное)	
<p>Predmetning belgisini bildirgan so'zlarga sifat deyiladi.</p> <p>Sifat <u>qanday? qanaqa? qaysi?</u> savollariga javob beradi.</p> <p>Sifat ot bilan son va kelishikda moslashmaydi.</p> <p>Chiroyli uy, chiroyli uyga, chiroyli uylarda;</p> <p>O'zbek tilida sifatlar asliy va nisbiy bo'ladi.</p> <p>1.Asliy sifatlar: <u>oq, qizil, sariq, yashil, yaxshi, katta;</u></p> <p>2.Nisbiy sifatlar. Nisbiy sifatlar boshqa so'z turkumlaridan yasaladi: <u>aql-aqli, ish-ishchan, savod-savodsiz;</u></p> <p>Sifat gapda aniqlovchi, hol va kesim vazifasida kelishi mumkin.</p>	<p>Часть речи, которая обозначает признак или качество предмета, называется <b>прилагательным</b>.</p> <p>Прилагательные отвечают на вопросы <u>какой? какая? какое? который? которая? которое?</u></p> <p>Прилагательные не согласуются с существительными ни в числе, ни в падеже.</p> <p>В узбекском языке прилагательные бывают качественными и относительными.</p> <p>1.Качественные прилагательные: белый, красный, желтый, зеленый, хороший, большой.</p> <p>2.Относительные прилагательные. Относительные прилагательные образуются из других частей речи.</p> <p>Прилагательные в предложении могут выполнять роль определения, обстоятельства и сказуемого.</p>
Sifat darajalari (Степени имён прилагательных)	
<p>Sifatning 3 ta darajasi bor:</p> <p>1.Oddiy daraja hech qanday qo'shimchaga ega emas. Masalan: <u>yaxshi, yomon, katta, kichik, keng, tor, qizil;</u></p> <p>2.Qiyosiy daraja. Qiyosiy daraja sifatga <u>-rog</u> qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: <u>katta-katta+rog, yaxshi-yaxshi+rog, arzon-arzon+rog;</u></p>	<p>Прилагательные имеют три степени:</p> <p>1.Положительная степень не имеет никаких аффиксов. Например: <u>хороший, плохой, большой, маленький, широкий, узкий, красный.</u></p> <p>2.Сравнительная степень. Сравнительная степень образуется путем присоединения к прилагательным аффикса <u>-рок</u>. Например: <u>большой-больше, хороший-лучше, дешево-дешевле</u></p>

<p>3.Orttirma daraja. Orttirma daraja eng, juda, g'oyat, bag'oyat so'zlari yordamida yasaladi. Masalan: <u>eng kuchli, juda katta, g'oyat go'zal;</u></p>	<p>3.Превосходная степень образуется сочетанием слов энг (самый), жуда, гоят, багоят (очень) с качественными прилагательными. Например: <u>Самый сильный, очень большой, очень красивый.</u></p>
---	--

### Mashqlar. Sifatlarni toping va ularning darajalarini aniqlang.

1.Dunyodagi eng uzun daryo Nil daryosi hisoblanadi. 2.Salimning bo'yi Olimnikidan balandroq bo'lgani bilan u Olimdan ancha nimjon. 3.Ko'm-ko'k osmonda parday oppoq bulutlar suzib yurishibdi. 4.Bizning eng katta xatomiz vaqt qadriga etmasligimizdadir. 5.Bu xona shinam va qulay. 6.Quyosh botayotgan paytdagi manzara har doimgidan ham chiroyliroq ko'rindi. 7.Qo'rqoq xavf oldidan titraydi, rahmdil xavfni ko'rib titraydi, botir esa xavfdan so'ng.

### Quyidagi maqollarga sifatlarni qo'yib chiqing.

1. .... so'z suyuntirar,  
.....so'z kuyuntirar.

2. ....yuzingdan....  
.....so'zing a'lo.

3. .... gap bilan ilon inidan chiqar, .... gap bilan pichoq qinidan chiqar.

### Mashq. Quyidagi so'z birikmalarini o'zbek tiliga tarjima qiling va ularning bir nechtasiga gap tuzing.

Добрый человек –  
Грубый мальчик –  
Черный карандаш –  
Грустный день –  
Трудное задание –

Дальняя дорога –  
Длинные каникулы –  
Глубокая рана –  
Горячий висок –

### Mashq. Berilgan ot turkumiga oid so'zlar quyidagi sifatlarning qaysi birlari bilan so'z birikmasini hosil qila oladi?

**Ot:** bemor, ob-havo, davo, uy.

**Sifat:** mo'tadil, og'ir, yengil, quyoshli, shifobaxsh, yangi, past, baland.

### Mashq. Nuqtalar o'rniga mos sifatlarni kerakli darajada qo'ying.

..... matematik Amper ko'chada ..... misolni yechishni o'ylab borar edi. Birdan u ... doskaga ko'zi tushib cho'ntagidan ... bo'rni olib misolni yecha boshladi. ....doska esa qo'zg'oldi. Amper yozuvini davom ettirdi. Atrofdagilarning ....

kulgusi uning fikrini bo'ldi. Qarasa, yozayotgan doskasi izvoshning orqa tomoni ekan.

**Mashq. Quyidagi matndagi oddiy darajadagi sifatlarni qiyosiy darajaga o'tkazing.**

Kuchli bo'lay desang chop,  
Go'zal bo'lay desang chop.  
Aqlli bo'lay desang chop.  
Uzoq umr ko'ray desang chop.

### YIL FASLLARI

Yer Quyosh atrofida bir yilda bir marta aylanib chiqadi. Shu davrda u o'z sirtini quyoshga har xil vaziyatda tutib beradi. Quyosh osmonda baland ko'tarilganda uning nurlari Yerga to'g'ri tushib, uni kuchliroq qizdiradi va Yer yuzi issiq bo'ladi. Quyosh uncha baland ko'tarilmay nurlari Yerga qiyalab tushganida Yerni paypaslab o'tib ketgandek bo'ladi va Yer yuzi soviy boshlaydi.

Qishdan keyin bahor, bahordan keyin go'zal yoz keladi. Yozning qoq o'rtasida 22 iyunda yozgi Quyosh tutilishi yuz beradi. Endi yoz o'zining haqiqiy kuchini ko'rsatadi. Kunlar juda isiydi, bolalar suvdan chiqmay qolishadi. Biroq hademay kuz yaqinlashib, uning ba'zi bir alomatlari paydo bo'la boshlaydi. Kunlar qisqarib, tunlar uzayadi. Asta-sekin daraxtlarning bargi sarg'ayib, to'kila boshlaydi. Hademay daraxtlar yap-yalang'och bo'lib, shumshayib qoladi, tabiat yana qorni kuta boshlaydi.

Shu tarzda fasllar almasha-almasha yil o'tadi. Azaldan bu jarayon takrorlangani takrorlangan. Ammo Yer sharining barcha joyida ham yil fasllarining bir-biridan farqi uncha sezilarli emas. Shimoliy va Janubiy qutblar atrofida yil daomida sovuq. U yerda Quyosh chiqsa ham Yerni qizdirmaydi. Ekvatorning ikkala tomonida, tropiklarda esa yilning hamma fasllari ham issiq, Quyosh har doim tik turadi. Shuning uchun ham bu yerlar Quyosh issig'ini yaxshi qabul qiladi.

### Lug'at

aylanmoq – кружиться

vaziyat – ситуация

sirt – поверхность

alomatlar – признаки

Quyosh tutilishi – затмение

Солнца

qizdirmoq – раскалять

qoq o'rtasi – прямо середина

hademay – вскоре

qutb – полюс


**Topshiriq. Matn bo'yicha quyidagi konstruksiyalar asosida gaplar tuzing.**

### «Qachon nima bo'ladi?»

Quyosh osmonda  
baland ko'tarilganda


Quyosh nurlari Yerga  
qiyalab tushganda

Yozning qoq o'rtasida



### «Nima nimadan farqli?»

Bizdan farqli Shimoliy va  
Janubiy qutblarda



**Ranglar:** qora, oq, sariq, qizil, ko'k, jigarrang, kulrang, pushti.  
Yuqoridagi sanalgan qaysi ranglar kasallik nomlarida uchraydi?

**Topshiriq. Keltirilgan otlarga mos sifatlarni toping va yozib chiqing.**

Tosh, suv, gul  
sochiq, ichak  
qo'l, oyoq, mijoz  
kasallik, dard  
bo'y, uy, daraxt  
deraza, kiyim  
sut, daftar  
globus, yo'l.  
dengiz, haqiqat  
botir, qo'rqqoq  
sog'. kasal, uzoq  
yaqin, dumaloq

katta, kichik  
baland, past  
novcha, pakana  
keng, tor, yo'g'on  
ingichka, semiz, ori  
chuqur, sayoz, og'ir  
yengil, issiq, sovuq  
quruq, ho'l, iflos  
eski, yangi, o'tkir  
o'tmas, to'g'ri  
egri, qimmat, arzon  
yosh, qari, chiroyli, xunuk

### Topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Tog'lar qanday rangda?
2. O'zbekistonda qaysi shaharlar tarixiy hisoblanadi?
3. Toshkentda qanday katta shifoxonalar bor?
4. Shifokorlar qanday bo'lishlari kerak?

### AMBULATORIYALAR

Ambulatoriya – kasalxonadan tashqarida meditsina yordami ko'rsatadigan davolash-profilaktika muassasasidir. Unda ko'pi bilan 5 ta shifokor bo'ladi. Ambulatoriya poliklinikadan o'z faoliyati hajmining kamligi bilan farq qiladi. Shifokorlar faqat asosiy ixtisosliklar bo'yicha qabul qiladilar.

Meditsina hamshirasining ambulatoriyadagi vazifalariga xona va bemorlarni qabulga tayyorlash, qabul vaqtda shifokorga yordam berish, ambulatoriya kartasining pasport qismini to'ldirish, arterial bosimni o'lchash, kasallik tarixini to'ldirish, retseptlar yozish, shuningdek murakkab bo'lmagan meditsina muolajalarini bajarish kiradi.

### PEDIATR HUZURIDA SUHBAT (AMBULATOR QABUL)

#### Shifokor (Врач)

-Assalomu alaykum, farzandingizga nima bo'ldi?

-Здравствуйте, что случилось с вашим ребенком?

-Uyda yana kimlar kasal, bironta dori-darmon qildingizmi?

-Дома ещё кто-то болеет, давали какие-то лекарства?

-Keling, bolaning tomog'ini ko'rib qo'yu.

-Дайте я посмотрю горло.

-Tomog'ida qizillik yo'q.

-В горле нет покраснений.

-Bolani endi eshitib ko'ray-chi.

-Давайте послушаю ребенка.

-Yo'q, mana bu ko'ruv stoliga yotqizing.

Нет, положите на этот смотровой стол.

#### Bemor bolaning onasi (Мать больного ребенка)

-2 kundan beri tomog'i og'rib, issig'i chiqyapti.

-В течение двух дней болит горло и повышается температура.

-Qaynonam ham shamollagan. Uyda farzandimga paratsetamol berdim va sizga murojaat qildim.

-Свекровь тоже простудилась. Дома я дала парацетамол. И сегодня пришла к Вам на приём.

-Marhamat.

-Пожалуйста.

-Ko'rishingiz uchun qo'limda ushlab turaymi?

-Как вам удобнее осмотреть? Поддержать его на руках?

-O'pkasida xirillashlar eshitilyapti, jigari ham bir oz kattalashgan.

-В легких прослушиваются хрипы, печень тоже несколько увеличена.

-Agar statsionarda yotib davolanmasa, reanimatsiya bo'limiga tushishi va asoratlari qolishi mumkin.

-Если больного не лечить в стационаре, то ребенок может попасть в реанимацию и могут быть осложнения.

-Albatta.

-Безусловно.

-Бу qo'rqinchli emasmi?

-Это не страшно?

-Bo'lmasa menga yo'llanma yozib bering. Uydagilarimga shu yerdan xabar bersam bo'ladimi?

-Тогда напишите мне направление. Могу ли я отсюда оповестить об этом своих родных?

### Mashq. Berilgan "Yil fasllari" matnini o'qing va sifatlarni aniqlang.

### 9-DARS

Son. (Имя числительное)	
Son predmetning miqdorini va sanoqdagi tartibini bildiradi. Son <u>qancha?</u> <u>necha?</u> <u>nechta?</u> <u>nechanchi?</u> savollariga javob beradi.	Имена числительные обозначают количество или порядок предметов при счете. Отвечают на вопросы <u>сколько?</u> <u>который?</u>
Sonlar ikki xil bo'ladi:	Имена числительные бывают двух видов:
1. Sanoq sonlar.	1. Количественные числительные.
2. Tartib sonlar.	2. Порядковые числительные.
Sanoq sonlarning turlari:	Разряды количественных числительных:
1. Dona sonlar: - ta, uchta, beshta, yettita;	1. Штучные числительные -та;
2. Chama sonlar: -tacha, larcha, lab; o'ntacha, yuzlab, minglarcha;	2. Приблизительные числительные: - тача, -ларча, -лаб;
3. Taqsim sonlar: - tadan beshtadan, o'ntadan, mingtadan;	3. Разделительные числительные;
4. Jamlovchi sonlar: Birdan yettigacha bo'lgan sonlarda -ov, -ala qo'shimchasi qo'shish bilan yasaladi. Uchov, to'rtov, uchala, to'rtala;	4. Собирательные числительные образуются присоединением к числительным от одного до семи аффиксов -ов, -ала;
5. Kasr sonlar: 3/7 – yettidan uch, 1/2-ikkidan bir, 1 3/4 – bir butun uchdan ikki;	5. Порядковые числительные образуются путём присоединения аффиксов -инчи, -ичи к числительным.
Tartib sonlar: Tartib sonlar -nchi, -inchi qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi.	

**Mashq. Quyidagi gaplarni tarjima qiling. Sonlarni topib, ularning turini aytib bering.**

1. Bir ko'rgan yuz eshitgandan yaxshi. 2. O'nta bo'lsa o'rni boshqa, qirqta bo'lsa qiligi. 3. Ular beshovlon o'ta baland tog' tomonga ketishdi. 4. Uyining raqamini bilmayman-u, ammo chap tomondan sanaganda birinchi uy. 5. Minglarcha odam bu o'yinni ko'rish uchun stadionga yig'ildi. 6. Agar daftarlar soni ko'p bo'lmasa hammamiz bittadan olamiz. 7. Bir butun yettidan birga uch butun yettidan ikkini qo'shsa necha bo'ladi?

### VASIYAT (Hind xalq ertagi)

Qadim zamonlarda bir kishi bo'lgan ekan. Uning 17 ta tuyasi bor ekan. U o'limi oldidan o'g'illarni chaqirib shunday debdi: Katta o'g'lim hamma tuyalarning ikkidan bir qismini, o'rtancham uchdan bir qismini, kichik o'g'lim esa to'qqizdan bir qismini olsin. O'g'illari o'ylab o'yiga etisholmash, chunki 17 na 2 ga va na 9 ga bo'linar emish. Shunda tuyasini yetaklab kelgan bir kishi bu gapni eshitib tuyasini ularning tuyalari qatoriga qo'shibdi.

-Hammasi bo'lib 18 ta tuya bo'ldi, debdi u. Uning 2 dan bir qismi 9 ta bo'ladi deb katta o'g'liga 9 ta tuyani ajratibdi. Shunday qilib tuyaning oltovini o'rtancha o'g'ilga, kichigiga 2 ta tuya beribdi. O'zi esa bir tuyasini olib yo'lga ravona bo'libdi.

### SHIFOKOR MA'NAVIYATI

Shifokorlik kasbi undan yuksak ma'naviyatli bo'lishni talab qiladi. Shifokorning yuqori ma'naviyatli bo'lishi uning pok axloqiy qiyofasi bilan chambarchas bog'liqdir. Yaxshi inson bo'lmagan odam yaxshi shifokor bo'lolmaydi. Yaxshi, komil inson – bu ta'magirlik, qalloblikdan xoli bo'lgan, samimiy, oliyjanob odamdir. U o'z atrofidaulariga yaxshilik istovchi, ularning tashvish va quvonchlarini tushunuvchi, kerak bo'lsa vaqtini ayamay, so'zi va ishi bilan beg'araz yordam beruvchi, odamlarni sevuvchi shaxsdir. Odamoxunlik va xushmuomalalik yaxshi shifokor uchun o'ta muhim bo'lgan sifat hisoblanadi.

Bemorning yonida hamkasblari bilan so'zlashganda, shifokor tushunarli bo'lmagan tibbiy iboralarni ishlatmasligi kerak. Aks holda bemor buni o'zicha tushunishi yoki noto'g'ri talqin qilib, shubhaga tushishi mumkin.

Shuni yodda tutish kerakki, og'ir kasalliklar va davolab bo'lmaydigan o'zgarishlar qayd qilinsa ham. (saraton kasalligi, buyrak va jigar faoliyati buzilishining tuzalmas turlari va sh.k.) bemorga haqiqatni aytmaslik kerak, chunki u tuzalib ketishga umid bog'laydi. Shu umidni shifokor eng og'ir hollarda ham bemorning ko'ngliga solishi lozim. Ko'pincha bunday paytlarda bemor dardi bedavo ekanini, bemorning hayoti tugab qolganini shifokorlar

uning eng yaqin va yoshi ulug'roq qarindoshi yoki do'stiga ma'lum qiladilar. Lekin bu holda ham juda ehtiyot bo'lish kerak, sirdan voqif bo'lgan shaxs uni bemorga va boshqalarga oshkor qilmasligi shart.

Shifokorlar orasidagi o'zaro munosabat bemor foydasi uchun bir-birini qo'llab-quvvatlashga va birgalashib yordam berishga asoslangan bo'lishi kerak. Boshqa shifokorning ishida kamchilik sezilsa, shifokor bemorga bilintirmay uni tuzatib yuborishi ham farz, ham qarz. Bemorlarga har bir shifokorga uchraganda yordam olajakligini tushuntirish kerak.

### Lug'at

ta'magirlik – корысть  
axloq – этика, мораль  
chambarchas – неразрывно  
hamkasb – коллега

bedavo – неизлечимый  
saraton – рак  
talqin – тракторка  
shubha – сомнение

Savol va topshiriqlar.

1. Matnni o'qib tarjima qiling.

2. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.

«Kim bu kim?»

Yaxshi, komil inson bu

«Nimalar kimning belgisi?»

yaxshi shifokorning belgisi

«Qayerda nima qilmaslik kerak?»

Bemorning yonida shifokor

«Kimga nima demaslik kerak?»

Kasali og'ir bemorga shifokor

«Nima qanday bo'lishi kerak?»

Shifokorlarning o'zaro munosabati


### 3. "Palatada shifokor va bemor muloqoti" dialogini tuzing.

**Mashq. Vaqt hisobi ifodalangan savol-javoblarni bilib oling va kun tartibingizni aytib bering.**

— Soat necha? Hozir soat necha bo'ldi?

(Сколько времени? Который час?)

— Soat bir. Soat uch yarim.

(Час. Половина четвертого)

— Soat to'rtidan o'n besh minut o'tdi.

(Четверть пятого)

— Soat o'n besh minuti kam uch.

(Без пятнадцати три)

— Soat uchdan besh minut o'tdi.

(Пять минут четвертого)

**Mashq. Savollarga javob bering.**

1. Darsingiz soat nechada boshlanadi?

2. Nechanchi yilda tug'ilgansiz?

3. Toshkent Tibbiyot akademiyasi qachon tashkil topdi?

4. Sizning uyingizga «Paxtakor» bekatidan nechanchi avtobus boradi?

5. Bugun necha daraja issiq?

6. Guruhingizda nechta talaba o'qiydi?

7. O'ning yarmi necha bo'ladi?

8. Bir yilda necha kun bor?

## 10-DARS

Olmosh (Местоимение)	
От, sifat, son o'rnida qo'llaniladigan so'zlar turkumiga <u>olmosh</u> deyiladi. Olmosh quyidagi turlarga bo'linadi: 1. Kishilik olmoshlari: <i>Men, sen, u; biz, siz, ular;</i> 2. O'zlik olmoshi: <i>o'z</i> 3. Ko'rsatish olmoshlari: <i>u, bu, shu, mana, ana, bu, ana u, mana shu;</i> 4. So'roq olmoshlari: <i>hamma so'roq so'zlar kiradi.</i> 5. Belgilash olmoshlari: <i>hamma, barcha, ba'zi, har, har bir, har kim, har narsa;</i> 6. Bo'lishsizlik olmoshlari: So'roq olmoshlaridan oldin <u>hech</u> so'zini ishlatish bilan yasaladi. 7. Gumon olmoshlari. Gumon olmoshlari so'roq olmoshlaridan oldin <u>-alla</u> ulardan keyin <u>-dir</u> qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi: <i>allakim, allanima, kimdir, nimadir;</i>	Часть речи, которая употребляется вместо существительного, прилагательного и числительного. называется <u>местоимением</u> . Местоимения делятся на следующие разряды: 1. Личные местоимения: я, ты, он; мы, вы, они; 2. Возвратное местоимение: сам... 3. Указательные местоимения: тот... 4. Вопросительные местоимения: (все вопросительные слова) 5. Определительные местоимения. 6. Отрицательные местоимения образуются путём употребления слова <u>хеч</u> перед вопросительными местоимениями. 7. Неопределённые местоимения. Неопределённые местоимения образуются путём присоединения к вопросительным местоимениям: Приставки <u>-alla</u> ; аффикса <u>-dir</u> .

### MATN. DORISHUNOSLIK

Kimyo, farmatsevtika va tibbiyot fanlarining taraqqiyoti natijasida bemorlarni davolashda qo'llaniladigan dori moddlarining turlari va sonlari kundan-kunga ko'payib bormoqda. Shunday ekan, shifokor va o'rta tibbiyot xodimlaridan bu ishda yanada chuqurroq bilim talab qilinmoqda.

O'rta tibbiyot xodimlari ish faoliyatida bemorlar bilan ko'p muloqotda bo'ladilar, dori-darmonlar tarqatadilar. Feldsherlik va akusherlik punktlarida bemorlarni ko'rib dorilar yozadilar. Bundan tashqari, o'rta tibbiyot xodimlari ko'proq dorilarning nojo'ya va toksik ta'sirlariga birinchi bo'lib duch keladilar va birinchi yordam ko'rsatadilar.

Vaqt o'tgan sari tibbiyot amaliyotida bir qancha dori moddalar eskirib qolganligi va faolligi kam bo'lganligi uchun Davlat reyestridan chiqarib tashlanadi. Shu bilan birga bir qancha yangi, ta'sir kuchi yuqori bo'lgan dori moddalar tibbiyot amaliyotida keng qo'llanishga tavsiya qilinadi.

Shunga ko'ra aytib o'tilgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda



tibbiyot bilim yurtlarida tahsil olayotgan talabalar, o'рта tibbiyot xodimlari dorishunoslik fanini ham chuqurroq bilishlari davr taqozosiga aylanmoqda. Bemorning kasalini aniq bilish, dori moddalarining qanchalik naf berishi yoki zarar keltirishini puxta o'ylab ko'rish, shundan keyin uni buyurish lozimligini bilish uchun farmakoterapevtik xossalari qarang guruhlariga ajratamiz.

Dorilarni ta'riflashda ta'siriga, ishlatiladigan o'rni, ishlatish usuli, dozalariga, shu bilan birga dorilarning nojo'ya ta'sirlariga, qo'llab bo'lmaydigan hollariga e'tibor berish kerak. Ba'zi bir moddalarini stasionar sharoitdagina ishlatish lozimligini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

### Dori moddalarni organizmga yuborish yo'llari:

Enteral: til ostiga  
og'iz orqali  
o'n ikki barmoq ichiga  
to'g'ri ichakka

Parenteral: nafas orqali  
teri ustiga  
shilliq qavatlarga  
bo'shliqlarga  
teri ostiga  
mushaklar orasiga  
venalarga  
arteriyalarga  
orqa miya kanaliga  
bo'g'imlarga  
suyaklar orasiga  
yurak mushaklariga  
ionoforez

### Lug'at

faollik – активность  
tarqatmoq – раздавать  
o'рта tibbiyot xodimlari – средний  
медицинский персонал

tahsil – учеба  
zarar – вред

### Topshiriq.

1. Matnni o'qing.
2. Matn bo'yicha quyidagi konstruksiyalar asosida gaplar tuzing.


«Nima natijasida nima bo'lmoqda?»

Kimyo, farmatsevtika va tibbiyot fanlarining taraqqiyoti natijasida

«Kimlar nima qildilar?»

O'рта tibbiyot xodimlari

«Nima nimaga aylanmoqda?»



– davr taqozosiga aylanmoqda.

«Nimada nimaga e'tibor berish kerak?»

Dorilarni ta'riflashda

**Mashq.** Quyidagi mashqni ko'chiring. Olmoshlarni topib, ularning turlarini aniqlang.

Insonni hech nima vijdon azobi kabi qiynamasa kerak. Men do'stimning xatolarini o'z vaqtida yuziga aytmaganim uchun haligacha o'zimni ayblayman. Allakimlar aytgan gaplarga ishonib, ko'zing bilan ko'rmagan narsa haqida fikr bildirish odobdan emas. Men doim shu yo'ldan o'tganimda og'ir kunimda yordam bergan o'sha odamni uchratamanmi deb atrofga qarab qo'yaman. O'zingga nimani ravo ko'rsang, o'zgaga ham shuni ravo ko'r. Shuni esda tutish lozimki, har bir kishi, u kim, qaysi kasbni egallashidan qat'iy nazar jamiyatning bir bo'lagi.

**Mashq.** Yumorni o'qing. Uni tarjima qilib, olmoshlarni toping.

Bir kuni o'z sog'lig'iga nihoyatda e'tiborli kishining qo'li ozgina timalib ketadi. Shunda u o'sha atrofda mashhur shifokorni tezda chaqirtiradi. Birpasda yetib kelgan shifokor jarohatni ko'rib unga shunday deydi: tezda o'g'lingizni yod opkelish uchun dorixonaga yuboring, bo'lmasa....  
-Bo'lmasa nimadir bo'ladimi? - xavotirga tushdi bemor.

-Albatta, - dedi shifokor xotirjam ohangda, - bo'lmasa yarangiz tuzalib qoladi.

**Mashq. Ajratilgan so'zlar o'rniga kishilik olmoshlarini qo'yib chiqing.**

1. Alisher do'stini juda yaxshi biladi. 2. Aqida va Shoxidalar bugun darsga kelishdimi? 3. Do'stimning xatiga javob yozdim. 4. Oyim bilan birga do'konga bordik.

### DORIXONADA

-Assalomu alaykum!

-Vaalaykum assalom!

-Menga dorilar kerak edi.

-Iltimos retseptni bering.

-Mana, marhamat!

-Sefazilin va novokain bizda bor. 7 kunga 21 ta olishingiz kerak ekan.

Novokain bilan qo'shganda 3 ming 500 so'm bo'ladi.

-Yana 5 gramml shpritslaringizdan ham bersangiz.

Marhamat. Bu yerda darmondorilar ham tavsiya etilgan. Quritilgan na'matak mevalari bor. Uni damlab ichasiz.

-Damlamani qanday tayyorlayman?

-Tavsiyada hammasi aniq yozilgan. O'qib beraymi?

-Yo'q, agar tavsiyasi bo'lsa uyda batafsil o'qib olaman. Sizdan bir narsa so'ramoqchi edim. Bugun ertalabdan o'zimning ham boshim og'riyapti. Men ham gripp bo'lganga o'xshayman.

-Tumovingiz ham borga o'xshayapti.

-Ha, menga nima dori tavsiya etasiz?

-Mana, «Rinza» kukuni. Uni iliq suvga solib iching. U ham bosh og'rig'iga, ham tumovga juda foydali dori vositasi hisoblanadi.

-Rahmat, hamma dorilar necha pul bo'ladi?

-Besh ming besh yuz oltmish sakkiz so'm.

-Mana, pulingiz.

-Rahmat, qaytimini oling. Tezroq tuzalib keting.

-Rahmat, xayr!

### Dorixonaga oid so'zlar

dorixona – аптека

qattiq dorilar – таблетки

eritmalar – растворы

kukun – порошок

tayyor dorilar bo'limi – отдел готовых лекарств

harorat o'lchagich – термометр

bog'lov materiallari – перевязочные средства

retseptura bo'limi – рецептурный отдел

### Savol va topshiriqlar.


1. Sizning hududingizda qanday dorixonalar bor?

2. Dorixonalarda qanday bo'limlar bor?

3. Tayyor dorilar bo'limida qanday dorilar sotiladi?

4. Doka, tibbiy paxta va boshqa bog'lov vositalari ham dorixonada sotiladimi?

Quyidagi krossvordni yeching.



**Eniga:** 1. Toshma toshish bilan kechuvchi bolalar kasalligi. 2. O'pka yallig'lanishi bilan kechuvchi kasallik. 5. O'pka uchun xavfli bo'lgan kasallik. 6. Toshma toshish va ich og'rig'i bilan kechuvchi kasallik. 7. Ich ketishi bilan kechuvchi kasallik.

**Bo'yiga:** 1. Homilador ayollar uchun xavfli bo'lgan toshma toshish bilan kechuvchi kasallik. 3. Limfa tugunlarining yallig'lanishi. 4. Bemorning rangi o'zgarishi bilan kechuvchi kasallik.

Fe'l (Глагол)	
Predmetning ish-harakatini yoki holatini bildirgan so'zlarga <u>fe'l</u> deyiladi. Fe'llar <u>nima qildi? nima qilvapti? nima qilmoqchi?</u> savollariga javob beradi.	Слова, обозначающие действие или состояние предмета, называются глаголом. Глаголы отвечают на вопросы <u>что сделал?</u> <u>что делает?</u> <u>что будет делать?</u>
<b>Fe'llarning bo'lishli va bo'lishsiz shakli, tuzilishiga ko'ra turlari (Положительная и отрицательная форма глагола, глаголы по структуре)</b>	
Bo'lishli fe'llar ish-harakatning bajarilishini bildiradi. Masalan: yoz, boshla, o'yla, so'zla, ishla.	Положительная форма глагола выражает действие положительного знака.
Bo'lishsiz fe'llar ish-harakatni ta'qiqlashni yoki bajarilmaslikni bildiradi.	Отрицательная форма глагола выражает запрещение или отрицание действия.
Bo'lishsiz fe'l fe'l o'zagiga <u>-ma</u> qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: yoz+ma, ishla+ma, o'qi+ma, gapir+ma;	Отрицательная форма образуется путём присоединения к основе глагола аффикса <u>-ma</u> .
Tuzilishiga ko'ra fe'llar sodda va qo'shma bo'ladi. Sodda fe'llar faqat bitta fe'ldan tashkil topadi. Masalan: kel, tur, bor	ёз+ма, ишла+ма, ўқи+ма, гапир+ма; По структуре глаголы бывают простые и сложные. Простые глаголы состоят только из одного глагола.
Qo'shma fe'l ikki va undan ortiq so'zlardan tashkil topadi. Masalan: o'qib chiqmoq.	Сложные глаголы состоят из двух или более слов. Например: гапириб бермок.
Fe'llar yasalishiga ko'ra tub va yasama bo'ladi. Yasama fe'llar boshqa so'z turkumlaridan fe'l yasovchi qo'shimcha orqali yasaladi. Masalan: ish+la, so'z+la, foyda+lan;	По образованию глаголы бывают непроизводными и производными. Производные глаголы образуются при помощи глаголообразующих аффиксов. Например: иш+ла, сўз+ла, фойда+лан;

### Gaplarni tarjima qiling. Fe'llarni kerakli shaklda yozing.

- 1.Uyqu paytida biz atrofimizda nima bo'layotganligini angla.....miz.
- 2.Odamlarning aksariyati uzoq yashashni istaydilar, qarishni xohla....dilar.
- 3.Hamma ham bir xil qari.....di. ammo yosh o'tib borgan sayin ma'lum o'zgarishlardan qutulib bo'lmaydi.
- 4.Qarish jarayonida oshqozon traktida oshqozon shirasining miqdori kama...di.
- 5.Ko'p hollarda tepki bilan og'rib tuzalgan kishi tepkiga qarshi immunitetga ega bo'l...di.
- 6.Bo'g'ma kasalligi bilan ikki yoshdan besh yoshgacha bo'lgan bolalar ko'proq xastalan....dilar.
- 7.

Xol dog'larining ko'pi tug'ilishdan oldin yoki tug'ilgan zahoti paydo bo'ladi. ammo ba'zi hollarda ular 14-15 yoshgacha ko'zga tashlanma...di.

### Qavs ichidagi berilgan fe'llarni bo'lishli shaklda yozing.

1.Vadim va Inna har kuni kamida bir soat o'zbek tili bilan (shug'ullanmoq). 2.Kursdoshim dam olish kunida baliq oviga borgani haqida (so'zlamog). 3.Bosh miya buyrug'iga binoan tish ovqatning ma'lum bir qismini (tishlamog) va so'lak bilan namlangan ovqatni (chaynamog) so'ngra ovqat bo'g'izga, keyin esa qizilo'ngachga (o'tmog). 4.Yog'lar o'simliklar va hayvonlar organizmi tarkibiga suyuq yoki qattiq holatda (kirmog). 5.Yog'lar, uglevodlar va oqsillar ovqatning uchta asosiy turi (hisoblanmog).

### ABU ALI IBN SINO

Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Ali ibn Sino qomusiy olim sifatida o'z davridagi fanlarning deyarli barchasi bilan shug'ullangan.

Falsafa, tabobat, fizika, kimyo, matematika, geologiya, mineralogiya, astronomiya, botanika, din tarixi, musiqa, she'riyat, filologiya va boshqa fanlarga oid asarlari allomaning buyuk iste'dod sohibi va yirik qomusiy olim sifatida shuhrat qozonganining dalilidir. Ilmiy adabiyotlarda Ibn Sino qalamiga mansub 450 dan ortiq asar qayd etiladi. Ammo bizning zamonamizga ularning yarmidan ko'prog'i yetib kelgan, xolos.

Ibn Sino Buxoro yonidagi Afshona qishlog'ida tug'ildi, yoshligi ham shu erda o'tdi. So'ng uning ota-onasi Buxoroga ko'chib keladi va u Buxoroda mavjud bo'lgan ilmiy muhit ta'sirida ko'p fanlar bilan shug'ullanadi. U yoshligidanoq noyob iste'dod va xotira egasi bo'lib, atrofda qilami hayratga soladi. Uning yoshligi va o'spirinlik yillari Buxoroda Somoniylarning hukmronlik davriga to'g'ri keladi. Bo'lajak olim saroyning boy kutubxonasidagi kitoblardan foydalanadi, shahardagi kitob bozoridan noyob qo'lyozmalarni sotib olib, bilimni oshira boradi.

999-yilda Somoniylar hukumati qulab, shaharni Qoraxoniylar bosib oladi. Ibn Sino bu davrda barcha ilmlarni egallagan va qator risolalar yoza boshlagan edi.

Ibn Sino Xorazm (Urganch)ga ko'chib keladi va shoh Ma'mun saroyidagi olimlar bilan tanishadi. Bu yerda Ibn Sino Iroqiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu al-Xayr Xammar, al-Masihiy kabi olimlar davrasida ijod qilib, bir necha risolalar yaratadi. So'ng janubda Mahmud G'aznaviy davlatining xuruji orta borishi bilan Eronga yuz tutadi. Eronning Gurgon, Ray, Isfahon kabi qator shaharlarida sarson kezib, 1037-yil 57 yoshida Hamadonda kasallikdan vafot etadi.

Ibn Sino Sharq va jahon hazinasiga tayanib, o'zining falsafa, tabobat va tabiat ilmlariga bag'ishlangan "Shifo kitobi" ("Kitob ash-Shifo"), "Tib qonunlari" ("Al-qonun fit-tib"), "Najot kitobi" ("Kitob an-najot"), "Bilimlar kitobi" ("Donishnoma") kabi yirik asarlarini yozdi.

Ibn Sino falsafiy asarlarining eng yirigi "Ash-Shifo"dir. U to'rt qism va 22 jilddan iborat bo'lib, unda mantiq, metafizika, fizika, matematikaga oid masalalar talqin etiladi. Ammo unga eng katta shuhrat kelgan asar «Tib qonunlari» bo'ldi.

qomusiy – энциклопедический  
sifa'ida – в качестве  
al'foma – ученый, мыслитель  
xolos – только лишь, всего лишь  
muhit – среда  
xazina – клад

saroy – дворец  
poyob – редкий  
bozor – рынок  
qulamoq – падать  
oshirmoq – увеличивать

## Savol va topshiriqlar.

1. Nima uchun Ibn Sinoni qomusiy olim deb atashgan?
2. Ibn Sino merosining qancha qismi bizgacha yetib kelgan?
3. Ibn Sinoning yoshlik yillari qayerda o'tgan?
4. Matni dialog asosida tuzing.
5. «Ibn Sino» matnini o'qing «Ajoyib kishilar hayoti» mavzusida kichik ma'ruzalar tayyorlang. Quyidagi ma'ruzalar mavzusini tanlash mumkin: «Ibn Sino hayoti va ijodi», «Ibn Sinoning «Tib qonunlari», «Ibn Sino asarlarida sog'lom turmush tarzi», «Badiiy adabiyotda Ibn Sino obrazi», «Abu Ali ibn Sino siymosining tarbiyaviy ahamiyati». Keling, namuna sifatida so'nggi mavzuni olaylik.

## RIVOYATLARNING ASOSIY MAVZUSI

«Donishmand ustoz» rivoyati. Ibn Sinoga ikki kishi farzandini shogirdlikka olib kelibdi. Ustoz ularga vazifa beradi. O'n kun ichida tog'dan dorivor o'simliklar yig'ib kelishni aytadi. Birinchi yigit giyohlarni yig'ib keladi, ammo uning shifobaxsh xususiyatlarini aytib bera olmaydi. Ikkinchi yigit esa giyohlar haqida ma'lumot yig'adi va qaysisi nimaga davoligini aytadi. Ibn Sino ikkinchi yigitni shogird qilib oladi.

Ushbu rivoyatning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, har bir vazifaga, ayniqsa, u kasbing bilan bog'liq bo'lsa, sidqidildan yondoshish zarur. Shundagina inson o'z maqsadiga erishadi. O'qib-o'rganish hamisha foyda beradi.

## Nargiza:

- Men bugun kutubxonadan Ibn Sinoning «Tib qonunlari» kitobini oldim.

- Ha, bilaman, besh mustaqil tibbiy asardan tarkib topgan bo'lib, ularning har biri ma'lum sohani izchil, har taraflama yoritib beradi.

- Men bu kitobda dorilar haqida ham ma'lumotlar bor deb eshitgan edim.

- Uchinchi kitob nimaga bag'ishlangan?

- Men bir manbada o'qigan edim. XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilingan "Tib qonunlari" sakkiz asr davomida ham Sharq, ham Farb mamlakatlarida tabobat sohasida qo'llanma vazifasini o'tab kelmoqda. U Yevropada tibbiyot rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan ekan. Xo'sh, bu kitobning 4-5-qismlari nimaga bag'ishlangan?

- Ibn Sinoning betakror ilmiy merosi atoqli vatandoshimizning insoniyat tarixidagi eng buyuk qomusiy olimlardan biri ekanining yorqin isbotidir.

## Lyuba:

- Yaxshi qilibsan. Bu kitob hamma tibbiyotchilarda bo'lishi kerak, chunki bu asar mazmuniga ko'ra tibbiy bilimlarning nodir majmuasi – qomusi hisoblanadi.

- Unda batafsilroq eshit. 1-kitobda tibbiyotning nazariy asoslari berilib, uning predmeti, vazifalari, bo'lim va usullari, kasallikning kelib chiqish sabablari, belgilari, sog'liqni saqlash yo'llari, odam anatomiyasi kabi nazariy ma'lumotlar bayon etiladi.

- "Qonun"ning oddiy dorilarga bag'ishlangan ikkinchi kitobida, asosan, o'simliklardan tayyorlanuvchi 760 ta dorining xususiyatlari, ulami tayyorlash va iste'mol qilish usullari haqida muhim mulohazalar keltiriladi.

- Uchinchi kitobda insonning ayrim a'zolari, jumladan, bosh miya, asab, ko'z, quloq, burun, tomoq, qorin kasalliklari batafsil tahlil qilinadi.

- Asarning to'rtinchi kitobi inson organizmining umumiy kasalliklariga bag'ishlanadi. Unda isitmalar, jarohlik masalalari, suyak sinishi, jarohatlanish, ulami davolash usullari va boshqa yuqumli kasalliklar tavsiflanadi.

Nihoyat "qonun"ning beshinchi kitobida murakkab dorilarning organizmga ta'siri ulami tayyorlash va iste'mol qilish usullari bayon qilingan.

- Ibn Sino ilmiy merosini o'rganish borasida ko'p ishlar amalga oshirilmog'da. Hozircha dunyo miqyosida uning asarlari qator tillarga tarjima etildi va bir qancha tadqiqotlar yaratildi. Jumladan, uning yirik asari "Tib qonunlari" olimning vatani O'zbekistonda arab tilidan rus va o'zbek tiliga to'la tarjima qilinib, ilmiy izohlar bilan nashr etildi.

## Lug'at

tanilmoq – прославляться  
 nodir – редкий  
 majmua – сборник  
 asar – произведение  
 sinish – перелом

izchil – последовательно  
 nazariy – теоретический  
 mulohaza – суждение  
 suyak – кость

### Savol va topshiriqlar.

1. Ibn Sinoning «Tib qonunlari» necha kitobdan iborat?
2. Uning birinchi kitobi nimaga bag'ishlangan?
3. «Tib qonunlari»ning ikkinchi kitobida nechta doriga tavsif berilgan?
4. Asarning 3-kitobida qaysi kasalliklar batafsil tahlil qilinadi?
5. Ibn Sino 4- kitobiga qaysi kasalliklar ta'rifini kiritadi?
6. «Ibn Sinoning «Tib qonunlari» mavzusida referat tayyorlang.

## 12-DARS

Fe'l zamonlari (Времена глагола)	
Fe'lning uchta zamoni bor: 1. O'tgan zamon. 2. Hozirgi zamon. 3. Kelasi zamon. O'tgan zamon fe'li quyidagi shakllarga ega: 1. Aniq o'tgan zamon fe'li. 2. Yaqin o'tgan zamon fe'li. 3. Uzoq o'tgan zamon fe'li. 4. O'tgan zamon davom fe'li.	Глагол имеет три времени: 1. Прошедшее время. 2. Настоящее время. 3. Будущее время. Прошедшее время глагола имеет следующие формы: 1. Очевидное прошедшее время глагола. 2. Причастное прошедшее время глагола. 3. Давнопрошедшее время глагола. 4. Многократно-длительное время глагола.

### Mashq. Quyida berilgan gaplar qaysi fe'l zamoniga mansub?

1. Asta esgan shabada o'rik gullarini to'ka boshladi. 2. A'zam anatomiya darsida javob beryapti. 3. Institutimizda har yili Talabalar ilmiy anjumani o'tkaziladi. 4. Yozda dam olish uchun Qora dengizga boraman. 5. Shamshod «Paxtakof» komandasining eng zo'r hujumchisidir. 6. Yam-yashil barglar ustidagi shudring quyosh nurida xuddi billur donalardak yaltirab turibdi. 7. Jiyanim Nargiza Toshkent Tibbiyot akademiyasida o'qimoqda. 8. O't kuydirar, yer to'ydirar. 9. Har bahor mahallamizda Navro'z bayrami keng

nishonlanadi. 10. Ichkaridan chiqib kelgan maxdum mulla Abdurahmonni ko'rib qoldi.


### Aniq o'tgan zamon fe'lining bo'lishli shakli




### Aniq o'tgan zamon fe'lining bo'lishsiz shakli




### Yaqin o'tgan zamon fe'lining bo'lishli shakli




### Yaqin o'tgan zamon fe'lining bo'lishsiz shakli




### Uzoq o'tgan zamon fe'lining bo'lishli shakli




### Uzoq o'tgan zamon fe'lining bo'lishsiz shakli



### O'tgan zamon davom fe'lining bo'lishli shakli



## O'tgan zamon davom fe'lining bo'lishsiz shakli



**Mashq.** Quyidagi gaplar o'tgan zamon fe'lining qaysi turiga mansubligini ayting.

1. Men kecha dugonamni institutda ko'rib qoldim. 2. Biz yakshanba kuni toqqa chiqadigan bo'ldik. 3. Kitobni kutubxonadan olmoqchi edim. 4. Tevarak atrofda odamlar to'planib kela boshladilar. 5. Bahorda ko'm-ko'k libos kiyib olgan barglar kuzda sariq, qizil va ko'kimtir barglar ichida tovlanardi. 6. Men ertaga siznikiga borib kelar edim. 7. Yozib-chizib o'tirganingizni ko'rib, so'zga chiqarsiz, deb o'ylagan edim. 8. Nargiza seni tag'in eslabdi. 9. Quyosh g'uborsiz ko'kda porlar edi. 10. O'g'lingiz hamma darslardan a'lo baho olibdi.

**Topshiriq.** Hech amaliyot haqida jiddiy o'ylab ko'rganmisiz? Amaliyot bu kasb tomon birinchi qo'yilgan qadamdir. Hukmingizga amaliyotni o'tagan qizning kundaligidagi yozuvidan bir parchasini havola etmoqdamiz. Ushbu matnni o'qing va undagi o'tgan zamon fe'llarini toping.

«Men amaliyotni bunchalik qiyin, qiziqarli va mas'uliyatli bo'ladi. deb o'ylamagan edim. Amaliyotim tug'ruqxonaning neonatologiya bo'limida o'tadim. Mittigina chaqaloqlarni qo'lga olish juda hayajonli edi. Bizga barcha muolajalar haqida yana bir bor bo'lim hamshiralari va shifokorlari, amaliyotimiz uchun mas'ul ustozimiz so'zlab berdilar. Amaliyot davrida qiziq voqealar ham yuz berdi. Bir chaqaloq tinimsiz og'zini harakatga keltirar, yuzini burishtirar edi. Kasalxonaning deyarli barcha mutaxassislari yig'ilib unga tashxis qo'yish uchun konsilium o'tkazishdi. Asab kasalliklari bo'yicha mutaxassisni ham chaqirishdi. Ammo hech kim unga to'g'ri tashxis qo'ya olmadi. Bola tug'ruqxonadan ketish oldidan esa buning sababi ma'lum bo'ldi. U tishi bilan tug'ilgani, chiqayotgan tish milklarini qichitib, og'ritgani uchun hadeb g'alati harakatlar qilayotgani ma'lum bo'ldi.

O'zbekistonda bunday bolalarga Bo'riboy, Bo'rixon deb ism qo'yishadi. Ruslarda bunday ism yo'qligi sababli unga «Misha-ayiqpolvon» deb ism berishdi.

**Topshiriq.**

1. Quyidagi mashqdan o'tgan zamon fe'llarini toping. Ular qaysi turga to'g'ri kelishini aniqlang.

2. Amaliyotda, klinika bo'limlarida dars o'tganingizda, shifokor bilan bemorlar ko'rigida qatnashganingizda qiziq voqealarga duch kelganmisiz? Shular haqida so'zlab bering.

## KASALLIKNING RIVOJLANISH ANAMNEZI

Anamnezning asl ma'nosi *eslamoq* demakdir. Demak, tekshirilayotgan bemor o'zida kasallik qanday paydo bo'lganini, shifokorga uchragunga qadar uning qanday davom etganini eslab, mukammal aytib berishi kerak.

Agarda bemorning ahvoli og'ir bo'lsa, kasallik anamnezi bemorning kasalini yaqindan biluvchi kishilar yordamida to'planadi.

Bemorga birinchi yordam ko'rsatgan tibbiyot xodimlarining ma'lumotlari va ular bergan hujjatlar kasallik anamneziga material bo'lib kiradi. Anamnez diagnostik jarayonning birinchi bosqichi bo'lganligi uchun, uni to'liq to'plash katta ahamiyatga ega.

Bemorlar ko'pincha kasallikning uncha qimmatga ega bo'lmagan belgilarini, o'zlarining qanday davolash muassasalarida bo'lganliklari to'g'risida mukammal gapirib, shifokorga kerak bo'lgan ma'lumotlarni aytmaligi mumkin, shuning uchun anamnez to'playotgan shifokor bemorga muloyimlik bilan qo'shimcha savollar berib, asosiy ma'lumotlarni bilib olishga harakat qilishi kerak.

### Lug'at

eslamoq – вспоминать  
paydo bo'lmoq – появиться  
mukammal – совершенный  
bosqich – ступень  
muloyim – вежливый  
qo'shimcha – дополнительный

**Topshiriq.**

1. Matnni o'qing. Rus tiliga tarjima qiling.

2. Matn bo'yicha quyidagi konstruksiyalar asosida gaplar tuzing.


«Nima nima ma'noni bildiradi?»

Anamnez so'zi

«Nimada nima qilish kerak?»

Anamnezda tekshirayotgan bemor

«Nimalarga nima kiradi?»



**ANAMNEZ YIG'ISH  
(Hajviya)**

Amaliyotni poliklinikada o'tishdan oldin ustozimiz: - Anamnez yig'ishni bilasizlarmi? - deb so'radilar. Biz boshimizni qimirlatdik. Ular «boshlanglar bo'lmasa», - deb chiqib ketdilar. Eshikdan bir nuroniy chol kirdi.

-Assalomu alaykum! O'tiring, otaxon, - dedim men.

-Vaalaykum assalom, bolam, - dedi chol.

-Otaxon, - dedim men, - onangiz sizga homilador bo'lganlarida toksikoz bo'lganmilar?

-Chol juda hayron qoldi.

-Bilmadim, bolam...

-Siz tug'ilgandan so'ng darrov yig'laganmisiz?

-Unisini ham bilmas ekanman.

-Kindigingiz nechanchi kunda tushgan?

-Shu bilan qiziqmagan ekanman.

Shu payt eshikdan ustoz kirib qoldilar va kulib yubordilar.

-Bulardan hayot anamnezini olish shart emas, dedilar va o'zlari savol bera boshladilar.

**Bemorning mehnat davri anamnez savollari**

1. Qanday yuqumli kasalliklar bilan og'rigan?

Какими инфекционными болезнями болел?

2. Qaysi kasbda ishlagan?

Кем работал?

3. Oilaviy ahvoli qanday?

Какова семейная жизнь?

4. Jinsiy hayoti necha yoshdan boshlangan?

Когда началась половая жизнь?

5. Hozirgi vaqtdagi ijtimoiy-maishiy ahvoli

Социально-бытовые условия в настоящее время.

6. Oilada nasliy kasalliklar bo'lganmi?

Были ли в роду наследственные болезни?


**13-DARS**

Hozirgi zamon fe'li quyidagi shakllarga ega:	Настоящее время глагола имеет следующие формы:
1. Aniq hozirgi zamon fe'li	1. Настоящее время данного момента
2. Hozirgi-kelasi zamon fe'li;	2. Настоящее-будущее время глагола;


**Aniq hozirgi zamon fe'lining bo'lishli shakli**






**Aniq hozirgi zamon fe'lining bo'lishsiz shakli**



**Hozirgi-kelasi zamon fe'lining bo'lishli shakli**



**Hozirgi-kelasi zamon fe'lining bo'lishsiz shakli**



**Mashq. Hozirgi zamon fe'llarini topib, ma'no jihatidan turini ayting.**

1. Xizmatlaringiz uchun sizga rahmat aytishmoqda. 2. Men o'ylaymanki, siz bu topshiriqni ham sharaf bilan bajarasiz. 3. Mehnat bizni uch tanglikdan: g'amginlik, illat va muhtojlikdan xalos qilmoqda. (Volter). 4. Oltin o'tda, odam mehnatda bilinadi. 5. Mening xalqim do'stlik, birodarlikning qadrini biladi. 6. Onam 17-shahar kasalxonasida terapevt bo'lib ishlayapti. 7. Men yuridik kollejida o'qiyapman. 8. U uyga kelishi bilanoq rasm chizishni boshlaydi. 9. Hammamiz ahil bo'lib ishlaymiz. 10. Har bir ovqat hazm qilish a'zosi o'z tuzilishiga ega va ma'lum bir vazifani bajaradi.

**Topshiriq. Matnni o'qing. Hozirgi zamon fe'llarini toping.**

### MENING BIRINCHI BEMORIM

Mana, men pediatr sifatida ilk bor bemor qabul qilyapman. Kiyimimni almashtirgani kirib ketyapman. Yuragim duk-duk urganini sezyapman. Mana, eshik ochilyapti. Bolachasini ko'targan yoshgina onaxon bo'sag'ada turibdi.

-Kiring! - deyman men.

U ham qimtinib kiradi.

-Assalomu alaykum!

-Vaalaykum assalom.

O'zimni jiddiy qiyofaga solib so'rayman.

-Nimadan shikoyat qilyapsiz?

-Bolamning isitmasi chiqyapti.

Men bolaning tomog'ini ko'raman. O'pkasini eshitaman.

-Xayriyat, o'pkasi toza. Tomog'i qizaribdi!-deyman men. Dori yozib berganimda esa qo'llarimning titrashini bildirmayman.

-Rahmat!- deydi u bolasini yo'rgaklashga qiynalib. U ilk bor bemor bolasini olib chiqqan, men esa ilk bemorimni ko'rardim.


Kelasi zamon fe'li quyidagi shakllarga ega:

1. Kelasi zamon gumon fe'li.
2. Kelasi zamon maqsad fe'li.


Будущее время глагола имеет следующие формы:

1. Будущее предположительное время глагола.
2. Будущее время цели.

### Kelasi zamon maqsad fe'lining bo'lishli shakli




### Kelasi zamon maqsad fe'lining bo'lishli shakli



### Kelasi zamon gumon fe'lining bo'lishli shakli



### Kelasi zamon gumon fe'lining bo'lishsiz shakli



**Mashq. Quyidagi matnni tarjima qiling. Fe'llar qaysi za monga mos kelishini aniqlang.**

### ПРОСТАЯ ИСТИНА

В медицинский институт я поступил после тяжелой травмы, в результате которой пришлось ампутировать ступню. Любимой на моем месте совсем бы раскис. Но я не поддался беде и понял простую истину: в жизни всегда надо быть сильным и уметь добиваться намеченной цели. Я стал заниматься спортом и до сих пор по утрам выжимаю двухпудовые гири, имею первый разряд по плаванию, хожу на лыжах и хорошо вожу машину.

А ещё я люблю ходить в театр оперы и балета, посещаю интересные выставки, часто бываю в магазине «Книги». Очень люблю читать произведения классиков и фантастику.

Я считаю, что врач должен быть не только хорошим специалистом, но и высокообразованным, интеллигентным человеком.

**Mashq. Kelasi zamon fe'llarining qaysi turiga mansubligini aniqlang.**

1. Bu topshiriqni men bajaradiganman. 2. Suv ketar – tosh qolar, o'sma ketar qosh qolar. 3. Ertaga majlis o'tkazmoqchimiz. 4. Men katta maqola yozadiganman. 5. Nargiza onasiga har doim yordamlashardi. 6. Bu kitobni keyinroq o'qirman va senga aytib beraman. 7. O'tkir kolit yoz faslida sifatsiz sabzavot-mevalar, eski go'sht, baliq mahsulotlarini iste'mol qilish tufayli paydo bo'ladi. 8. Ingichka ichakning yallig'lanishiga kolit deyiladi. 9. Nargizaning



to'yi shu oying oxiriga bo'ladigan. 10. Mastura ingliz tilini mukammal o'rganmoqchi.

**Topshiriq. Matni o'qing. Siz bu savolga qanday javob berardingiz?**

**«MEN O'N YILDAN KEYIN QANDAY BO'LAMAN?»**

-Men Oliya Ibrohimovaman. Hozir Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining oliy ma'lumotli hamshira fakultetida o'qiyapman. O'n yildan keyin bakalavr diplomini olib, jarrohlik bo'limida ishlayotgan bo'laman. Balki ish faoliyatim O'zbekistonda, balki o'sha payt Koreyada ishlayotgan bo'larman.

-Men, Sultonova Dilbar o'n yildan so'ng tibbiy kollejdagi hamshiralarga dars beraman.

-Men o'n yildan so'ng kardiolog shifokor bo'laman. O'zim tug'ilib o'sgan Samarqand viloyatining Poyariq tumanida kasalxonada ishlayotgan bo'laman.

-Men magistraturani tugatib, magistrlik diplomini olaman. Keyin «Hamshiralik ishini tashkillashtirish» mavzusida dissertatsiya yoqlayman.

**MIOKARDIT**

Miokardit-yurak muskullarining infeksiyon-allergik va intseksion-toksik yallig'lanishidir.

Miokardit ko'pincha difteriya, qorin tifi, brutsellyoz, tuberkulyoz, zaxm, toshmal tifi kasalliklarida uchraydi. Oxirgi yillarda miokardit viruslar keltirib chiqaruvchi gripp, qizilcha, suvchekchak, poliomielit kabi kasalliklarda ko'p uchramoqda. Nospetsifik infeksiyon-allergik miokardit streptokokk va stafilokokka aloqador kasalliklarda (angina, faringit, surunkali tonzillit, gaymorit va boshqalar) uchraydi. Infeksiya miokardni to'g'ridan-to'g'ri zararlantiradi.

Kasallar tez charchab qolish, hansirash, yurak sohasi og'rib turishi, yurak o'ynashidan shikoyat qiladilar. Kasal ko'zdan kechirilganda qon aylanishi yetishmovchiligi belgilarini ko'rish mumkin: badan terisi oqaradi, ko'kimtir tusga kiradi. bo'yin venalari bo'rtib turadi, puls bosimi past, puls tezlashadi, arterial bosim, ayniqsa, sistolik bosim pasayadi. Yurak chegaralarining o'zgarishi kam bo'ladi. Yurak tonlari susaygan bo'ladi, biroq uchida sistolik shovqin eshitiladi. Birinchi galda R tishcha voltaji pasayadi, ba'zi o'choqli o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Salitsilatlar va pirazon preparatlari miokarditning allergik komponentiga ta'sir qiluvchi yurak-tomirlar yetishmovchiligini davolash uchun buyuriladi.

Miokardit odatda eson-omon o'tadi. Idiopatik miokarditda prognoz juda jiddiy bo'ladi. Miokardit kasalligi davomida kasallar ishga layoqatsiz hisoblanadilar. Miokardit kardiosklerozi rivojlanib, qon aylanish

yetishmovchiligi yoki yurak ritmining buzilishlari bilan kechsa, bemorlar ishga layoqatsiz bo'lib qoladilar.

**Lug'at**

yallig'lanish – воспаление  
zaxm – сифилис  
toshmal tifi – сыпной тиф  
qizilcha – краснуха

suvchekchak – ветрянка  
susaymoq – ослабевать  
shovqin – шум

**Savol va topshiriqlar.**

**1. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.**

«Nima bu nima?»

Miokardit

«Nima ko'pincha nimada uchraydi?»

Miokardit ko'pincha

Nospetsifik infeksiyon kasalliklarga aloqador miokardit

«Nimada nima belgilar bo'ladi?»

Miokardit kasalligida

- 2. Oxirgi yillarda miokardit qaysi kasalliklarda uchraydi?**
- 3. Nospetsifik infeksiyon miokarditda infeksiya qanday ta'sir etadi?**
- 4. Kasallik odatda qanday o'tadi?**
- 5. Uni davolashda qanday preparatlar qo'llanadi?**

**SUHBAT**

**Gulshoda:**

**Ira:**

-Ira, biz «Ichki kasalliklar»ni o'tyapmiz.

-Qaysi turdagi kasalliklarni o'tyapsizlar?

-Yurak kasalliklarini. Yurak haqida juda ko'p narsalarni bilib oldik.

-Haqiqatan ham yurak har bir urishida taxminan 70 gr qonni haydar ekan.

-Ha, bir kecha-kunduzda bu raqam 1000 litrni tashkil etadi. O'rtacha umr davomida esa 250 mln litr atrofidagi qonni haydaydi.

-Biz bu kasalliklardan revmatizm, endokarditlar, miokardit, perikardit, yurak ishemik kasalliklari, stenokardiya va boshqalarni o'tdik.

-Bular orasida eng ko'p tarqalgani yurak ishemik kasalliklari hisoblanadi.

-Yurakning ishemik kasalliklari kun tartibini to'g'ri tashkillashtirmaslik, ichkilikbozlik, toliqish, noto'g'ri ovqatlanish, kam harakatlilik, asab buzilishi tufayli kelib chiqadi.

-To'g'ri. Rahmat, Ira, qiziqarli suhbating uchun.

-Ha, yurak tanamizdagi kuchli nasos.

-Unda bir kecha-kunduzda bu raqam juda katta bo'lsa kerak.

-Ha, haqiqatan juda katta raqam. Ammo so'nggi paytda yurak-qon tomir kasalliklari juda ko'paygan.

-Bular orasida eng ko'p tarqalgani qaysi kasallik hisoblanadi?

-Ular nima sabadan kelib chiqadi?

-Demak, bu kasallikning oldini olish uchun zararli odatlardan xoli bo'lish va sog'lom turmush tarziga rioya qilish asosiy ahamiyat kasb etar ekan.

## 14- DARS

Fe'l mayllari (Наклонения глагола)	
Fe'l mayli harakat yoki holatning borliqqa munosabatini bildiradi. 3 xil fe'l mayli bor:	Наклонение глагола выражает отношение действия или состояния к действительности. Есть три наклонения:
1. Aniqlik mayli. Aniqlik mayli fe'l zamonlaridan biriga (o'tgan, hozirgi, kelasi) munosabatni bildiradi.	1. Изъявительное наклонение. Изъявительное наклонение указывает на отношение глагола к одному из глагольных времен (прошедшее, настоящее, будущее).
2. Buyruq-istak mayli. Buyruq-istak mayli 2-shaxsga buyruq, 1-shaxsga xohish, 3-shaxsga nisbatan taklif ma'nolarini bildiradi.	2. Повелительно-желательное наклонение выражает обращение с приказом ко II лицу, желание говорящего, обращение к 3-му лицу.
<i>Men ol+ay Biz ol+aylik</i>	
<i>Sen ol Siz ol+ing</i>	
<i>U ol+sin Ular olsinlar</i>	

3. Shart mayli. Shart mayli ish harakatning bajarilishi uchun shart borligini bildiradi. <i>Men bor+sam Biz bor+sak</i> <i>Sen bor+sang Siz bor+sangiz</i> <i>U bor+sa Ular bor+salar</i>	3. Условное наклонение указывает на зависимость совершения действия от определенных условий.
--	--

**Chizmoq, sakramoq** fe'llarini aniqlik maylida 3 shaxs va zamonda tuslang.

**Mashq. Buyruq-istak maylidagi gaplarni aniqlang.**

1.Ular hech vaqt ma'ruzaga kechikmas edilar. 2.Nodira bugun kutubxonaga kelsin. 3.Sen qayerda o'qiysan? 4.A'lo bahoga o'qingiz, el ardoqlagan shifokorlar bo'lingiz.

**Mashq. Hozirgi-kelasi zamon shart maylidagi fe'llarni aniqlang va alohida ko'chiring.**

1.Bir kunertalab tursam, hech kim yo'q. 2.Hozir o'z kasbingni egallasang, ishda qiynalmaysan. 3.Biz intizomli bo'lsak, o'qituvchimiz xursand bo'ladi. 4.Bu talabani boshqalarga o'rnak qilib ko'rsatsa bo'ladi. 5.Agar ega bo'lsam yuz ko'zga, bari bilan qarardim sizga.

**Mashq. Quyidagi fe'llardan shart maylidagi fe'l yasang.**

Qurmoq, yasamoq, ushlamoq, sevmiq, tuzatmoq, salomlashmoq.

**Mashq. Maqollarni yod oling.**

1.Hurmat qilsang, izzat ko'rasan. 2.Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l. 3.Nima eksang, shuni o'rasan. 4.Suymaganga suykalma. 5.Bug'doy noning bo'lmasin, bug'doy so'zing bo'lsin.

## QON KETGANDA BIRINCHI YORDAM

Agar qon kapillyarlardan ketib, kesilgan yo tiralgan joy chuqur bo'lmasa, o'sha yerga brilliant zelenkasi yo yod eritmasi surtiladi. So'ng bint bilan bog'lab qo'yiladi.

Agar qon vena yoki arteriyadan ketayotgan bo'lsa, qon ketayotgan nuqta siqiladi. Agar qo'l yoki oyoqdan qon ketsa, zararlangan qo'l-oyoqqa bog'ich bog'lanadi. Bog'ich sifatida qayish, arqon va o'ralgan sochiqni ham ishlatish mumkin. Chilvir puls yo'qolguncha tortiladi, chunki yetarlicha tortilmasa qon ketishi ko'payadi. Qattiq tortilsa paralich boshlanadi.

Jgut tagiga doka, paxta, sochiq qo'yiladi. Uni kiyim ustidan ham, qo'yish mumkin. Shuni esda tutish kerakki, bog'ichni 2 soatdan ortiq qoldirib bo'lmaydi. Shunda ham har yarim soatda bo'shatib turiladi.

Qulayroq bog'lash uchun arqon yo qayish tugun qilib bog'lanadi. o'rtasiga tayoq tiqiladi, tayoq aylantirilgan sayin bog'ich kuchliroq siqiladi.

Agar kesilgan joy uncha chuqur bo'lmas, qon ketishi ko'p bo'lmasa, qo'l yoki oyoqni yuqoriga ko'tarib, bosib turuvchi bog'lam qo'yish bilan qon to'xtatiladi.

Burundan qon ketganda esa bemorni o'tqazib, kiyim qon bo'lmasligi uchun burni tagiga paxta yoki ro'mol qo'yish zarur. So'ng burun tepasiga sovuq kompress qo'yiladi.

Shikastlanish tufayli tish sinib tushganida og'iz bo'shlig'ini aslo sovuq suvga chayish yaramaydi, chunki bu holatda qon ketishi kuchayadi. Bint yo paxtani dumaloq valik shakliga keltirib tish o'miga qo'yiladi va tishlar siqiladi.

### Lug'at

bog'ich – жгут  
qon ketish – кровотечение  
sovuq – холодный


ro'mol – платок  
yordam – помощь  
to'xtatmoq – останавливать

### Savol va topshiriqlar:

#### 1. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.

«Nimaning qanday turlari bor?»

Qon ketishining



«Nimada nima qilish yaramaydi?»

Chilvir tortilganda

Tish sinib tushganida

2. Kapilyarlardan qon ketganda qanday yordam ko'rsatiladi?
3. Vena yoki arteriyadan qon ketganda birinchi yordam qay tarzda ko'rsatilishi lozim?
4. Burundan ketgan qonni to'xtatish uchun nima qilish kerak?
5. Shikast tufayli tishi sinib tushganida ketayotgan qon qanday to'xtatiladi?

### Topshiriq. Quyidagi matnni rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qiling.

В летнюю пору нередки укушения пчелами, осами, шмелями, шершнями. В этом случае необходимо чистыми руками осторожно удалить жало, пораженное место смочить нашатырным спиртом и наложить холод. Когда одна тряпочка, смоченная водой, нагреется, накладывают другую. Ужаление в лицо может быть даже опасным для жизни. Отнесись к этому с большой остороженностью и постарайся быстрее доставить пострадавшего.

### ILK YORLIQ

Dam olish kuni. Havo ochiq. Kunlar issiq, har zamon mayin shamol yuzni silab o'tadi. Aylangani ko'chaga chiqdim. Avtobusga chiqdim. Avtobusda anchadan buyon ko'rmagan qalin do'stimni uchratib qoldim. U bilan quyuq so'rashib qoldik. Avtobusdagilar bizning gapimizni eshitib turishardi. Do'stim mendan o'qish joyimni so'radi. Men unga g'ururlanib, ToshPTI da o'qiyotganimni aytdim. Shunda u menga «O'-o'-o', bo'lajak shifokor», - dedi. Ha, «Xalqqa xizmat-oliy himmat», - dedim. Suhbatimiz davom etdi. Chamasi yarim soatlar o'tgach, yonimizda ketayotgan bir ayol hushidan ketib qoldi. Albatta, bu besabab emas, chunki avtobus issiq, havo yetishmaydi. Shunda yo'lovchilar haydovchini ogohlantirib, avtobusni to'xtatishdi. Yo'lovchilar hayajonlanib nima qilishni bilmay qolishdi. Men ham biroz hayajonlandim, baribir o'zimni qo'lga olib, yo'lovchilardan ayolni tushirishni iltimos qildim. Ayolni pastga tushirdik. Lekin ayolning ahvoli og'ir edi. Rangi oqargan, nafas olishi to'xtagan ekan. Odamlar yuziga suv sepishdi, shapatilashdi, bu ish bermadi. Shunda birdan hamma menga qaradi. Ularning bu qarashlarida olam-olam ma'no bor edi. Xuddi menga «Qani, endi o'zingni ko'rsat!» degandek tuyulardi. Men unga birinchi tibbiy yordam ko'rsatdim. Sun'iy nafas berdim, yuragini massaj qildim. Ollohga shukurki, qilgan ishlarim zoye ketmadi. U o'ziga kelib nafas ola boshladi. Odamlarning yuzidagi quvonchni ko'rsangiz edi, xuddi yelkandan tog' ag'darilgandek bo'ldi. Shundan so'ng, men ham erkin nafas oldim. Keyin taksi to'xtatib, ayolni kasalxonaga olib bordim. Ayol o'ziga kelgach, menga rosa minnatdorchilik bildirdi. Lekin men allaqachon ilk yorliqni olib bo'lgan edim.

Topshiriq. Quyidagi matnni o'qib chiqing. Uni muhokama qiling va savollarga javob bering.

1. Siz qahramon o'rnida o'zingizni qanday tutardingiz?
2. Shunday voqealar guvohi bo'lganmisiz?
3. Agar bemor odamni ko'rsangiz unga birinchi yordam ko'rsatasizmi?

Fe'l nisbatlari (Залоги глаголов)	
<p>Fe'l nisbati ish-harakat bajaruvchisi (sub'yekt) va predmet (ob'yekt) o'rtasidagi munosabatni bildiradi. O'zbek tilida 5 ta fe'l nisbati bor:</p> <p>1. Aniqlik nisbati. Bu nisbat hech qanday qo'shimchaga ega emas.</p> <p>2. O'zlik nisbati. O'zlik nisbati ish-harakatning bajaruvchiga qaytishini bildiradi. <u>-i, -in;</u> Masalan: <u>kiyinmoq, taranmoq.</u></p> <p>3. Majhullik nisbati <u>-i, -in, -l, -il</u> qo'shimchalari bilan yasaladi. Masalan: <u>kitob o'qildi, uy qurildi.</u></p> <p>4. Birgalik nisbati ish harakat bir necha shaxs tomonidan bajarilishini bildiradi. <u>-sh, -ish</u> qo'shimchalari bilan yasaladi.</p> <p>5. Orttirma nisbat <u>-t, -tir, -dir, -r, -ar, -giz, -g'iz, -qiz</u> qo'shimchalari bilan yasaladi.</p>	<p>Залоги глаголов выражают различные отношения между производителем действия (субъектом) и предметом (объектом).</p> <p>В узбекском языке глагол имеет 5 залогов:</p> <p>1. Действительный залог не имеет никаких аффиксов.</p> <p>2. Возвратный залог обозначает действие, которое возвращается к самому субъекту.</p> <p>3. Страдательный залог образуется аффиксами <u>-и, -ин, -л, -ил.</u></p> <p>4. Взаимно-совместный залог показывает, что действие совершается несколькими лицами.</p> <p>5. Понудительный залог образуется аффиксами <u>-т, -тир, -ар, -гиз, -г'из, -қиз, -қиз, -қиз</u></p>

**Mashq. Gaplarni ko'chiring va majhullik nisbatiga oid so'zlarning tagiga chizing. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.**

1.Uy oqlab bo'lindi. 2.Musobaqa g'oliblari mukofotlandi. 3.Bu haqda ko'p gapirildi. 4.Qurilishga kerakli narsalar olindi. 5.Yer yaxshi ishlandi. 6.Bino ta'mirdan chiqarildi.

**Mashq. Qavs ichidagi fe'llarni o'tilgan fe'l nisbatlaridan biriga aylantiring.**

Qaror (o'qilmoq), bemorga tibbiy yordam (ko'rsatmoq), Ikrom dekan huzuriga (kirmoq), institutda mehnat intizomi (yaxshilamoq), u chiroyli (kiyinmoq) va suratga (tushmoq),yuqori sifat ko'rsatkichiga (erishmoq).

**Mashq. Quyidagi fe'llardan o'zlik nisbati yasang va gaplar tuzing.**

Taramoq, ilmoq, saylamoq, o'ylamoq, artmoq.

1.Talabalar allamahalgacha bahs-munozara qilishdi. 2.Musobaqa qatnashchilari kecha Buxorodan qaytishdi. 3.Bugun ular uchrashuvga borishadi. 4.Baxt uchun kurashish kerak. 5.Opa-singillar onasiga sovg'a olishdi. 6.Musobaqadoshlar o'zaro tajriba almashishdi.

**Mashq. Gaplardagi orttirma nisbatni aniqlang va tagiga chizing.**

1.Unumli mehnat keltirar davlat. 2. Ilmli bo'l, hunar orttir. 3.Ilmun hunar bu qanotdir. 4.U dugonasini ham teatrga borishga ko'ndirdi. 5.Alisher ukasini o'rnidan turg'azdi. 6.U bu xushxabarni opasiga yetkazdi.

### SHARQ TABOBATI

Meditsina fanining rivojlanishida qadimiy Osiyo mamlakatlarining hissasi ham bor. Hindiston, Tibet, Xitoy va Arab davlatlarida o'simliklar bilan davolash keng tus olgan. «Yajur -veda» («Hayot haqidagi fan») dorivor o'simliklar haqida yozilgan qadimiy hind kitobidir.

Tibet tibbiyoti hind tibbiyoti yordamida rivojlandi. Mashhur «Djudshi» («Shifobaxsh dori-darmonlar mohiyati») kitobi Tibet tibbiyotining asosini tashkil etadi.

Xitoy xalq tabobati juda uzoq tarixga ega. Xitoy tibbiyotining asoschisi bundan 3 ming yil oldin xoqonlik qilgan Shen Nung hisoblanadi. Uning dastxatiga mansub kitoblar bizgacha yetib kelmagan. Ammo bu kitoblarning ko'chirma nusxalari va to'ldirilgan shakllari ming yillar osha meros bo'lib kelmoqda. Shen-Nung kitobida o'simliklarning sinonim nomlari, botanik ta'rifi, o'simliklardan mahsulotlar tayyorlash davrlari va usullari, o'simliklarning geografik joylashishi, mazkur dori-darmonning ta'sir doirasi, qo'llanishi, dori-darmon ishtirok etadigan retseptlar ro'yxati hamda shu dori-darmonlar bilan davolash mumkin bo'lgan kasalliklarning umumiy ro'yxati keltirilgan.

Sharqning mashhur olimlari Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy, Abu Bakr Muhammad bin Zakariya ar-Roziy, Abu Rayhon Muhammad al-Beruniy, Abu Mansur Buxoriylar ham tibbiyot fani rivojiga katta hissa qo'shdilar.

O'rta Osiyoning zabardast olimlaridan biri bo'lgan Abu Ali ibn Sinoning jahonshumul faoliyati to'g'risida to'xtalib o'tmasdan bo'lmaydi. Abu Ali ibn Sino 450 dan ortiq qimmatli asarlar yaratgan. Biroq zamonlar o'tishi bilan ularning ko'pi yo'qolib ketgan. Ibn Sinoning bizgacha yetib kelgan 240 asaridan 40 tasi meditsinaga oiddir. Abu Ali ibn Sino «Al-qonun» asarida 900 ga yaqin o'simlikning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatilish yo'llari to'g'risida ma'lumot keltiradi. Uning shogirdlaridan Sharafuddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Yusuf Iloqiy, Abu Sodiq Mutatabbib va Jurjoniylar ham meditsinaning rivojlanishiga hissa qo'shganlar.

### Lug'at

hissa – доля  
dastxat – письмо, подпись  
mahsulot – продукция  
qimmatli – дорогой

zabardast – выдающий  
ro'uxat – список  
yo'qolmoq – затеряться  
shifobaxsh – целебный

ta'sir – действие

ko'chirma nusxa – переписанный вариант

**Savol va topshiriqlar.**

1. Tibbiyot fanining rivojlanishida qaysi Sharq xalqlari tibbiyoti muhim rol o'ynagan?
2. Tibet tibbiyotining asosini qaysi kitob tashkil etadi?
3. Ibn Sinoning shogirdlarini sanab bering.
4. Matn mazmunini qisqacha so'zlab bering.

**SUHBAT**

**Gulshoda:**

**Ira:**

-Senga Sharq tabobati, Ibn Sino va undan 100 yil keyin o'tgan Ar-Roziy merosi haqida so'zlab bermoqchiman.  
 -U kimyoga bag'ishlangan 26 ta asar yozgan. Shuningdek, u «Podshohlar tabobati», «Tabibga yetisha olmaydiganlar kitobi», «Chechak va qizamiq haqida kitob», va boshqalar muallifidir.  
 -U ko'zini davolatish uchun tabibga boradi. Shu-shu tabiblikka qiziqadi.  
 -Ar-Roziy tib va falsafa bilan shug'ullanish uchun Bag'dodga boradi. U Buxoroda ham bo'lgan.  
 -Uning juda ko'p shogirdlari bo'lgan. U o'z shogirdlari orasida buxorolik Muhammad ibn Yunusni alohida hurmat bilan tilga oladi.  
 -Ha, uning shogirdi tomonidan yozib qoldirilgan kasalliklar tarixidan shu ma'lum bo'ladiki, u kambag'allarga qo'ldan kelgancha yordam berishga harakat qilgan va bepul davolagan. U aholining barcha tabaqalarini bir xil ko'rgan.

-Buyuk tabib qanday asarlar yozgan?  
 -U qanday qilib tabib bo'lgan?  
 -Ar-Roziy qaysi shaharlarda bo'ladi?  
 -Uning shogirdlari ham bo'lganmi?  
 -Uning insoniy xislatlari haqida ham biror narsa bilasanmi?  
 -Uni qaysi asarlari mashhur qilgan?

-U Sharqda kasalliklar tarixini joriy qilgan. Kimyoga bag'ishlangan ko'p asarlar yozgan. Chechak va qizamiq haqidagi kitobi mashhur kitobdir. Bu kasalliklar tavsifini boshdan oyoq o'z tajribasiga asoslanib yozgan. Bu kasallar boshlanishi, alomatlari va tugallanishi shu qadar aniq bayon etilganki, u hozirgacha o'z qimmatini yo'qotgani yo'q.

-Qiziqarli suhbating uchun rahmat.

**Topshiriq. Matndagi fe'llarni kerakli nisbat va maylda bering.**

1. Qovun terini (tozalashda), urug'i va ichidagi boshqa narsalar sepkil, dog' va boshning kepaklanishida (foйда qilmoq).
2. Qovoq shirasi, ayniqsa, qizil gul yog'i bilan qo'shib (ishlatilmoq) quloq og'rig'ini (bosmoq).
3. Karamning bargi xomligicha sirka bilan cyilsa, taloq kasaliga uchraganlarga foyda (qilmoq).
4. Suvda qaynatilgan guruch bir oz ichni (qotirmoq).

**16 –DARS**

<b>Sifatdosh (Причастие)</b>	
<p>Sifatdosh – fe'l shakli bo'lib, u fe'llik va sifatlik xususiyatiga ega.            Sifatdoshning 4 ta shakli bor:            1. O'tgan zamon sifatdoshi;            2. Hozirgi zamon sifatdoshi;            3. Hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi;            4. Kelasi zamon sifatdoshi.  <b>O'tgan zamon sifatdoshi</b> fe'lning bo'lishli yoki bo'lishsiz shakliga <u>-gan, -kan, -qan</u> qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: <u>ishla+gan, chiq+qan</u>;  <b>Hozirgi zamon sifatdoshi</b> ravishdoshning <u>-a, -y</u> shakliga <u>-yotgan</u> qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: <u>bora+yotgan, o'qi+yotgan</u>;</p>	<p>Причастие – это глагольно-именная форма, которая имеет признаки глагола и прилагательного. Причастие имеет 4 формы:            1. Причастие прошедшего времени;            2. Причастие настоящего времени;            3. Причастие настоящего-будущего времени;            4. Причастие будущего времени.  <b>Причастие прошедшего времени</b> образуется присоединением к положительной или отрицательной форме глагола аффикса <u>-gan, -kan, -qan</u>;</p>

Hozirgi kelasi zamon sifatdoshi ravishdoshning <u>-a, -y</u> shakliga <u>-digan</u> qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: <u>ishlaydi+gan, bora+digan</u> ;	Причастие настоящего времени образуется присоединением к форме деепричастия на <u>-а, -й</u> аффикса - <u>ётган</u> .
Kelasi zamon fe'liga <u>-r, -ar</u> qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: <u>oqar, borar, aytar</u> ;	Причастие настоящего-будущего времени образуется присоединением к форме деепричастия на <u>-а, -й</u> аффикса - <u>диган</u> .
	Причастие будущего времени образуется путём присоединения к основе глагола аффиксов <u>-р, ар</u>

**Mashq.** Quyidagi so'z va birikmalardan sifatdosh yasang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Qaramoq, bilib olmoq, taqmoq, kelishmoq, olib kelmoq, bukmoq, yozib bormoq, og'moq.

**Mashq.** Maqollardagi sifatdoshlarni aniqlang va birikma holda ko'chiring. Birikmalarni rus tiliga tarjima qiling.

1.Ekinni erta ekan, hosilni erta o'rar. 2.To'g'ri gap tuqqaningga yoqmaydi. 3.Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt. 4.Birlashgan kuch yengilmas. 5.Qo'rqqangga qo'sha ko'rinar.

**Mashq.**Gaplardagi hozirgi zamon sifatdoshlarini o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan ko'chirib, rus tiliga tarjima qiling.

1.Qurilayotgan bino atrofiga gullar o'tqazdik. 2.Biz yashayotgan dunyo o'zining sir-sinoatlariga ega. 3.Ikkinchi talabalar uyida yashayotgan talabalar musobaqada g'olib bo'lishdi. 4.A'lo o'quvchi qizning axloqi ham soz bo'ladi. 5.So'zlayotgan odamning gapini bo'lish odobdan emas.

**Mashq.** Quyidagi gaplarni rus tiliga tarjima qiling, sifatdoshlarni aniqlang.

1. Nafas olish a'zolariga havf solgan sharoitlar mavjud bo'lsa, hamshiralar vaziyatga aralashishi zarur. 2. Jarohatlar mexanizmini biladigan hamshira mumkin bo'lgan shikastlanishlarni tez anglab oladi. 3. Bemorni ko'rgan va ma'lumot yiqqan hamshira zarur bo'lgan mutaxassislarni chaqirishni taklif qiladi. 4. Kulib turgan hamshira yuzidan bemor tuzalayotganini tushunish mumkin edi.

**Mashq.** Chap tarafda turgan fe'llardan sifatdosh yasab, gap tuzing.

Ishlamoq	odam bir kun o'z mehnatining natijasini ko'radi.
Aytmoq	so'zni gapirishga shoshilma, hozir u sening quling, gapirsang sen uning quliga aylanasan.

Bormoq	joy uzoq bo'lgani uchun bu ishni ertaga qoldirdik.
Bo'lmoq	bolani yoshlikdan bilish mumkin.
Saqlamoq	dorilarni olgan hamshira ularning saqlanish muddatini biladi.

**Mashq.** Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Медицинская сестра проверила готовность больного к операции. 2. Медицинская сестра после операции больного должна систематически наблюдать за больным. 3. Если больной в сознании медицинская сестра спрашивает больного о существующих болях, о неудобствах, об изменениях в функциях органов.

## HAMSHIRALARNING VAZIFALARI

Tibbiyot hamshirasi bemorni mustaqil davolamay, faqat shifokor ko'rsatmalarini bajarsa-da, uning kuzatuvlari katta ahamiyatga ega, chunki u bemorning yonida bo'lib, uning holatida ro'y beradigan hamma o'zgarishlarni payqab, unga o'z vaqtida yordam berishi va uning iztiroblarini yengillashtirishi mumkin.

O'z ishini sevishi va bemorga g'amxo'r bo'lishidan tashqari tibbiyot hamshirasi yetarlicha tibbiy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Asosiy vazifasi bemorlarni parvarish qilishdan iborat bo'lgan tibbiyot hamshirasi bemorlarga qarash qoidalarini va davo muolajalarini to'g'ri bajarishnigina emas, balki bemor organizmiga dori yoki muolajaning qanday ta'sir qilishini ham bilishi kerak.

Bemorlarni parvarish qilish bo'yicha hamshiralarning tadbirlar kompleksi quyidagilardan iborat:

1. Shifokor ko'rsatmalarini bajarish, dori-darmonlar tarqatish, inyeksiyalar o'tkazish, bankalar, xantal qog'ozlari qo'yish, zuluklar solish va boshqalar;
2. Shaxsiy gigiyena tadbirlarini o'tkazish: bemorlarni yuvintirish, yotoq yaralarni profilaktika qilish, ich kiyimlarni almashtirish va boshqalar;
3. Palatada sanitariya-gigienik sharoitni vujudga keltirish va uni saqlab turish;
4. Tibbiyot hujjatlarini to'ldirib borish;
5. Bemorlar orasida sanitariya maorifi ishlarini olib borishda qatnashish;
6. Bemorlarga qulay o'rin solib berish va uni ozoda saqlash;
7. Yuvinish, ovqat yeyish va fiziologik ehtiyojlar vaqtida og'ir yotgan bemorlarga yordam ko'rsatish.

Tibbiyot hamshirasi bemorni muolaja qilish, uni davolash va parvarish qilibgina qolmasdan, balki u ma'naviy yetuk, axloqiy pok, mustaqil fikrlovchi, e'tiqodi mustahkam, o'z tarixi, madaniyatini biladigan komil inson bo'lishi kerak.

## Lug'at

mustaqil – самостоятельно  
xantal qog'ozlari – горчичник  
zuluk – пиявки  
yotoq yaralar – пролежни

parvarish – уход  
sharoit – условие  
tarqatish – раздавать  
almashtirish – менять

### Savol va topshiriqlar.

#### 1. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.

«Nima uchun nima ahamiyatli?»

Hamshiraning bemorni  
doim kuzatib turishi

«Kim nimaga ega bo'lishi kerak?»

Tibbiyot hamshirasi

«Nima nimadan iborat?»

Hamshiraning asosiy vazifasi

1. Nima uchun tibbiyot hamshiralarning kuzatuvini katta ahamiyatga ega?
2. Bemorni parvarish qilish bo'yicha hamshiralarning vazifalarini sanab chiqing.
3. Tadbirlar komplekslari nimadan iboratligini sanab chiqing.

### SHIFOKOR BILAN HAMSHIRA MULOQOTI

Hamshira:

-Assalomu alaykum. Men bugun navbatchi hamshiraman.  
-Здравствуйте, я дежурная медсестра.  
-Кеча 2 ta bemor qabul qilindi. Ular 4- va 15-palatada

Shifokor:

-Juda yaxshi.  
-Очень хорошо.  
-Кеча nechta bemor qabul qilindi? Kiruvni ayollar bo'limidan boshlaymiz.

-Вчера поступило два больных. Они в 4 и 15 палате.

-3- palatada yotgan Yorieva Shahnoza og'riqdan shikoyat qildi.

-Ёриева Шахноза с 3 палаты жаловалась на боли.

- Marhamat.

- Пожалуйста.

- Хо'p bo'ladi

Хоп.

-Хо'p.

- Хоп.

- Marhamat, oling

-Возьмите, пожалуйста.

-Сколько больных поступило вчера? Обход начнём с женского отделения.

-Bemorlardan kim kechasi yomon uxlati?

Кто из больных жаловался на боли?

- Menga uning dori-darmonlar tayinlov varaqasini bering.

-Дайте лист назначений.

-Bemorning haroratini har ikki soatda o'lchab turish zarur.

- Больному необходимо измерять температуру каждые два часа.

-Uning tomir urishini, arterial qon bosimini ertalab va kechqurun o'lchab turing.

Измеряйте частоту пульса и артериальное давление утром и вечером.

-Ma'lumotnomani menga bering.

-Дайте мне справку.

## 17- DARS

### Ravishdosh (Деепричастие)

Ravishdosh – fe'ning vazifadosh shakli. Ravishdosh undosh bilan tugagan fe'l o'zagiga -a unli bilan tugagan fe'l o'zagiga -y qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: kel+a, ol+a, bor+a, o'qi+y, ishla+y, o'yna+y

Bo'lishsiz shakli -may qo'shimchasi bilan yasaladi. Masalan: bor+ma+y, ayt+ma+y;

Ravishdosh fe'l o'zagiga -b, -ib qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: ishla+b, o'yla+b, ayt+ib, kul+ib;

Деепричастие это функциональная форма глагола. Деепричастие образуется присоединением к основе глагола аффикса -a, если основа заканчивается на согласный, и аффикса -й, если основа заканчивается на гласный.

Отрицательная форма образуется путём присоединения аффикса -май.

Деепричастие образуется присоединением аффиксов -b, ub к основе глагола.

Ravishdoshning bo'lishsiz shakli <u>-masdan</u> qo'shimchasi yordamida yasaladi. Masalan: <u>gapir+masdan</u> , <u>o'yla+masdan</u> , <u>go'rq+masdan</u> ;	Отрицательная форма деепричастия образуется при помощи аффикса <u>-масдан</u> .
---	---

**Mashq. Quyidagi gaplardagi ravishdoshlarni toping va tagiga chizing.**

1. Institutni bitirib, magistraturaga o'qishga kiraman. 2. U o'ylab-o'ylab qilgan ishi noto'g'riligini tushundi. 3. Malika orqasiga qaramasdan ketdi. 4. Alisher hech narsa aytmay, uydan chiqib ketdi. 5. U quvona-quvona o'ynadi.

**Mashq. Matndagi ravishdoshlarni ko'chiring va shaklini ayting. Rus tiliga tarjima qiling.**

Antarktida suvlarida yashovchi yirik yirtqich tyulen – dengiz qoploni, asosan, pingvinlar bilan oziqlanadi. U suzib yurgan qushlarni bildirmay suv tagiga tortib ketadi.

**Mashq. Matndagi ravishdoshlarni ko'chiring va ularning turini ayting.**

Matbuotning xabar berishicha, turkiyalik dehqon Yusuf Ofqon o'n besh yoshida ko'r va kar bo'lib qolgan edi. O'ttiz yoshida birdan uning tishi og'rib qoldi. Doktorga murojaat qilishga to'g'ri keldi. Doktor uning chap jag'idagi tepa tishini olib tashladi. Yusuf hushdan ketib qoldi. U oradan biroz vaqt o'tgach, o'ziga keldi. Baxtini qarangi, uning yana ko'zi ko'rib, qulog'i eshita boshlagan edi.

**O'TKIR BRONXIT**

O'tkir bronxit – bronxlarning o'tkir yallig'lanishi – nafas organlarining eng ko'p uchraydigan kasalliklaridan biridir. O'tkir bronxit bilan kasallanish yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishi va gripp epidemiyasi vaqtida, ayniqsa, ko'p uchraydi.

Kasallik rivojlanishiga moyillik ko'rsatadigan sabablarga sovqotish, spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish, tamaki chekish, ba'zi kimyoviy moddalardan surunkali zaharlanish kiradi. Yuqori nafas yo'llarida infeksiya o'chog'ining borligi (sinusit, gaymorit) ham o'tkir bronxit rivojlanishiga sharoit yaratuvchi omillardan hisoblanadi.

Klinik manzarasi: Kasallik quruq iztirobli yo'tal, to'sh suyagi atrofida og'riq, yuqori nafas yo'llarining o'tkir yallig'lanishiga xos o'zgarishlar bilan boshlanib, yallig'lanish bronxlarga tarqalgach, hansirash va ketma-ket yo'talish paydo bo'ladi. Bemorlar yo'talish vaqtida ko'krak qafasining pastki qismida og'riq sezadilar. Behollik, terlash, tana haroratining 37,5<sup>0</sup>-38<sup>0</sup> S ga ko'tarilishi, gripp bilan og'rigan bemorlarda esa lablariga uchuq toshishi kuzatiladi.

O'tkir bronxitning yengil turi bilan og'rigan bemorlar ko'pincha uyda davolanadilar. Bemorni sovqotishdan, qattiq isib ketishdan asrash kerak bo'ladi. Shamollashga qarshi va og'riq qoldiruvchi dorilar, vitaminlar, ko'proq

C vitaminlari buyuriladi. Balg'am ko'chirishni yengillashtirish, nafas qisishini to'xtatish uchun termopsis, teofedrin buyuriladi.

Kasallikning oldini olish uchun atrof-muhitni toza saqlash, qattiq sovqotishdan saqlanish, tamaki chekmaslik, spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilmaslik kerak. Doimiy badantarbiya va sport bilan shug'ullanish, organizmni chiniqtirish o'tkir bronxitning oldini olishda muhim omillardan hisoblanadi.

**Lug'at**

yuqori nafas yo'llari – верхние дыхательные пути	o'choq – очаг
uchramoq – встречаться	tarqalmoq – распространять
sharoit – условие	moyillik – склонность
ko'krak qafasi – грудная клетка	balg'am – мокрота

**Savol va topshiriqlar.**

1. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.

«Nima bu nima?»

O'tkir bronxit

Sinusit

Gaymorit

«Nima qachon ko'p uchraydi?»

O'tkir bronxit

«Nimaga nima sabab bo'ladi?»

Kasallik rivojlanishiga

«Nimada nima paydo bo'ladi?»

O'tkir bronxitda

«Nimada nima qilish kerak?»

Kasallikning oldini olish uchun

2. O'tkir bronxitning yengil turi bilan og'rigan bemorlar qayerda davolanadi

4. Ularni nimadan asrash kerak?



## 5. Balg'am ko'chirishni yengillatish uchun nima buyuriladi?

**Topshiriq.** Quyidagilarni o'qing. Tarjima qiling. Shunga o'xshash vaziyatli o'yin o'tkazing.

Bolaning kasallik holati bayon etiladi. Rollar bo'linib beriladi.

**Vaziyat:** Poliklinikaga 1.5 yashar bolani quyidagi shikoyatlar bilan olib kelishdi. Bolaning tana harorati yuqori – 38,5<sup>0</sup>. U bir marta qayt qilgan. Kasallik ertalab boshlangan. Poliklinikada ahvoli tekshirilgan. So'ng uyga javob berilgan. Tashxis qo'yilmagan. Ikki kundun so'ng bola ahvoli og'irlashib, unda zaharlanish alomati, shaytonlash paydo bo'lgan. Ichi surgan. Unga «Tez yordam» tomonidan shaytonlashga qarshi davo qilingan.

**Savol:** Shu holda poliklinikaning yuqumli, tez yordam, asab kasalliklari bo'limining shifokorlari o'zlarini qanday tutgan bo'lardilar?

**Ekspert pediatr Aliyeva:** Uchastka shifokoriga savolim bor edi. Ichirilgan regidron miqdori qancha edi? Ikki kundun so'ng bolani nazorat qilishdimi?

**Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti vakili:** Bu yerda yallig'lanish jarayoni sodir bo'lmoqda.

**Laboratoriya eksperti:** Men esa bu tashxisni rad etaman. Axir, bemor siydik va qonida o'zgarishlar bo'lishi uchun vaqt zarur. Ular bir kundayoq namoyon bo'la olmaydi. Bu yerda biz kuchli toksikoz belgilarini ko'rmayapmiz.

**Boshlovchi:** Bola kasalxonaga yotqizishga muhtojmi?

**Yuqumli kasalliklar shifokori:** Taxminimcha, bolada gepatit kasalligining boshlanishi kuzatilyapti.

**Asab kasalliklari shifokori:** Menimcha, bolaning onasi bilan yana suhbatlashish kerak.

Bolaning onasi bilan suhbatdan yana shu narsa ma'lum bo'ldiki, bola yiqilib tushgan.

**Asab kasalliklari shifokori:** Demak, bolada miya chayqalishi bo'lgan.





**O'qituvchi:** Demak, bemor biz taxmin qilgan gepatitga ham, miya yallig'lanishi-meningitga ham chalinmagan. Ona o'z bolasini yiqitib qo'ygan. Miyada qon aylanishi buzilgan. Poliklinikada esa bolani noto'g'ri davolashgan. Miyada qon aylanishi buzilgan. Poliklinikada esa bolani noto'g'ri davolashgan. Miya chayqalishida avval isitma chiqib, keyinchalik bola o'zini yaxshi sezishi mumkin. Uchinchi kuni esa bolaning ahvoli og'irlashgan. Ko'rdingizmi. 2 ta belgiga ega qancha kasalliklarni uchratish mumkin.

**Topshiriq.** Quyidagi namunaga qarab ikkita belgiga ega bo'lgan kasalliklarning nomini yozib chiqing. Boshqa 2 ta belgili kasallikni ham toping.

Meningit kasalligida bemor qayt qiladi, isitma chiqadi.

Qayt qilish va isitma chiqishi ..... kasalligiga ham xos. Bu belgilar .... kasalligida ham kuzatiladi.

## 18-DARS

Harakat nomi (Отглагольное имя действия)	
<p>Harakat nomi fe'ning bo'lishli shakliga <u>-sh (-ish), -moq,-v (-uv)</u> qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: <u>ishla+sh, o'qi+sh, bor+moq, yoz+uv, o'q+uv;</u> O'zbek tilida bu shakl ko'pincha kerak, uchun, mumkin, lozim so'zlari bilan birga ishlatiladi.</p>	<p>Отглагольное имя действия образуется присоединением к положительной основе глагола аффиксов <u>-ш (-иш), -моқ,-в (-ув)</u>. В узбекском языке отглагольное имя действия часто употребляется со словами керак, учун, мумкин, лозим.</p>
<p>Ishla+sh </p>	<p>Нужно  Работать Чтобы Можно</p>
<p>Harakat nomi rus tiliga fe'ning noaniq shakli sifatida tarjima qilinadi. Ko'pincha harakat nomiga egalik qo'shimchalari qo'shiladi.</p>	<p>Отглагольное имя действия обычно переводится на русский язык как неопределенная форма глагола. Часто к отглагольным именам действия присоединяются притяжательные аффиксы. Отрицательная форма имени действия образуется присоединением к основе глагола аффикса <u>-маслик.</u></p>
<p>Olish </p>	
<p>Olish </p>	
<p>Harakat nomining bo'lishsiz shakli fe'l o'zagiga - <u>maslik</u> qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: <u>gapir+maslik, bil+mastik;</u></p>	

**Mashq.** Gaplarni o'qing, harakat nomining tagiga chizing.

1. Bir ko'rgan bilish, ikki ko'rgan tanish. 2. Insonni bilish uchun uni sevish kerak. 3. Ko'rishish, salomlashish, so'rashish va iltifot etish insonlarga xos fazilatdir. 4. Xato qilmoq bordir, tuzatmaslik ordir. 5. Qilayotgan ishingni sevishing kerak, ana shunda mehnat ijodga aylanadi.

**Mashq.** Matndagi harakat nomini toping, ularni ko'chiring va rus tiliga tarjima qiling.

Ota-ona – bolaga ustoz. Bolani yaramas ishlardan saqlab, yaxshi ishlarga qiziqtirish, uning yonida yomon qiliqlardan saqlanish kerak. Bolalarni

juda erkalatib yubormaslik lozim. Bolalarning suyuq soʻzlarini eshitib, kulib turish, yaramas ishlarini olqishlash ularni orsizlik, axloqsizlikka odatlantirishdir. Bolaga yumshoq muomala qilish, faqat vaqtida – oʻrni kelganda koyish, bola har vaqt toʻgʻri boʻlsa, ota-ona hayrixoh boʻlishni bildirish lozim. Biror boʻlmagʻur ishni koʻrsatishi bilanoq bolani qattiq koyish, urish – bolaning qarshiligini orttiradi. Haddan ziyoda ziynatlanib koʻchalarda yurish, bekor oʻtirishdan qizlarni saqlash va uy ishlariga toʻla oʻrgatish kerak. Chunki oila rahbari boʻlgan xotin tarbiyali, odobli boʻlishi, uy ishlarini mukammal bilishi kerak.

### TISH NIMA OʻZI?

Har bir tish ikki qismdan: tishni jagʻga mustahkamlovchi ildiz yoki ildizlardan va ogʻizda koʻrinib turadigan qismdan iborat boʻladi.

Tishda toʻrt xil modda boʻladi. Tishning yuqori qismini qoplovchi emal – qattiq va yaltiroq modda. Sement – ildizni qoplovchi suyakka oʻxshash modda. Dentin – fil suyagiga oʻxshaydi, tish tanasi undan iborat boʻladi. Tish pulpasi – tish ichidagi boʻshliq, u pulpa boʻshligʻi deyiladi. Tish pulpasi nervlar, arteriya va venadan iborat toʻqima hisoblanadi. Ular tishga ildiz uchi yonidagi teshikdan oʻtadi.

Ovqatda kalsiy yoki D darmondorisi yetishmasligi emalning zaiflashuviga olib keladi, buning oqibatida tishlar juda erta yemirila boshlaydi.

Odamda tishlar bir marta almashadi. Ikki yoshli bolalarda sut tishlari atalmish 20 ta tish boʻladi. Sut tishlari ostida ikkinchi tishlar boʻlib, ular olti yoshdan keyin chiqq boshlaydi. Bu sut tishlari 12 yoshga kelib almashinib boʻladi.

Katta yoshdagi odamda tishlarning toʻliq yigʻindisi – 32 ta ildizli tish boʻlishi lozim. Shundan soʻng bizda yangi tish oʻsib chiqmaydi, shu bois tishlarni parvarish qilish, ularning yemirilishiga yoʻl qoʻymaslik kerak.

#### Savol va topshiriqlar.

1. Matnni oʻqing. Rus tiliga tarjima qiling.

2. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar boʻyicha gaplar tuzing.

#### «Nima nimadan iborat?»

Har bir tish

--	--

Tish pulpasi

--	--

#### «Nima bu nima?»

Emal

--

Dentin

--

Sement

--

Tish pulpasi

--

#### «Nima qancha boʻladi?»

Ikki yoshli bolalarda  
sut tishlari

--

Katta yoshdagi odamda  
tishlar yigʻindisi

--

3. Tish necha qismdan iborat? Ular nima deb ataladi?

4. Ovqatda kalsiy yetishmasligi nimaga sabab boʻladi?

5. Odamda necha marta tish almashadi?

#### Lugʻat

tish – зуб

jagʻ – челюсть

modda – вещество

qoplovchi – покрывающий

yemirilmoq – разрушаться

ildiz – корень

suyak – кость

toʻqima – ткань

parvarish qilish – уход

### TISH SHIFOKORI QABULIDA

#### Stomatolog

-Assalomu alaykum, xizmat, qanday shikoyatingiz bor yoki nima bezovta qilyapti?

-Tishingiz nimadan va qachon koʻproq ogʻriyapti? Tishingiz issiq yoki sovuq tegsa kuchayadimi yoki oʻz-oʻzidan ogʻriydimi?

-Tishning kovagiga boʻr mashina bilan ishlov beriladi.

-Qoʻrqmang. Biz ogʻriqsizlantirib, keyin sizga ozor bermay, tishingizni

#### Bemor

-Tishim ogʻriyapti.

-Bilmayapman. Kovaksimon boʻlib qolgan jagʻ tishim ham loʻqillab ogʻriyapti va kechasi kuchayadi.

-Juda qoʻrqib ketyapman. Gʻirillatsangiz yanayam ogʻriq kuchaymaydimi?

-Tishimni davolab boʻldingizmi? Men hech narsa sezmadim rahmat.

davolaymiz.

-Bu tishingizdan tashqari boshqa tishlaringizni va milkingizni davolatishingiz kerak. Og'iz bo'shlig'i gigiyena qoidalariga rioya qiling. Bu eslatmada gigiyena qoidalari yozilgan. Stomatologning ko'rigiga 1 yilda 2 marta kelishingiz shart. Salomat bo'ling.

**Mashq.** Quyidagi gaplarni rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qiling.

**Кариес** – болезнь, вызывающая разрушение зубов.

**Симптом** – явление, означающее, что какая-то из функций организма нарушена. Например, симптомами простудных заболеваний являются высокая температура, головная боль, насморк, кашель и усталость.

**Nima uchun? Nima qilish kerak? konstruksiyasi bo'yicha savollarga javobni o'ng tomondagi ustundan toping.**

24 soat mobaynida saqlangan isitma oqsilni parchalagan uchun	Badanni chiniqtirish kerak
Shamollamaslik uchun	Isitmani tushirish kerak
Shamollashning belgilari boshqa kasalliklarda ham uchrashi mumkinligi uchun	Ob-havoga qarab kiyinish kerak.
Shamollamaslik uchun	Bemorni shifokor ko'rigidan o'tkazish kerak

**Mashq.** Quyidagi savollarga o'ng ustundagi so'z birikmalaridan foydalanib javob bering.

Tish og'rimasligi uchun nima qilish kerak?	Tishlarni har kuni tozalash
Tishlar mustahkam bo'lishi uchun nima qilish kerak?	C darmondorisiga boy ovqatlarni yeyish
Tish og'rig'ining oldini olish uchun nima qilish kerak?	Tish doktoriga ko'rinib turish

Ravish (Наречие)	
<p>Harakatning vaqti, joyi, maqsadi, sababi va holatini bildiruvchi so'zlarga <u>ravish</u> deyiladi.</p> <p>Ravishning quyidagi turlari bor:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Payt ravishi.</li> <li>2. O'rin ravishi.</li> <li>3. Holat ravishi.</li> <li>4. Miqdor va daraja ravishi.</li> </ol> <p><u>Payt ravishi</u> – ish harakatning vaqtini bildirib, qachon? qachondan beri? savollariga javob beradi. Masalan: <u>bugun, hozir, yaqinda.</u></p> <p><u>O'rin ravishi</u> ish harakatning o'rini bildiradi va qayerda? qayerdan? qayerga? savollariga javob beradi. Masalan: <u>yuqorida, pastda, u yerda.</u></p> <p><u>Holat ravishi</u> ish-harakatning bajarilishi holatini bildiradi va qanday? qanday qilib? savollariga javob beradi. Masalan: <u>asta, jim, piyoda, zo'rg'a.</u></p> <p><u>Miqdor va daraja ravishlari</u> harakatning miqdori va darajasini bildiradi va qancha? qay darajada? savollariga javob beradi. Masalan: <u>ko'p, oz, aslo, kam.</u></p>	<p>Слова, обозначающие время, место, цель, причину и способ действия, называются наречиями. Наречия делятся на следующие виды:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Наречия времени.</li> <li>2. Наречия места.</li> <li>3. Наречия образа действия.</li> <li>4. Наречия меры и степени.</li> </ol> <p><u>Наречия степени</u> обозначают время действия и отвечают на вопросы когда? и с каких пор? Например: <u>сегодня, сейчас, недавно.</u></p> <p><u>Наречия места</u> обозначают место действия и отвечают на вопросы где? откуда? куда? Например: <u>наверху, внизу, там.</u></p> <p><u>Наречия образа действия</u> обозначают способ совершения действия и отвечают на вопросы как? каким образом? Например: <u>медленно, тихо, нешком, насилу.</u></p> <p><u>Наречия меры и степени</u> обозначают степень, меру, интенсивность действия и отвечают на вопросы сколько? в какой степени? Например: <u>много, мало, совсем, мало.</u></p>

**Mashq.** Quyidagi holat ravishlari ishtirokida gaplar tuzing.

Piyoda, arang, jim, tez, mardona, astoydil.

**Mashq.** Nuqtalar o'rniga kerakli ravishlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1.Sen..... biznikiga kelasanmi? 2.Bugun .... gidan, ertaga ..... gidan yaxshiroq ishlash kerak. 3.Yerga.... da yaxob berish lozim. 4.O'rimdan .... turdim va ishga ....da yetib bordim. 5.Yozda dengizda ... cho'milamiz.

**Mashq.** Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling va o'rin ravishlarini toping.

1.Справа тянулась сырая каменная стена. 2.И справа, и слева

высятся новые жилые дома. 3.Всюду славят тебя неспроста: не стареет твоя красота. 4.Позади шумят протоки и кругом чужая ночь. Наши бойцы продвигались вперед.

**Mashq. Ravish bo'yicha o'tilganlarni takrorlang va quyidagi ravishlarni turlarga ajrating.**

Bugun, bugundan, erta, ertagacha, ertadan, oldin, oldindan, ilgari, darrov, yangi, yangicha, uncha-muncha, bu yerda, oz, ko'p, mutlaqo, uncha, yaxshilab;

**Mashq. O'ng tomondagi ravishlarni nuqtalar o'rniga qo'yib chiqing.**

Hamma kasallik isitma chiqaravermaydi, ammo ..... kasalliklar isitma chiqaradi.	Ko'p Doim Asta
Isitma ..... organizmda biron bir kasallik mavjudligidan dalolat beradi.	Kecha Bugun Har doim
Isitma chiqqanda qon tezroq aylanadi, biz ..... nafas olamiz va bu organizmni chiqit va zaharli mahsulotlardan tezroq xalos bo'lishda yordam beradi.	Kecha Sekin Tez
Ammo tananing .... yoki .... isitmalashi zararlidir.	Asta Yuqori Tez-tez Uzoq

### POKLIGING – SOG'LIG'ING

Ozodalik va orastalik faqat ayrim odamlar uchungina foydali bo'lib qolmay, barcha uchun zarur qoidadir.

V.Shekspir: «Tozalik bor yerda hamma narsa ham toza», degan ekan.

Tumov sof havoda tuzaladi.

Abu Ali ibn Sino: «Agar havoda chang va to'zon bo'lmasa edi, kishi ming yil yashagan bo'lardi», deydi.

Matbuotda shunday xabar e'lon qilingan:

«Himolay tog'larida istiqomat qiluvchi kichik xunza qabilasi gripp, sil, bo'g'ma va boshqa kasalliklarning nimaligini bilmaydi. Bu yerda yashovchi kishilarning hatto tishlari ham og'rigan emas.

Ular toshdan yasalgan, katta derazalari janubga qaratilgan uylarda yashashadi. Hammayoq hayratda qolarli darajada toza, saranjom -sarishta, o'simliklar juda ko'p.

Oziq-ovqatlarni yerto'lada saqlashadi. Molxonalar qishloqdan ikki-uch kilometr uzoq yerda joylashgan. Ko'chada na go'ng, na pashsha ko'rinadi».

Patogen mikroblar oqava, ariq suvlarida uzoq muddat yashaydi. Ich terlamani qo'zg'atuvchi tayoqcha ariq suvida 21 kun, muzda 60 kun, oqava suvda 6-30 kun, ichburug' tayoqchasi ariq suvida 3 kun yashaydi. Oqava suv tushgan 1 gramm tuproqda umumiy bakteriyalar soni 40 million, odamlar yashaydigan punktlardagi 1 gramm tuproqda umumiy bakteriyalar soni 7-10 milliontagacha bo'ladi.

Shuning uchun meva va sabzavotlarni yuvib yeyish, qaynagan suvni ichish tavsiya etiladi.

Inson o'z terisini toza tutishi, gigiyena qoidalariga rioya qilishi ham juda muhim. Qo'lni o'qishdan, ishdan kelganda ovqatdan oldin va hojatdan chiqqandan so'ng, albatta, sovunlab yuvish zarur. Yuz va bo'yinni kuniga 2 martadan, ertalabki yuvinish paytida har kuni qo'ltiq ostlarini yuvish ham maqsadga muvofiqdir. Haftada kamida 1-2 marta cho'milish zarur. Tishlarni yuvish kariyesning oldini oladi.

**Savol va topshiriqlar.**

1. V.Shekspir va Abu Ali ibn Sinolar tozalik haqida nima deyishgan?
2. Kichik xunza qabilasi aholisi nega hech qachon yuqumli kasalliklar bilan og'rimagan?
3. Kasalga chalinmaslik uchun qanday qoidalarga rioya qilish kerak?
4. «Tozalik – salomatlik garovi» mavzusida kichik referat tayyorlang.
5. Matnga asosan «Nima qayerda qancha bo'ladi?» konstruksiyalari orqali to'g'ri gap tuzing.

Ich	terlama	qo'zg'atuvchi	ariq suvida	60 kun	yashaydi
tayoqcha			muzda	6-30 kun	
			oqava suvda	21 kun	

**Topshiriq. Quyidagi yumoristik dialoglarni rollarga bo'lib o'qing va tarjima kiling.**

\*\*\*

-Kasal bo'lib qolganingizga ajablanmasa ham bo'ladi, - dedi shifokor bemorga, - axir, uyingiz to'la bakteriya-ku!  
-Qiziq ekansiz-u, - javob berdi bemor, - bir yildan beri eshik-derazalarni ochmasam, bakteriya qayerdan kiradi?

\*\*\*

Bir kishining qulog'i kir bo'lib yurardi. Keksa bir odam so'radi.  
-Nahotki, uyalmasdan shu kir qulog'ingiz bilan yursangiz?  
-Afsus, ming afsus. Menda boshqa quloq yo'q-da, - javob berdi u.

Ko'makchilar (Послелого)	
<p>Ot, son, olmosh, harakat nomidan keyin kelib, ularni boshqa so'zlar bilan bog'lashga xizmat qiladigan yordamchi so'zlarga <u>ko'makchilar</u> deyiladi.</p> <p>Ko'makchilar bosh, qaratqich, jo'nalish va chiqish kelishigidagi so'zlardan keyin ishlatiladi.</p> <p>Ko'makchilar quyidagi turlarga bo'linadi:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Asl ko'makchilar.</li> <li>2. Ot ko'makchilar.</li> <li>3. Fe'l ko'makchilar.</li> </ol> <p><i>Asl ko'makchilar</i> faqat yordamchi vazifani bajara-digan so'zlardir. Masalan: <i>bilan, uchun, kabi</i>.</p> <p><i>Ot ko'makchilar</i> – ot va ravishlardan tashkil topgan so'zlardir. Masalan: <i>avval, keyin, tashqari</i>.</p> <p><i>Fe'l ko'makchilar</i> – yasalishiga ko'ra ravishdosh va sifatdosh shakllaridir. Masalan: <i>ko'ra, qaraganda, boshlab</i>.</p>	<p>Послелогом называется служебная часть речи, которая употребляется после существительных, числительных, местоимений, имён действий и служит для связи с другими словами.</p> <p>Послелогои употребляются после слов в именительном, родительном, дательном или исходном падежах.</p> <p>Послелогои делятся на следующие виды:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Собственно послелогои.</li> <li>2. Отименные послелогои.</li> <li>3. Отглагольные послелогои.</li> </ol> <p><i>Собственно послелогои</i> это выполняющие только вспомогательную функцию слова <i>с, для, как</i>.</p> <p><i>Отименные послелогои</i> – это слова, образованные от имен или наречий. Например: <i>раньше (сначала), после, кроме</i>.</p> <p><i>Отглагольные послелогои</i> – это слова, являющиеся по своему образованию деепричастными или причастными формами. Например: <i>по, смотря, начиная (с)</i>.</p>

**Mashqlar.** Quyidagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing va rus tiliga tarjima qiling.

Burun, tashqari, keyin, ko'ra, qaraganda, uchun.

**Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling va ko'makchi otlarni toping.** Ular qaysi kelishikda ekanligini aytib bering.

1. Он направился прямо во дворец. 2. Среди нас много отличников. 3. Что произошло между подростками. 4. Внутри крепости был черный дом. 5. Я его завтра пришло к вам.

**Nuqtalar o'rniga tegishli qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni ko'chiring va rus tiliga tarjima qiling.**

1. O'ktam ham ularning orti... bordi. 2. Olim akasining orqasi... ergashdi. 3. U yon.. o'tdi. 4. Bu darslik talabalar o'rtasi... shuhrat qozondi. 5. Gulnor qizni uy ich... olib kirdi. 6. Rahim stol usti... arrani oldi.

## YUQUMLI KASALLIKLAR

Yuqumli kasalliklar qadim zamonlarda ham bo'lgan. Chinchekchak, o'lat, vabo va boshqa xatarli yuqumli kasalliklar vaqti-vaqti bilan keng tarqalib, millionlab kishilarning yostig'ini quritgan, jamiyatga ko'p talofat yetkazgan. Yuqumli kasalliklarning mohiyati, ularning kelib chiqish sabablari uzoq vaqt davomida noma'lum bo'lib kelgan.

Keyinchalik yuqumli kasalliklar ikki xil bo'ladi, degan fikrlar paydo bo'ldi: 1. Bir xil yuqumli kasalliklar tashqi muhitda yuzaga keladigan alohida zararli modda (miazma)ning odam organizmiga kirishi natijasida paydo bo'ladi. 2. Ikkinchi xil kasalliklar esa sog'lom odamlar bemorga yaqin yurganida kontakt yo'li bilan yuqadi.

1478-1553-yillarda yashagan italiyalik olim Frakastoro yuqumli kasallik uch xil yo'l bilan:

- 1) kontakt orqali,
- 2) bemor foydalangan turli buyumlar orqali (o'rin-ko'rpa, kiyim-kechak va boshqa buyumlar),
- 3) havo orqali yuqishini ta'kidlagan.

Angliyalik shifokor Eduard Jenner (1749-1823) odamlarni chinchekchakdan asraydigan xavfsiz va juda samarali usulni kashf etdi.

XIX asrning birinchi yarmida ba'zi yuqumli kasalliklarning qo'zg'atuvchi mikroblari ma'lum bo'lgach, ular haqidagi ta'limot tez rivojlana boshladi. Yuqumli kasalliklar haqidagi ta'limot mikrobiologiya, epidemiologiya, parazitologiya, immunologiya, eksperimental kimyoterapiya va patologik anatomiya bilan chambarchas bog'langanidir.

Ba'zi mikroblar odam organizmida uzoq vaqt zarar keltirmay yashashi mumkin (saprofitlar), odam organizmining kuch-quvvati susayganda ana shu saprofit mikroblarda patogenlik xususiyati paydo bo'lib, ular hujumga o'tadi.

Yuqumli kasalliklar boshqa kasalliklardan quyidagi 4 xususiyati bilan farq qiladi:

1. Yuqumli kasallikni tirik patogen mikroblar qo'zg'atadi.
2. Bemor o'z navbatida kasallik manbai bo'ladi va uni boshqalarga yuqtirishi mumkin.
3. Bemor qaysi yuqumli kasallik bilan og'rib o'tsa, uning organizmida o'sha kasallikka qarshi immunitet hosil bo'ladi va shu kasallikning qaytadan yuqishiga qarshilik ko'rsatadi.
4. Yuqumli kasalliklar muayyan davrlar bilan, ya'ni siklik tarzda rivojlanadi va so'nadi.

## Lug'at

qadimgi – древний  
chinchechak – оспа  
o'lat – чума  
vabo – холера


mohiyat – сущность  
xavfsiz – безопасный  
samarali – эффективный  
ta'limot – учения

### Savol va topshiriqlar.

1. Yuqumli kasalliklar necha xil bo'ladi?
2. Italiyalik olim Frakastoro yuqumli kasalliklar yuqishini qanday xillarga bo'ladi?
3. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.


«Nima nimalarga kiradi?»

Xatarli yuqumli kasalliklarga




«Nima nima bilan bog'liq?»

Yuqumli kasalliklar haqidagi ta'limot



«Nima nima bilan farq qiladi?»

Yuqumli kasalliklar boshqa kasalliklardan



Ushbu matnni rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qiling.

## КАК МЫ ДЫШИМ?

Процесс дыхания состоит из двух движений-из вдоха и выдоха. Во время вдоха воздух входит в легкие, а во время выдоха-выходит из них.

При вдохе сокращается диафрагма-мышца, которая отделяет грудную клетку от брюшной полости: одновременно сокращаются мышцы, прикрепленные к ребрам, заставляя ребра раздвигаться, и

грудная клетка увеличивается в размерах. При этом легкие расширяются и в них попадает атмосферный воздух, насыщенный кислородом. Воздух попадает в альвеолы-легочные пузырьки, через которые кислород проникает в кровь.

После этого диафрагма и мышцы грудной клетки автоматически расслабляются, легкие сжимаются и из них выходит воздух, в котором вместо кислорода содержится углекислый газ, а также водяной пар.

Обычно за одну минуту человек совершает от 20 до 25 вдохов и выдохов.

Mashq. Quyidagi she'rda misra oxiridagi so'zlarni joy-joyiga qo'yib chiqing.

Qon hosil qilar quloq,  
O'sib ketibdi taloq,  
Kuchga to'ladir yurak,  
Gupillab urar bilak,  
O't qopida bo'lar yosh,  
Ko'zingdan ko'rindi bosh,

Qaldirg'ochdek qalam tosh,  
Omon bo'lsing bizning qosh,  
Kuchga to'ladir barmoq,  
Tinglash a'zosi, tirnoq,  
Qayda og'riq shu yer son,  
Ikki oyoq,ikki jon.

## HAVO-TOMCHI YO'LLARI ORQALI YUQADIGAN KASALLIKLAR

Havo-tomchi yo'llari orqali yuqadigan kasalliklarga qizamiq, qizilcha, skarlatina, ko'k yo'tal, gripp, virusli resperator gepatit infeksiyalar, difteriya (bo'g'ma) kasalliklari kiradi. Bu kasalliklarning zarrachalari yo'talganda, aksa urganda shilliqalar orqali atrof-muhitga tarqaladi. Bu kasalliklar, asosan, bolalarda uchraydi.

Kasalliklarning diagnostikasi uchun epidemiologik analiz, ya'ni atrofda yuqumli kasalliklar to'g'risidagi ma'lumot, profilaktik emlashlar haqidagi so'rashlar bo'lishi zarur. Kasalning atrofida infeksiya bo'lishi bu infeksiyalarning boshqalarga o'tishi ehtimolini kuchaytiradi. Havo-tomchi yo'llari orqali yuqadigan kasalliklar bemor vaqtida davolanmasa, boshqalarga o'tishi mumkin.

Bemor ma'lum bir tizim orqali ko'rikdan o'tkaziladi, bunda terining holatiga jiddiy e'tibor qaratilishi talab qilinadi. Teri qoplamalari tekshirilganda ekzantemalar borligi, elementlari xarakteri, rangi hisobga olinadi.

Tomoq va burun-halqum yo'llari ko'p infeksiyalarning kirish eshigi hisoblanadi va bemor ko'rikdan o'tayotganida ko'proq shu a'zolarga e'tiborni qaratisht kerak.

Og'iz bo'shlig'ining quruqligi yoki namligi, silliqligi yoki g'adirbudurligi ham kasalliklarni aniqlashda katta yordam beradi.

Har bir ko'rikda tomoq murtagidagi bezchalarning rangi, o'lchami ham kasallikning tashxisida ahamiyatga egadir. Bir vaqtning o'zida tilning

holatiga ham e'tibor berish lozim, chunki turli infeksiyalarda bu holatning o'z manzarasi bo'ladi. Skarlatina kasaliga olovli tomoq va tilning oq karash bilan ko'p qoplanishi, tilning chetlari va uchi yorqin bo'lishi xos bo'lsa, qizilchada og'iz shilliq qavatlar o'zgarmaydi. Og'iz shilliq qavatlar, til va teri qoplamalaridan tashqari limfa tugunlarini tekshirish ham katta ahamiyatga egadir. Qizilcha kasali uchun limfa tugunlarining kattalashishi boshqa kasalliklarga nisbatan ko'proq xosdir.

### Lug'at

qizamiq – корь  
qizilcha – краснуха  
limfa tugunlari – лимфатические узлы


murtak bezlari – гланды  
ko'kyo'tal – коклюш  
manzara – картина

### Savol va topshiriqlar.

1. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.


«Nimaga nima kiradi?»

Bolalarda havo-tomchi yo'llari orqali yuqadigan kasalliklarga




«Nima uchun nimalar zarur?»

Kasalliklarning diagnostikasi uchun




«Nimada nima yordam beradi?»


Kasallikni aniqlashda



«Nima nimaga xos?»



skarlatinaga xos



qizilchaga xos

2. Bu kasalliklarda nimalarga e'tibor berish kerak?

3. Sanab o'tilgan kasalliklardan biri haqida ilmiy adabiyotlar asosida tavsif tayyorlang.

4. Matnni o'qib tarjima qiling.

### 21-DARS

#### Bog'lovchilar (Союзы)

Bog'lovchilar sodda gaplarda gap bo'laklarini, qo'shma gaplarda sodda gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlardir.

Bog'lovchilar ikki xil bo'ladi:

1. Teng bog'lovchilar.
2. Ergashtiruvchi bog'lovchilar.

Teng bog'lovchilar sodda gaplarning uyushiq bo'laklarini, qo'shma gaplarga teng munosabatli sodda gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladi.

Teng bog'lovchilar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Birlashtiruvchi bog'lovchilar: va, hamda, ham;
2. Zidlov bog'lovchilari: ammo, lekin, biroq;
3. Ayiruv bog'lovchilari: yo, yoki, goh, dam;

Ergashtiruvchi bog'lovchilar – ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi. Ergashtiruvchi bog'lovchilar quyidagi turlarga bo'linadi:

Союзы – это служебные слова, связывающие между собой члены в простом предложении или простые предложения в сложном.

Союзы бывают двух видов:

1. Сочинительные союзы.
2. Подчинительные союзы.

Сочинительные союзы связывают однородные члены простого и части сложносочиненного предложения, занимающих равное отношение друг от друга.

Сочинительные союзы делятся на следующие виды:

1. Соединительные союзы: и, тоже, также;
2. Противительные союзы: но;
3. Разделительные союзы: или, то.

Подчинительные союзы связывают придаточное предложение с главным. Подчинительные союзы делятся на следующие виды:

1. Maqsad va sabab bog'lovchilari: <b>chunki, shuning uchun.</b>	1. Союзы цели и причины: <b>потому что, поэтому.</b>
2. Chog'ishtiruv bog'lovchilari: <b>go'yo, go'yoki.</b>	2. Сопоставительные союзы: <b>будто, якобы.</b>
3. Shart va to'siqsiz bog'lovchilar: <b>agar, agarda, garchi.</b>	3. Условно-уступительные союзы: <b>хотя, если, даже.</b>
<b>Yuklamalar (Частицы)</b>	
Yuklamalar yordamchi so'zlar va qo'shimchalar bo'lib, ular gap yoki uning alohida bo'lagiga qo'shimcha ma'no berish uchun xizmat qiladi.	Частицами называются служебные слова или аффиксы, придающие различные смысловые оттенки предложению или отдельным его членам.
Yuklamalar quyidagi turlarga bo'linadi:	Частицы делятся на следующие виды:
1. So'roq va taajjub yuklamalari <b>-mi, -chi, -a, -ya.</b>	1. Вопросительные и побудительные частицы: <b>ли, ль, разве, -а, -ка, ведь.</b>
2. Aniqlov yuklamasi <b>-xuddi.</b>	2. Уточнительные частицы: <b>как раз, точь-в-точь, точно.</b>
3. Ta'kid va kuchaytiruv yuklamalari <b>:-ku, -u, -yu, -da, hatto, axir.</b>	3. Усилительные и утвердительные частицы: <b>даже, в конце концов.</b>
4. Ayiruv va chegaralov yuklamalari: <b>faqat, -gina, -kina, -gina.</b>	4. Выделительные и ограничительные частицы: <b>только, лишь.</b>

**Mashq. Teng bog'lovchilarni toping va ular qaysi turga kirishini ayting.**

1. Qo'rquv goh oyoqlaringga qanot beradi, goh ularni yerga mixlaydi. 2. Kishi past mansabda bo'lsa ham, odil va insofli bo'lsa – go'zal va ulug'dir. 3. Qadimgi hakimlar chilonjiydadan dori-darmonlar tayyorlab ham, bevosita mevaning o'zi bilan ham qator kasalliklarni davolashgan. 4. O'rik temir va fosforgia boy. 5. Tashqaridan kelgan oyoq tovushi bahona bo'ldi-da, Aziza o'rnidan turdi. 6. U yozgan xatlar yo yetib bormasdi, yo Alijonning javob bergisi kelmasdi. 7. Goh yomg'ir yogardi, goh quyosh ko'rinib, o'z zarrin nurlarini sochardi. 8. Samandarning qo'shiqlari hammaga yoqardi, lekin Shahzodaga yoqmasdi.

**Mashq. Quyidagi gaplardagi bog'lovchilarning qaysi turi mavjud?**

1. Xadicha Mavjudani ochiq yuz bilan kutib oldi, go'yo hech narsa bo'lmagandek. Men O'zbekistonni juda sevaman, chunki u mening tug'ilgan Ona-Vatanim. 3. Agar sen aytganlarimni qilsang, men senga xohlagan ko'ylagingni olib beraman. 4. Boshga baxtsizlik tushganda ruhan tushmaslik kerak, chunki kulfat ham baxt singari bir zumda o'tib ketadigan narsa. 5. Bu voqea hammani hayratga solgan edi, lekin tezda esdan chiqib ketdi. 6. Hovli

jimjit, go'yo suv sepilgandek. 7. Men shirinlik pishirmoqchi bo'ldim, shuning uchun shakar, tuxum, un, margarin sotib oldim. 8. Gazdan xohlaganingizcha foydalaning, lekin isrof qilmang.

**Mashq. Gaplarni ko'chiring. So'ngra o'zbek tiliga tarjima qiling va yuklamalarni aniqlang.**

1. Umid вышел на улицу и в тот же час вернулся. 2. Всю работу закончим завтра же. 3. Как только он пришёл началась работа. 4. Уже в первый год он поступил в институт. 5. Читайте эти строки. 6. Мне нужна как раз эта книга. 7. Да пишите же!

**Mashq. Quyidagi gaplarni yuklama turlariga ajratib ko'chiring va aytib bering.**

1. U bilan hozirgina telefonda gaplashdim. 2. U keldimi? 3. Hamma savollarga javob berdim-ku. 4. Har kim faqat o'z bilimigagina tayanishi kerak. 5. U bu satrlarni, hatto, yod bilardi. Bugun berasan-a? 7. Ishlayotgan xuddi o'shaning o'zi.

**Mashq. Quyidagi yuklamalar ishtirokida gap tuzing va rus tiliga tarjima qiling.**

Faqat, axir, nahotki, -gina, -mi;

## ICHKI KASALLIKLAR

Ichki a'zolarning kasalliklarini o'rganish, ularni tashxis qilish, kechishini aniqlash, kerakli tashxis asboblardan foydalana bilish, ta'sirchan dori-darmonlar tayinlash har bir shifokorning burchidir.

Ichki kasalliklar quyidagi turlarga bo'linadi: nafas olish a'zolari kasalliklari, yurak-tomir kasalliklari, hazm qilish kasalliklari, buyrak kasalliklari, qon tizimi kasalliklari biriktiruvchi to'qima va bo'g'imlarning diffuz kasalliklari.

## GASTRIT

Hazm qilish kasalliklari aholining umumiy kasallanishida salmoqli o'rin tutadi. Oshqozon xastaliklari orasida eng ko'p uchraydigan – gastritdir. *Gater* – grekchada *oshqozon, itis* – lotinchada *yallig'lanish* ma'nolarini bildiradi. Demak, gastrit – oshqozon yallig'lanishidir. Gastrit ko'p sababli xastalik bo'lib, oshqozonning shilliq qavati va bezlarida turli darajadagi organik va funksional o'zgarishlar paydo qilibgina qolmay, balki me'daning boshqa qavatlari ham tarqalib ketishi bilan xarakterlanadi. Gastritning o'tkir va surunkali turlari mavjud.

O'tkir gastrit to'la davolanmaganligi natijasida surunkali gastrit yuzaga keladi. Pala-partish va shoshma-shosharlik bilan ovqatlanish, quruq,



qattiq ovqatlarni ko'p iste'mol qilish, achchiq, sho'r ovqatlarga o'ch bo'lish, chekishga, ichishga ruju qo'yish, turli-tuman (gormonal, og'riq qoldiruvchi) dorilar ta'siri, ko'mir, metall, paxta changi, ishqor yoki kislotalarning me'daga tushib turishi, boshqa a'zo va tizim xastalıkları (sil, zaxm, buyrak va jigarning surunkali xastalıkları), yurak yetishmovchiligi oqibatida qon aylanishining keskin buzilishi, surukali zotiljam, yurak nuqsonlari gastritga sabab bo'ladi.

Asosiy shikoyatlar quyidagicha:

-To'sh osti sohasida zirqiragan og'riq paydo bo'lishi; u odatda ovqat yeyilganidan keyin yoki och qolganda paydo bo'ladi. Shuningdek, bemor o'zini to'sh osti sohasida achishish va shish bordek his qiladi. U tez-tez kekiradi, mabodo me'dada xlorid kislotasi oshgan bo'lsa, achchiq nordon havo, kamaygan bo'lsa, palag'da tuxumning hidi keladi. Qorin tez-tez dam bo'lib, bemor bezovtalanadi, ko'ngli ayniydi va qusadi. Shuningdek, ich o'tishi yoki qotib qolishi ham mumkin. Asab tizimida o'zgarishlar yuz berib, uyqu buziladi, bemor inijqlanib, boshi og'rib tez-tez aylanadi, darmoni quriydi, ish qobiliyati pasayib ketadi. Og'irroq hollarda esa bemorning ko'z oldi qorong'ulashib, kamqonlik rivojlanishi mumkin. Ishtahaning yomonlashishi, zarda qaynashi ham surunkali gastritga xos shikoyatdir.

Davolashda parhez katta ahamiyatga ega.

### Lug'at

nafas olish a'zolari kasalliklari – болезни органов дыхания  
 yurak-qon tomir kasalliklari – сердечно-сосудистые болезни  
 hazm a'zolari kasalliklari – болезни органов пищеварения  
 buyrak kasalliklari – болезни почек  
 qon kasalliklari – болезни крови  
 o'zgarish – изменение  
 me'da – желудок  
 ruju qo'ymoq – пристраститься  
 ko'ngil aynimoq – тошнить  
 qusmoq – рвота (вырвать)  
 kekirmoq – отрыгивать  
 yurak yetishmovchiligi – сердечная недостаточность

Savol va topshiriqlar.

1. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.

«Nima nima bilan xarakterlanadi?» «Nima qanday turlarga bo'linadi?»

Gastrit  Gastrit

«Nimaga nima sabab bo'ladi?»

«Nima natijasida nima yuzaga keladi?»

Gastritga   
 O'tkir gastrit to'la davolanmaganligi natijasida

«Nimada nima bo'ladi?»

Surunkali gastritda

2. Ichki kasalliklar nomlarini sanab bering.
3. Matnni tarjima qiling va mazmunini so'zlab bering.
4. Biror bir ichki kasallik tasnifini yozing.

Topshiriq. «Diareya» ma'rifiy videofilmidan tomosha qilingan parcha bo'yicha savol va topshiriqlar.

1. Diareya qanday kasallik?
2. Diareyani davolash uchun nimalarga e'tibor qilish kerak?
3. Shifokor va bemor bolaning onasi orasidagi dialogning qisqacha mazmunini yozing.

### 22-DARS

Sintaksis. So'z birikmasi (Синтаксис. Словосочетание)	
Sintaksis – grammatika bo'limi bo'lib, u gaplarni, so'z birikmalarini o'rganadi. Predmetni so'z yoki so'z birikmasi bilan atash mumkin. So'z birikmasi predmetni aniqroq ifodalaydi. Olma – juda ko'p o'xshash predmetlarni ataydi. Qizil olma esa aniq narsani bildiradi.	Синтаксис – раздел грамматики, изучающий предложения и словосочетания. Предмет можно назвать словом или словосочетанием. Словосочетание более точно выражает предмет. Яблоко – обозначает многие однородные предметы, а словосочетание красное яблоко выделяет конкретный предмет, называет точнее.

So'z birikmasi nutqda so'zdan ko'ra ko'proq ishlatiladi. So'z birikmasi gapdan farqli holda tugal fikr bildirmaydi. Masalan: *yosh oila, chuqur bilim, toza ko'ylak;*

Словосочетание в речи используется чаще чем слова. Слово-сочетание в отличие от предложения не выражает законченную мысль. Например: *молодая семья, глубокое знание, чистая рубашка;*

## NAVOIY TABIBLAR HAQIDA

Tabib o'z fani, ya'ni tabobat sohasida bilimdon, hoziq va kasallarga mehribon bo'lishi kerak. Tabibning so'zlari muloyim, o'zi esa hakimlarning so'ziga amal qiluvchi va bemorlarga mulozim, xizmat qiluvchi bo'lishi lozim. So'zlagan so'zi yumshoq va dilni xursand qiluvchi, o'zida esa sharmu-hayo va xushfe'llik bo'lishi kerak.

Shafqatli va mehribon tabib Isoyi ruhullohga o'xshash bo'ladi. Isoning ishi odamdan chiqqan jonni duo yordamida yana tanga kirgizish bo'lsa, tabibning ishi davo bilan chiqayotgan jonga to'sqinlik qilishdir. Bunday tabibning yuzi bemorning ko'ngliga yoqimli, so'zi esa har qanday kasalning joniga orom beruvchidir. Uning bergan har bir davosi xasta kishilarga shifo yetkizadi. Uning tal'ati (qiyofasi) najot Hizr kabi, bergan sharbati esa bemor uchun obihayot kabidir.

Ammo tabib o'z fanida mohir bo'lsa-da, biroq badfe'l ,bemor uchun beparvo hamda qo'pol so'zlovchi bo'lsa, kasalga bir tomondan davo yetkazsa ham boshqa tomondan mijoziga, ya'ni kayfiyatiga o'zgarish yetkazadi.

Biroq, savodi yo'q, omi tabib jallodning shogirdi hisoblanadi, jallod tig' bilan, omi tabib esa zahar bilan o'ldiradi. Tig' bilan o'ldiruvchi jallod, shubhasiz, omi tabibdan yaxshiroqdir, chunki u gunohkorni o'ldiradi. Har qanday gunohkor jallod oldida xor bo'lmasin, har qanday begunoh bemor esa omi tabibga ko'rinuvchi bo'lmasin.

*Hoziq tabibi xushgo'y tan ranjig'a shifodur,  
Omiy-yu tundu badxo'y el jonig'a balodir.*

### Lug'at

yumshoq – мягкий  
sharm-hayo – стыдливость  
to'sqinlik – препятствие  
zahar – яд  
qo'pol – грубый  
jallod – палач

hakim – врач  
xasta – больной  
tal'at – внешность  
beparvo – беспечный  
omi – неуч, неграмотный  
hoziq – искусный, опытный

badfe'l – человек с плохим характером  
shafqat – сочувствие, сострадание

### Savol va topshiriqlar.

1. Navoiy tabiblarga qanday talab qo'yadi?
2. Navoiy mehribon tabiblarni kimlarga o'xshatadi?
3. «Mening tasavvurimdagi ideal shifokor» nomli matn tuzib so'zlab bering.

### Alisher Navoiyning hikmatlari

\*\*\*\*\*

Ko'p demak birla bo'lmag'il nodon,  
Ko'p yemak birla bo'lmag'il hayvon

\*\*\*\*\*

Sihat tilasang ko'p yema  
Izzat tilasang ko'p dema.

\*\*\*\*\*

Qo'l yuvib yursang, nima yeyishni bilasan,  
Til tiyib yursang, nima deyishni bilasan.

\*\*\*\*\*

Va lekin tibbu hikmat ham erur xo'b,  
Ki sihatdur kishi jismida matlub.

### Savol va topshiriqlar.

1. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.

«Kim qanday bo'lishi kerak?»

Tabiblar

«Kim nima hisoblanadi?»

Savodi yo'q tabiblar

2. A.Navoiyning insoniy sifatleri haqida so'zlang.
3. U o'zbek adabiy tilining asoschisi sifatida nimalar qilgan?
4. A.Navoiy tarixchi sifatida nima ishlar qilgan?

5. A.Navoiyning jamoat arbobi sifatidagi ishlari.

6. A.Navoiy adabiyotshunos sifatida qanday yirik asar yaratgan?

### IKKI VAFOLI YOR

Temur Ko'ragon barcha iqlimlarni fath etishga kirishganda, Hindistonda qattiq jang bo'ldi. Unga g'alaba yuz ko'rsatib, taqdir dushman ko'ngliga shikast soldi. O'tkir tig'lar har tomondan qon to'kib, butun olamga g'avg'o soldi. Shu payt ikkita bechora sevishgan nogoh ushbu qotillarga duch keldi. Shohning buyrug'iga amal qilib, askarlardan bittasi ularni chopmoqchi bo'ldi. Askar yonidan tig'ni chiqargan edi, ulardan biri o'z sherigini tig' ostida ko'rib himoya qilish uchun qotilga boshini tutdi.

-Meni o'ldiring, yorim bir on bo'lsa-da yashasin.

Askar uning boshini olmoqchi edi, unisi ham xuddi shu so'zni aytdi. U qaysisiga o'z zulmini ko'rsatmoqchi bo'lsa, boshqa biri o'sha gap bilan oyog'iga yiqilar edi. Qotilning jahli chiqib:

-So'zsiz, ikkalangizni ham chopaman! - dedi.

U qaysi birini o'ldirishga oshiqsa, ikkinchi toqatsizlik bilan der edi:

-Tez bo'l, oldin meni o'ldira qol, to men o'lguncha loaqal u tirik tursin!

Ular bir-birlariga o'z boshlarini in'om etardilar. Boshlarini kestirish uchun tig'ni talashar edilar. Shu munosabat bilan orada birpas kutish yuz bergan edi, birdan xalq orasida omon-omon bo'lgani haqida nido ko'tarildi. Chunki bu ikki yor bir-biri uchun jonidan kechgan edi, shoh ham xalqning gunohidan o'tdi. Bu ikki yor do'stlik, sadoqat tuyg'ularini namoyish qilib, elni ham, o'zlarini ham xalos qildilar.

### ISKANDARNING VASIYATI

Iskandar Zulqarnayn o'limi oldidan shunday vasiyat qildi: «Meni tobutda so'nggi yo'lga kuzatganingizda qo'limni chiqarib qo'yinglar, toki xalq ko'rsin: Dunyoni zabt etgan Iskandar u dunyoga quruq qo'l bilan ketmoqda».

Savol va topshiriqlar. Yuqoridagi A.Navoiyning «Hayratul-abror» asaridan qisqartirib olingan hikoyatlar bo'yicha munozara o'tkazing. Munozara uchun savollar:

1. «Ikki vafoli yor» hikoyatini hozirgi davr uchun «Ikki vafoli do'st» tarzida talqin qilish mumkinmi?
2. Sizning vafoli do'stingiz bormi?
3. Ular ham o'z bo'yniga og'irlikni olishlari mumkinmi?
4. A.Navoiy ushbu hikoyati bilan nima demoqchi bo'lgan?
5. Iskandar Zulqarnayn vasiyati haqida nima deya olasiz?
6. Sizningcha, bu hikoyatning har bir davr uchun dolzarbligi nimada?

Mashq. Quyidagi so'z birikmalarini gapga aylantiring va rus tiliga tarjima qiling.

Aytib ber, isib ketdi, borib keldi, ovozi eshitildi, tozalab bo'lishdi, kulib qaradi.

Mashq. Quyidagi gaplardan so'z birikmalarini topib ko'chiring.

1. Eshik ochiq turgan ekan. 2. Galina Ozodaning uyiga kirdi. 3. Murodning yuzida tabassum o'ynadi. 4. Bugun qiz juda ochilib ketgan edi. 5. To'g'ri, tabassum unga hamisha yarashardi. 6. Baxtiyor dahlizni, ayvonni, oshxonani ko'zdan kechirdi. 7. Shoira ikkinchi qavatdan eshitalayotgan ayol ovozigacha quloq soldi.

### 23 –DARS

Gap. Gapning ifoda maqsadlariga ko'ra turlari (Предложение. Виды предложений по содержанию)	
Tugal fikr bildirgan so'z yoki so'zlar birikmasiga <u>gap</u> deyiladi.	Отдельное слово или сочетание слов, выражающее законченную мысль, называется <u>предложением</u> .
Gapning ifoda maqsadlariga ko'ra 4 ta turi bor:	По содержанию предложения делятся на 4 вида:
1. <u>Darak gaplar</u> : Darak gaplar biror voqea hodisa haqidagi xabarni yo tasdiqlaydi, yoki inkor qiladi. Masalan: <u>Bahor keldi</u> .	1. <u>Повествовательные предложения</u> содержат утвердительное или отрицательное сообщение о каком-либо факте. Например: <u>Пришла весна</u> .
2. <u>So'roq gaplar</u> : So'roq gaplar suhbatdoshidan ma'lumot olish uchun ishlatiladi. Masalan: <u>Kim keldi? Sen borasanmi?</u>	2. <u>Вопросительные предложения</u> употребляются для получения информации от собеседника. Например: <u>Кто пришел? Ты пойдешь?</u>
3. <u>Buyruq gaplar</u> : Buyruq gaplar talab, buyruq, maslahat, iltimos, taklif ma'nolarini bildiradi. Masalan: <u>Yaxshilik qilmasang, yomonlik ham qilma</u> .	3. <u>Побудительные предложения</u> выражают требование, приказ, совет, просьбу, пожелание. Например: <u>Если не можешь делать добро, не делай зла</u> .
4. <u>Undov gaplar</u> : Undov gaplar alohida ohang bilan aytiladi. Masalan: <u>Biz tinchlik istaymiz!</u>	4. <u>Восклицательные предложения</u> произносятся с особой интонацией. <u>Мы хотим мира!</u>

**Mashq. Gaplarni ko'chiring, rus tiliga tarjima qiling. Gamlar maqsadlariga ko'ra qaysi ifoda turiga kirishini ayting.**

1. Duniyoda shifokorlik kasbidan a'lo kasb yo'q. 2. Bemorning taqdiri – shifokorning qo'lida. 3. Bemorlarning his-tuyg'ulari va o'y-xayollari, orzu-umidlari va kelajak ishlari, hamma-hammasi shifokorning qo'lida. 4. Agar men quruvchining hayotini saqlab qolsam, u sog'ayib ketgach ajoyib uylar quradi. 5. Bu binolar menga xuddi o'zim qurganday ko'rinadi. chunki mensiz-shifokorsiz ushbu binolar qurilmay qolishi mumkin edi. 6. Agar mening qo'limda yozuvchi ajal olib keladigan xastalikdan shifo topsa-yu, ajoyib roman yozadigan bo'lsa, bu roman mening ham romanim hisoblanadi. 7. Shifokor – uning qo'lidan shifo topganlar qilayotgan ulug' ishlarning ko'zga ko'rinmaydigan ishtirokchisidir.

**Topshiriq. Quyidagi gaplarni o'qing, tarjima qiling. gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlariga e'tibor bering.**

**Odam sog'lom bo'lishi uchun nima qilishi kerak?**

-Odam sog'lom bo'lishi uchun nima qilishi kerak?	-Odam sog'lom bo'lishi uchun o'z vaqtida ovqatlanishi, to'g'ri dam olishi kerak.
-Yana nima qilishi kerak?	-Ertalab jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish kerak.
-Yana-chi?	-Shaxsiy gigienaga, tozalikka rioya qilishi kerak.
-Odam doim sog'lom bo'lishi uchun nimadan saqlanish kerak?	-Odam sog'lom bo'lishi uchun semizlikdan va juda ozib ketishdan saqlanishi kerak.
-Nima uchun asabiylashmaslik kerak?	-Chunki asabiylashish ko'p kasalliklarni keltirib chiqaradi.
-Demak, odam to'g'ri ovqatlansa, kayfiyati yaxshi bo'lsa, sport bilan shug'ullansa, yaxshi sharoitda mehnat qilsa kayfiyati yaxshi bo'ladi va odam sog'lom bo'ladi.	-Ha, albatta.

**Gaplarni ko'chiring va buyruq mazmuni qaysi shaxsga qaratilganini ayting.**

1.«Hovliga chiqma, bolalar ham chiqmasin», - dedi Shoikrom ko'zlari yonib. 2.Oyim ketimdan mashinaga kuzatib kelib: «Bobong bilan tog'angga ko'pdan-ko'p salom ayt. Boriboq xat yoz. Uch-to'rt kunda qaytgin. Yo'lda ehtiyot bo'!» - deb tayinladi. 3.Oz so'zla. ko'p tingla. 4.Hurmatli yo'lovchilar, chipta olishni unutmang. 5.Bugungi ishni ertaga qo'yma.

**Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling, buyruq mazmunini ayting.**

1.Не простудитесь бы вам. 2.Давайте дружить. 3.Бойся больше всего равнодушия. 4.Дорожите вековой культурой народа. 5.Давай же будем правдивыми и впредь во всем до конца.

**XAFAQON KASALLIGI  
(GIPERTONIYA)**

Xafaqon kasalligi aholi o'rtasida keng tarqalgan. Xafaqon kasalligi qon bosimi normadan ortiq bo'lgan kishilar orasida 70-80% ni tashkil etadi.

Xafaqon kasalligi – arterial bosimning ko'tarilishi bilan o'tadigan kasallikdir. Xafaqon kasalligining kelib chiqishiga irsiy moyillik bilan, ba'zi tashqi omillar ta'sirining birgalikda qo'shilib kelishi sabab bo'ladi. Har xil salbiy tashqi omillar ta'sirida bosh miyaning qo'zg'algan bo'lishi natijasida xafaqon kasalligi kelib chiqishi kuzatilgan.

Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti nomenklaturasi bo'yicha arterial bosim 140/90 mm simob ustunidan yuqori bo'lmaganda normal, 160/95 mm simob ustunigacha «tahdid soladigan», biroq hali gipertoniya emas deb hisoblanadi. Arterial bosimi bundan yuqori bo'lgan bemorlar gipertoniya kasalligiga chalingan hisoblanadilar. Xafaqon kasalligi uzoq vaqt davom etadi. Qon bosimining simob ustuni hisobida 180/100 – 200/120 mm va undan yuqori bo'lishi kuzatiladi. Tomirlarda qaytmas o'zgarishlar yuz beradi. Xafaqon kasalligi yurak, buyrak, bosh miya faoliyati izdan chiqishiga olib keladi.

Xafaqon kasalligi kechishi bo'yicha xavfsiz, sekin avj oladigan hamda tez avj oladigan bo'ladi. Kasallikning klinik manzarasi miya, yurak, buyrak tipida va aralash kechishi mumkin.

Kasallik boshlanishida qon bosimi yuqoriga ko'tarilib, tushib turadi. Bemor bosh og'rig'i, aylanishi, qulog'ida shovqin eshitilishi, ko'z oldida narsalar uchib turishi, tez charchash, holsizlik, yurakning bezovta urishidan shikoyat qiladi.

Xafaqonni davolash uchun bemorning turmush va mehnat sharoitini me'yoriga keltirish, uni tinchlantirish lozim. Ish jarayonida salbiy ta'sirlarni kamaytirish (silkinish, shovqin). tungi ishlardan ozod qilish lozim. Tamaki chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish qat'iy man qilinadi. Ko'p hollarda ovqatdagi osh tuzi miqdorini chegaralash tavsiya etiladi. Asab tizimini keskin qo'zg'atuvchi achchiq choy, kofe, o'tkir dorivorlar, surlangan mahsulotlar iste'mol qilish mumkin emas.

**Lug'at**

bosh miya – головной мозг  
nogiron – инвалид  
irsiy – генетический  
avj olmoq – прогрессировать


omil – фактор  
simob – ртуть  
surlangan – конченый

## Savol va topshiriqlar.

### 1. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.


«Nima nimadir?»

Xafaqon kasalligi




«Nimaga nimalar sabab bo'ladi?»

Xafaqon kasalligiga




«Nima nimaga bo'linadi?»

Xafaqon kasalligi  
kechishi bo'yicha




«Nimada nima bo'ladi?»

Xafaqon kasalligida



«Nimada nima qilish kerak?»

Xafaqonni davolash uchun



1. Xafaqon kasalligi qanday kelib chiqadi?
2. Arterial qon bosimi qanday bo'lgan odamlar gipertoniya kasalligiga chalingan hisoblanadi?
3. Xafaqonga chalingan bemorlar nimadan shikoyat qilishadi?
4. Xafaqonni davolashda nimalarga rioya qilish kerak?
5. "Gipertoniya" matnini qismlarga bo'lib chiqing. Har bir qismda asosiy mazmun tashuvchi gapni toping.
6. Matnni so'zlab bering.

## SOG'LOM MUHIT – SOG'LIQ GAROVI

Har birimiz ma'lum bir jamoada o'qiyamiz, ishlaymiz. Jamoamizning ahilligi, unda sog'lom muhitning mavjudligi shubhasiz sog'lig'imizga ta'sir qiladi. Keling, jamoada muhitning buzilishiga kim sababchi bo'lishi mumkinligini ko'rib chiqaylik. Namuna uchun bir nechta misollarni keltiramiz.

**I vaziyat.**

-Kecha koreys til markazida o'qigan ma'ruzamga uchinchi o'rin oldim.

**Mumkin bo'lgan reaksiyalar.**

**1-qiz:**

-Zo'r bo'libdiku, deydi, dugonasini quchoqlab o'pib qo'yadi.

**2-qiz:**

-O'zing oldingmi? Pulmi, biror narsami berishdimi? Hech narsa berishmasa, unda nega qatnashding?

**3-qiz:**

«Olgan bo'lsang olibsanda, uchinchi o'rin ham o'rin bo'libdimi?»

**II vaziyat.**

-Bilasizmi, oyim va dadam Samarqandga ketishdi.

**Mumkin bo'lgan reaksiyalar**

**1-qiz:**

-Juda yaxshi bo'libdi. Havo almashtirishadi. Tarixiy yodgorliklarni ham ko'rib kelishadi.

**2-qiz:**

-Samarqandga! Voy, men Amerikagami deb o'yabman.

**3-qiz:**

Labini burib qo'ydi.

**III vaziyat.**

Men bugun darsdan javob olmoqchiman. Buvim kasal.

**Mumkin bo'lgan reaksiyalar**

**1-qiz:**

-Nima bo'ldi? Og'ir emasmi ishqilib?

**2-qiz:**

Qari odam kasal bo'ladi-da. Nima boshqa qaraydigan odamingiz yo'qmi? O'zini ko'rsatishini-chi? Buvisini undan boshqa odam qaramasmish. Bahonasini-chi!

**3-qiz:**

Indamay ensasini qotirdi.

## Savol va topshiriqlar.

1. O'z jamoangiz, guruhingizdagi muhitni sog'lom deya olasizmi?
2. Muhit sog'lom bo'lishi uchun nima qilish kerak?
3. Polyak yozuvchisi Bruno Yassenskiyning quyidagi so'zini qanday tushunasiz: «Dushmanlaringdan qo'rqma – eng yomon holda ular seni o'ldirishlari mumkin. Do'stlaringdan qo'rqma – eng yomon holda ular seni

sotishlari mumkin. Loqaydlardan qo'rq – ularning indamasliklari oqibatida yer yuzida sotqinlik va qotilliklar sodir bo'ladi».

## 24 –DARS

Gap bo'laklari. Bosh bo'laklar (Члены предложения. Главные члены)	
<p>Ma'lum savolga javob beruvchi gapdagi so'z yoki so'z birikmasiga <b>gap bo'lagi</b> deyiladi. Gap bo'laklari bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga bo'linadi. Gapning bosh bo'laklari bu ega va kesimdir.</p> <p><b>Ega</b> – predmetni bildirib, <i>kim? nima?</i> savoliga javob beradi. Ega gapda bosh kelishikda keladi. Ega ot, olmosh, sifat, son, sifatdosh bilan ifodalanishi mumkin.</p> <p><b>Kesim</b> – grammatik jihatdan egaga bog'liq bo'lgan gap bo'lagi. Kesim <i>nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi?</i> savollariga javob beradi. Ot, sifat, son va olmosh bilan ifodalagan kesimga – ot kesim deyiladi. Masalan: <b>O'zbekistonning poytaxti – Toshkent.</b> Fe'l bilan ifodalangan kesim fe'l kesim deyiladi. Masalan: <b>Men institutda o'qiyapman.</b></p>	<p>Слово или сочетание слов в предложении, отвечающее на определенный вопрос называется членом предложения.</p> <p>Члены предложения делятся на главные и второстепенные. Главными членами предложения являются подлежащее и сказуемое.</p> <p><b>Подлежащее</b> – это член предложения, обозначающий предмет и отвечающий на вопросы кто? что? Подлежащее в предложении выражается именительным падежом. Подлежащее может выражаться существительным, местоимением, прилагательным, числительным, причастием.</p> <p><b>Сказуемое</b> – главный член предложения, грамматически зависящий от подлежащего. Сказуемое отвечает на вопросы что сделал? что делает? что будет делать? Сказуемое, выраженное существительным, прилагательным, числительным и местоимением, называется именным сказуемым.</p> <p>Сказуемое, выраженное глаголом, называется глагольным сказуемым.</p>

**Mashq. Quyidagi gaplarning egasini toping, eganing qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting.**

1. Derazamning oldida bir tup

O'rik oppoq bo'lib gulladi. (H. Olimjon)

2. Sen o'zingni maqtama, seni birov maqtasin. 3. Majlisga bir kishi kelmadi.

4. Uchalasi ham bir joyga ketdi. 5. O'qish bu ulkan zafarlar quchishdir. 6. Hech kim uning kasallik sababini bilmas edi. 7. Yigit kampirning donoligiga qoyil qolib ofarin aytibdi. 8. Men oq sochlarimni qora zulmatga alishmayman.

9. Uchinchi masofani bir zumda bosib o'tdi. 10. Yaxshilar ko'paysin, yomonlar kamaysin.

**Mashq. Quyidagi gaplardagi kesimlar qaysi so'z turkumi orqali ifodalangan.**

1. O'zbekistonning poytaxti – Toshkent. 2. Tanlovda ToshPTI talabasi Maqsudova Charos g'olib chiqdi. 3. Toshkentda pediatr-shifokorlarning ilmiy-anjumani bo'lib o'tdi. 4. Nafsnii tiyish va dam olish – barcha dorilarning eng yaxshisidir. 5. Taomning eng yaxshi qaylasi – ochlik (Suqrot). 6. Bahorda qiradirlar, tog'lar ko'm-ko'k. 7. Ikki karra ikki – to'rt. 8. Shirinlik – tishning dushmani, achchiq – me'daning do'stidir. 9. Choy tanin moddasiga boy. 10. Xalq tibbiyotida shaftoli guli surgi dori sifatida ishlatiladi.

**Mashq. Quyida berilgan gaplardagi ega va kesimlarni toping.**

1. Abu Ali ibn Sino shaftoli mevasini ishtaha ochish va ichni yumshatish uchun ishlatgan. 2. Anjir tarkibida qand moddasi ko'p bo'lganligidan, u qandli diabet kasalligi bor bemorlarga zararlidir. 3. Odamlarning haqiqiy xarakteri kulganlaridagina chinakam namoyon bo'ladi. 4. Kulgining kuchi shu qadar zo'rki, unga jahondagi manman degan kimsalar ham bo'ysunadi. 5. Tabassum – tinchlikning kaliti, yaxshilikning chirog'idir. 6. Bemorga cheksiz muhabbat shifokorning birinchi burchidir. 7. Haqiqiy tabib o'zining qadr-qimmatini saqlagan holda davolaydi. 8. Davolash – buzilgan organizmni tiklash maqsadida uni sun'iy ravishda idora etish demakdir. 9. Kasalni davolashda shifokor faqat tabiatga yordam berishi kerak, chunki bemorni ko'pincha tabiatning o'zi davolaydi. 10. Uning ma'nosini arabchaga tarjima qilib, anglatdim.

**Oilaviy poliklinika** o'z mijozlariga muntazam, samarali va hamma uchun imkon darajasidagi yordamni beradi. U aholi kasalliklarining oldini olishda, sog'liqni saqlash tizimining ishini yaxshilashda samarali faoliyat ko'rsatadi. Oilaviy poliklinika oila modelida chaqaloqlardan qariyalargacha bo'lgan aholi qatlamiga xizmat ko'rsatadi.

## OILAVIY HAMSHIRA

Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishda oilaviy hamshiraning vazifasi ma'suliyatlidir. Hamshira oilaning faol hamkori sifatida ish olib borishi lozim. Hamshira har bir oilaning turmush tarzi bilan yaxshi tanish bo'lishi kerak. U oilaga yaqinlashish natijasida kutilishi mumkin bo'lgan muammo, biror kasallik yoki uning oqibatlarining oldini olishi kerak. Hamshira «salomatlik» qirg'og'iga eltuvchi bir ko'priq vazifasini o'taydi. Oila bilan hamkorlik oila a'zolari sog'lig'ini asrashda muhim ahamiyatga ega. Oila hamshiralari quyidagilar uchun mas'uldirlar:

- Xonadonlardagi bemorlar doim hamshira nazoratida bo'lishi lozim.

- Kasallikning oldini olish va kasallik o'tib ketmasidan erta tashxis qo'yish kerak.
- Shifokor va bemor o'rtasidagi bog'lanish uzilmasligida hamshira asosiy vosita bo'lishi lozim.
- Hamshira aholi o'rtasida o'z mavqei ko'tarilishiga erishmog'i kerak.
- Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzining doimiy targ'ibotchisi bo'lishi lozim.

### Lug'at

tibbiy xizmat – медицинская служба  
oilaviy hamshira – семейная медсестра  
mas'uliyatli – ответственный  
yaqinlashmoq – приближаться


eltmoq – относить  
muammo – проблема  
qirg'oq – берег  
ko'prik – мост

### Savol va topshiriqlar.

1. Matnni o'qing va tarjima qiling.
2. «Oilaviy hamshira salomatlik qirg'og'iga eltuvchi bir ko'prik vazifasini o'taydi» degan jumlaning qanday tushunasiz?
3. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.

«Kim kim sifatida ish olib boradi?»

Oilaviy hamshira



«Kim nima uchun mas'ul?»

Oilaviy hamshira



### HAMSHIRALAR ORASIDA MULOQOT

**Bosh hamshiraning anesteziolog hamshira bilan muloqoti:** Menga operatsiya qilishda ishlatiladigan narkotik moddalarning nomini ayting va shulardan qaysi birini hozir ishlatayapsiz?

**Anesteziolog hamshira:** Narkotik analgetiklarga morfin gidrokslorid, omnopon, dipidolar, promedol, fentanil va boshqa og'riq qoldiruvchi moddalar kiradi. Hozir operatsiya-anesteziyalarda promedol va fentanil ishlatyapmiz.

**Bosh hamshira:** Anesteziolog stolida yordam ko'rsatish uchun qanday vositalar bo'lishi kerak?

**Hamshira:** Anesteziolog stolida laringoskop, inkubatsion trubkalar, rezina naychalar, dori-darmonlar uchun shpritslar bo'lishi kerak.

**Bosh hamshira:** Operatsiyaga tayyorgarlik ko'rilganda nimalarga ko'proq e'tibor berish kerak?

**Hamshira:** Kislородli balonlarni va reduktorni birinchi navbatda tekshirish zarur. Narkoz uchun barcha dori-darmonlarni tayyorlash kerak.

**Bosh hamshira:** Biokimyoviy analiz uchun qon qayerdan olinadi?

**Hamshira:** Biokimyoviy analizlar qilish uchun qon vena tomiridan olinadi.

**Bosh hamshira:** Laboratoriyada mikroblar florasini aniqlash va antibiotiklarga nisbatan ta'sirchanlikni sinash qachon o'tkaziladi?

**Hamshira:** Bemor qabulxonaga kelishi bilan kasallik varaqasi ochilganda ushbu laboratoriya aniqlashlari o'tkazilsa davolash samara beradi.

### 25 –DARS

#### Gapning ikkinchi darajali bo'laklari.

#### Aniqlovchi. To'ldiruvchi

(Второстепенные члены предложения.)

Определение. Дополнение

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari bosh bo'laklarning ma'nosini to'ldirib keladi.

**Aniqlovchi** – gapda predmetning belgisini bildirib keladi. Aniqlovchi qanday? qaysi? kimning? nimaning? qancha? savollariga javob bo'ladi. Aniqlovchi har doim aniqlanuvchi so'zdan oldin turadi. Masalan: *Bizning hovlimizda chiroyli gullar bor.*

**To'ldiruvchi** – ikkinchi darajali bo'lak bo'lib, harakat yo'naltirilgan ob'yektni bildiradi. To'ldiruvchi kinga? nimaga? kimni? nimani? kimda? nimada? kimdan? nimadan? kim bilan? nima bilan? savollariga javob beradi. To'ldiruvchi vositali va vositasiz bo'ladi.

Второстепенные члены предложения служат для пояснения главных членов предложения.

**Определение** – второстепенный член предложения, указывающий на признак предмета. Определение отвечает на вопросы какой? чей? чья? чьё? сколько? Определение всегда стоит перед определяемым словом.

**Дополнение** – второстепенный член предложения, обозначающий предмет, на который направлено действие. Дополнение отвечает на вопросы кому? чему? кого? чего? у чего? от кого? от чего? с кем? с чем? Дополнение бывает прямое и косвенное.

<p><b>Vositasiz to'ldiruvchi</b> – ish-harakat to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan predmetni bildiradi. U tushum kelishigida bo'ladi. Masalan: <u>U kitobni o'qidi.</u></p> <p><b>Vositali to'ldiruvchi</b> – ish-harakat predmetga bvosita yo'naltirilganini bildiradi. Vositali to'ldiruvchi jo'nalish, chiqish va o'rin-payt kelishigida bo'ladi. Masalan: <u>Do'stimda yaxshi kitob bor.</u></p>	<p><b>Прямое дополнение</b> обозначает предмет, на который непосредственно направлено действие и стоит в форме винительного падежа.</p> <p><b>Косвенное дополнение</b> обозначает объект, на который действие направлено косвенно, косвенное дополнение может быть выражено дательным, исходным и местным падежом.</p>
--	--

## DORIVOR O'SIMLIKLAR

Dorivor o'simliklar davolash yoki profilaktika maqsadlarida tibbiyot yoki veterinariyada qo'llaniladigan o'simliklar guruhi. Dorivor o'simliklarning shifobaxshligi – ular tarkibida ma'lum ta'sir qiluvchi kimyoviy moddalar: alkaloidlar, flavonoidlar, glikozidlar, vitaminlar, oshlovchi moddalar va boshqalar borligidadir. Odatda o'simlikning ta'sir qiluvchi moddalar ko'p to'plangan qismlari ishlatiladi. Dorivor o'simliklar yig'malar, damlama, qaynatma, kukun holda qo'llaniladi. Turli xil dorilar tayyorlash uchun xom ashyo hisoblangan dorivor o'simliklar alohida guruhni tashkil etadi. Dorilar, asosan, yovvoyi va qisman ekiladigan o'simliklardan tayyorlanadi.

Mamlakatimizda tayyorlanadigan barcha shifobaxsh vositalarning 40 % idan ko'pi o'simliklardan olinadi, ular sintetik dorilarga nisbatan bezarar va qo'shimcha ta'sirga ega emas. O'zbekistonda yovvoyi holda o'sadigan o'simlik 4148 turi mavjud. Shundan 577 turi shifobaxsh hisoblanadi. Lekin dorivor o'simliklardan foydalanishda shifokor maslahatiga rioya qilish kerak.

### Lug'at

yig'ma – сбор  
damlama – настойка  
bezarar – безвредный


qaynatma – отвар  
yovvoyi – дикий

### Savol va topshiriqlar.

1. Dorivor o'simliklar qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
2. Dorivor o'simliklardan foydalanishda shifokor maslahati zarurmi?
3. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing


### «Nimalar bu nima?»

Dorivor o'simliklar




### «Nimalar tarkibiga nimalar kiradi?»

Dorivor o'simliklar tarkibiga




### «Nimalar qanday holda qo'llaniladi?»

Dorivor o'simliklar



### «Nima nimadan farqli?»

Dorivor o'simliklar sintetik dorilardan farqli



**Mashq. Berilgan gaplardagi vositasiz to'ldiruvchilarni toping va tagiga chizing.**

1. Ko'm-ko'k o'tlar ustidagi shudring quyosh nurida jimirlashib, ko'zni qamashtiradi. 2. Bolalarni sport murabbiyi iliq kutib oldi. 3. Karim bo'lib o'tgan voqeani to'liq gapirib berdi. 4. To'yga barcha kursdoshlarimni taklif qildim. 4. Ona o'z bolasini allalab uxlatardi. 5. Odamlar Navro'z bayramini xursandchilik bilan kutib oldilar. 6. Birinchi kurs talabalarini muzeyga olib borishdi. 7. Limonchilik shirkat xo'jaligi olingan rejani ortig'i bilan bajardi.

**Mashq. Vositali to'ldiruvchilarni toping.**

1. Yozuvchi O'. Umarbekov bilan qiziqarli uchrashuv bo'ldi. 2. Ra'noda yangi chiqqan roman bor. 3. Leksiya insonning ichki kasalliklari haqida bo'ldi. 4. Dugonam bilan telefonda gaplashdim. 5. Men bu ko'ylakni sizga oldim. 6. Yomg'ir yog'ayotganda Nargiza bilar Anvar kirib keldi. Anjumanda talabalardan biri so'zga chiqdi. 7. Navoiy har kuni kambag'allar, yetim-yesirlar uchun osh berar edi.



**Mashq. Quyidagi gaplardagi sifatlovchi-aniqlovchilarni toping.**

1. Zakovat maydoniga qora quti olib kirilsin. 2. Eshik ochilib, oppoq-soqolli bir nuroniy kirib keldi. 3. Uzoq-yaqin yerlardan kelgan talabalar birlari bilan do'stlashib ketishdi. 4. Ana shu ajoyib gullarni unga turmush o'rtog'i sovg'a qilgan edi. 5. Uning moviy ko'zlaridan xursandligi ko'rinib turardi. 6. Ariq bo'yidagi qari majnuntol suvga egilib turardi. 7. Bahorda esgan mayin shamol dilga huzur bag'ishlaydi. 8. Qo'shnimizning qizi uzun sochli bo'lib, u hammaga yoqadi.

**Mashq. Quyidagi gaplardagi belgisiz va belgili qaratqich aniqlovchilarni aniqlang.**

1. Toshkentning markazida tarix muzeyi joylashgan. 2. Yer shari o'z o'qi anrofida bir kecha-kunduzda bir marta aylanib chiqadi. 3. So'raganning bir yuzi qora, bermaganning ikki yuzi qora. 4. Koreya davlatining poytaxti Seul shahridir. 5. Navro'z bayramining tomoshalari butun dunyoga olib ko'rsatildi. 6. Talabalarning a'lochilariga mukofotlar topshirildi. 7. Namangan gullari xilma-xilligi bilan butun O'zbekistonga mashhur.

### GULXAYRI (АЛТЕЙ ЛЕКАРСТВЕННЫЙ)

Gulxayri – g'ozadoshlarga mansub bir yillik va ko'p yillik o'tlar turkumiga mansub. Gulxayrining bo'yi 60-80 sm bo'lishi mumkin. O'simlik iyun-avgustda gullab, iyul-sentabrda urug'laydi. Uning ildizi tarkibida 35 % gacha shilliq moddalar, 37 % gacha kraxmal, 16 % ga yaqin qand, asparagin, betain, pektin, yog', 4,9 % atrofida mineral tuzlar mavjud. Abu Ali ibn Sino gulxayri ildizidan, bargidan va urug'idan tayyorlangan damlama bilan yo'tal, qon tupurish, zotiljam va buyrak kasalliklarini davolagan. Buyrak tabib gulxayri ildizidan tayyorlangan dori-darmonlarni ko'krakni yumshatuvchi, balg'am ko'chiruvchi omil sifatida tavsiya etgan.

Kelsang o'tlar sayliga,  
Qarab qo'y, gulxayriga.  
Gullarim nafis, mayin,  
Shifoligim aytayin.  
Yoqtirmayman yolg'onni,  
Pishiraman balg'amni.  
Shirin altey dorilar,  
Asli mendan olinar.

#### Lug'at

mansub – относящийся  
zotiljam – пневмония  
urug'lamoc – осеменяться

**Topshiriqlar.**

1. Matndagi fikrni bitta gap bilan ifodalang.
2. Matndagi kasr sonini so'z bilan ifodalang.

### XALQ TABOBATI

Insoniyat hayoti o'simliklar olami bilan uzviy bog'langan. Insoniyat qadim-qadimdan o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlaridan bahramand bo'lib kelmoqda. Ibtidoiy davrlarda odamlar o'zlarining dardlariga davo izlab, avvalo o'simliklar, ma'danlar hamda hayvonot mahsulotlaridan foydalanardilar.

Qadim zamonlarda o'simliklarning shifobaxsh tomonlarini aniqlashda hayvonlar ustidan olib borilgan kuzatishlar ham ma'lum darajada samara bergan. Qadimiy arab qo'lyozmalarida bayon etilishicha, habash cho'ponlari favqulodda qiziq mo'jizaning guvohi bo'lganlar: ular qahva butasini yegan echkilarning g'ayri tabiiy xatti-harakatlarini ko'rib ajablanganlar. O'simlikni yegan echkilar o'zlarini juda tetik his qilgan, sakrab o'ynoqlar, charchoqni bilmas edilar. Shundan so'ng qahva o'simligidan kishilarning o'zlari ham bahramand bo'la boshladilar. Hozirda ham qahva inson kayfiyatini yaxshilovchi, yurak faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi ichimlik sifatida iste'mol etiladi.

Qadimiy buryat ovchilari jarohatlangan kiyiklar qizil chinnigulni yeyishga oshiqqanligini sezganlar. Ma'lum bo'lishicha, bu o'simlikda qon to'xtatuvchi modda mavjud ekan. Gohida qo'ylar juda achchiq bo'lgan ermonni ishtaha bilan yeyishayotganining guvohi bo'lishingiz mumkin. Buni zamonaviy meditsina ermonda kuchli gijja haydash xususiyati mavjudligi bilan tushuntiradi. Shu boisdan ham qo'ylar ermonni yeb, o'z a'zolarini gijja-gelmintlardan tozalab turar ekanlar. Odamlar esa qo'ylarni kuzatish bilan ermonning bu xislatidan ogoh bo'lganlar.

Ming yillar davomida shunday kuzatuv va hayotiy sinovlar avloddan-avlodga o'tib, o'simliklar haqidagi ma'lumotlar ko'payib, mukammalashib, sayqal topib bordi. Bular esa o'z navbatida xalq tabobatining tarkib topishiga sharoit yaratdi. Hozir xalq tibbiyotida qo'llangan tadbirlar zamonaviy tibbiyot tomonidan inobatga olinmoqda va ularning ayrimlaridan tadbirkorona foydalanilmoqda.

#### Lug'at

insoniyat – человечество,  
ma'dan – ископаемые  
mo'jiza – чудо  
guvoh – свидетель  
gijja – гинсты

tetik – бодрый  
qahva – кофе  
oshiqmoq – торопиться  
achchiq – горький


## Savol va topshiriqlar.

1. Matn mazmunini soʻzlab bering va tarjima qiling.


2. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar boʻyicha gaplar tuzing.

«Nimani kuzatish qanday samara bergan?»

Habash choʻponlari  
echkilarni kuzatishi




Qadimda buryat ovchilar  
kiyiklarni kuzatishi



«Nima nimaga sharoit yaratgan?»

Xalq tabobatining  
tarkib topishiga



3. Xalq tabobati haqida nimalarni bilasiz?

4. Shamollashda xalq tabobatining qaysi usullaridan foydalanib tuzalish mumkin?

Murch - xalq tabobatida shamollashda, yoʻtalganda, bronxial astmaga chalinganda, koʻkrak ogʻriganda ishlatiladi va foyda qiladi. Shamollash boshlanayotganda terlatuvchi va peshob haydovchi sifatida qoʻllaniladi.

Tuxum sarigʻi xom yutilsa ilon chaqqanga davo boʻladi, ovozni ochadi, ichakning achishishini bartaraf qiladi. Biroq uni ortiqcha yeyish meʼdaga zarar qiladi, buyrakda tosh, terida oq va sepkilli dogʻlar paydo qiladi.

Topshiriq. Yuqoridagi matnni oʻqing. Nima nimaga foyda boʻladi? Nima nimani davolaydi? Konstruksiyalari boʻyicha savollarga javob bering.

### Hol (Обстоятельство)

Hol ish-harakatning bajarilish vaqti, maqsadi va miqdorini bildiradi.

Hol quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. Ravish holi.
2. Oʻrin holi.
3. Payt holi.
4. Maqsad holi.
5. Sabab holi.
6. Daraja-miqdor holi

Ravish holi ish-harakatning qay holatda bajarilganini bildiradi. Ravish holi qanday? qanday qilib? savollariga javob beradi. Masalan: *Darsni diqqat bilan eshit.*

Oʻrin holi ish-harakatning qayerda bajarilayotganini bildiradi. Oʻrin holi qayerda? qayerdan? qayerga? savollariga javob beradi. Masalan: *Instituddan keldim.*

Payt holi qachon? qachongacha? qachondan beri? savollariga javob beradi. *Yaqinda yozgi taʼtil boshlanadi.*

Maqsad holi ish-harakatning bajarilish maqsadini bildiradi va nima uchun? nima maqsadda? nimaga? savollariga javob beradi. Masalan: *Men imtihon topshirish uchun keldim.*

Sabab holi ish harakatning bajarilish sababini bildiradi. Sabab holi nimaga? nima uchun? nima sababdan? savollariga javob beradi. Masalan: *Talaba kasalligi sababli darsga kelmadi.*

Miqdor holi ish-harakatning bajarilish miqdorini bildiradi, qancha? necha marta? qanchalik? qanchalab? savollariga javob beradi. Masalan: *Biz bu kunni koʻp kutdik.*

Обстоятельство обозначает образ, место, время, цель и меру совершения действия.

Различаются следующие разряды обстоятельств:

1. Обстоятельство образа действия.
2. Обстоятельство места.
3. Обстоятельство времени.
4. Обстоятельство цели.
5. Обстоятельство причины.
6. Обстоятельство меры и степени.

Обстоятельство образа действия обозначает, как совершается действие. Обстоятельство образа действия отвечает на вопросы как? каким образом?

Обстоятельство места обозначает место, где происходит действие. Обстоятельство места отвечает на вопросы где? откуда? куда?

Обстоятельство времени указывает на время совершения действия. Обстоятельство времени отвечает на вопросы когда? до каких пор?

Обстоятельство цели указывает на цель выполнения действия и отвечает на вопросы почему? с какой целью?

Обстоятельство причины указывает на причину совершения действия. Обстоятельство причины отвечает на вопросы почему? по какой причине?

Обстоятельство меры и степени указывает на меру совершения действия и отвечает на вопросы сколько? сколько раз? насколько? по сколько?

**Mashq. Keltirilgan misollardagi payt holi va o'rin hollarini topib, qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting.**

1. Erta turganga soz havo, kech turganga ne ravo. 2. Bu yil O'zbekiston mustaqil bo'lganiga 16 yil to'ldi. 3. Koreyalik bir guruh shifokorlar institutimizga tashrif buyurdilar. 4. Bahorda hamma qirga lola sayliga boradi. 5. Institut hovlisida «Navro'z» bayramiga bag'ishlangan konsert bo'ldi. 6. Keng dalalarda paxtalar chaman bo'lib ochilib yotibdi. 7. Kecha o'zbek tilidan imtihon bo'ldi. 8. Yaqinda Toshkentda pediatriklarning anjumani bo'ladi.

**Mashq. Quyidagi misollardagi maqsad holi, sabab holi va miqdor hollarni toping va ularga so'roq bering.**

1. Nazira shifkor bo'lish maqsadida a'lo baholarga o'qiyapti. 2. Ulug'bek dam olish uchun «O'zbekiston» oromgohiga yo'llanma oldi. 3. Men sevinganimdan terimga sig'may ertalab Xadra tomonga yugurib ketdim. 4. Oz so'zlasang ham soz so'zla. 5. U majlisga bir oz kechikib keldi. 6. Yakshanba kuni bo'lgani uchun ko'chada odamlar kam edi. 7. O'n marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi. 8. Dugonamni tug'ilgan kuni bilan tabriklash uchun uyiga bordim.

### SHARQ MUTAFFAKIRLARI XAZINASIDAN

Kishilik tarixi yaratgan ma'naviy boyliklar bisotida Sharq mutaffakirlari pand-nasihati va o'giti faxrli o'rin egallaydi. Asrlar, zamonlar kechib me'morlar bino etgan obidalar, fan, san'at va adabiyot boyliklari boqiy qoladi, avlodlarga hamroh bo'ladi. Mutaffakirlar pand-nasihati ham ana shunday umri boqiy ma'naviy boylikdir, chunki ularning pand-nasihati hayotdan, hayot tajribasi va ezgu niyat-orzudan tug'ilgan. Ulug' donishmandlarning pand-nasihati, o'giti zamirida insonparvarlik, xalqparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyasi yotadi. Mehnatga, el-yurtga muhabbat, poklik, halollik, to'g'rilik, rostgo'ylik, saxiylik, mehr-shafqat, xushmuomalalik kabi ezgu insoniy fazilat va xislatlar targ'ib qilinadi. Dilozorlik, xudbinlik, johillik, yalqovlik va tanballik, egrilik, baxillik, shafqatsizlik, badxulqlik kabi salbiy xislatlar qoralanadi, fosh etiladi. Shuning uchun ham donishmandlarning ko'p pand-nasihat va o'gitlari asrlar kechib yashab qoladi, ta'lim-tarbiyaning muhim omili sifatida yangi umr ko'radi.

Xorazmiy va Forobiy, Ibn Sino va Beruniy, Rudakiy va Firdavsiy, Sa'diy va Hofiz, Nizomiy va Hoqoniy, Jomiy va Hiloliy, Navoiy va Bobur kabi zotlar jahon madaniyatining ulug' arboblardir. Bu arboblarning fan, san'at, adabiyot bilan birga, axloq-odob masalalariga katta e'tibor berib, ibratli hikoya va rivoyat, masal va latifa, hikmat va matallar yaratganlar, xalq ijodiyotidan foydalanganlar.

\*\*\*

Inson uchun birinchi baxt – uning sog'lig'i, ikkinchisi – go'zallikdir.  
(Aflotun)

\*\*\*

Sog'lig'u, omonlik ham farovonlik,  
Yaxshi suhbatdosh do'st, dilga farog'at.

(Abdurahmon Jomiy)

\*\*\*

Sog'liq-oltindan qimmat. (Shekspir).

\*\*\*

Va lekin tibbu hikmat ham erur xo'b,  
Ki sihatdur kishi jismida matlub. (A.Navoiy)

\*\*\*

Sog'lig'ing qadri bilgin,  
Xasta bo'lmasdan burun. (Maxtumquli)

\*\*\*

Salomatligini ehtiyot qilib yurgan odam o'ziga foydaligini har qanday shifokordan ko'ra yaxshiroq biladi. (Suqrot)

**Topshiriq.**

**Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.**

«Nima nimadan iborat?»

Sharq mutafakkirlari xazinasini

«Nimada nima targ'ib qilinadi?»

Ulug' donishmandlarning pand-nasihatlarida

«Nimada nima fosh etiladi?»

Ulug' donishmandlar o'g'itlarida

### IMOM AL-BUXORIY (810-870)

Imom al-Buxoriy Buxoro shahrida tavallud topgan. Uning otasi Ismoil o'z davrining ilmi odamlaridan bo'lgan. Ammo yoshligidayoq otasi vafot etib, onasi tarbiyasida o'sgan. U yoshligidan aql-idrokli, o'tkir zehni va ma'rifatga havasi kuchli bo'lib, turli ilm-fanlarni zo'r qiziqish bilan egallaydi. Manbalarda ko'rsatilishicha, u o'n yoshidan boshlab o'z yurtidagi turli rivoyatchilardan eshitgan hadislarini yodlagan. Ustozi Shayx Dohiliy bilan hadis rivoyatchilari haqidagi qizg'in bahsda qatnashgan. O'n olti yashar Al-Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Hijozda olti yil yashadi. Imom al-Buxoriy hayotining ko'p qismi xorijiy ellarda, musofirchilikda o'tadi. Bu haqda o'zi: «Misr, Shom, Bobilga ikki marta, Basraga to'rt marta borganman. Hijozda olti yil yashaganman, Bag'dod va Kufa shaharlariga necha marta borganim hisobini bilmayman», degan. U safar chog'ida ham, bir shaharda muqim turganda ham ilmni oshirish borasida tinimsiz ishlar, to'plagan hadislarini oqqa ko'chirar edi. Muallifning yozishicha, Bag'dodda istiqomat qilgan paytda ko'pincha Oy nurida ijod qilib, qorong'i kechalarda sham yorug'ida kitob yozar ekan.

Imom al-Buxoriy o'zining go'zal xulq-atvori, odamoxunligi, zehni o'tkirligi, beqiyos saxovatligi bilan boshqalardan ajralib turgan. Manbalarda al-Buxoriyning 600 mingga yaqin hadisni yod bilgani qayd qilingan.

Imom al-Buxoriy xorijdan qaytgach, o'z Vatani Buxoroda ko'plab shogirdlar va ulamolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg'ul bo'ladi.

Imom al-Buxoriy avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo'lib, u yozgan asarlarning soni yigirmatadan ortiqdir. Buyuk allomaning eng muhim asari, shubhasiz, «Al-jome' as-sahih»dir.

Al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarining soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo'lib, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat.

1994-yilda allomaning 1200 yillik yubileyi nishonlangan edi.

Allomaning Xartang qishlog'ida joylashgan salobatli maqbarasi eng obod va ko'rkam qadamjolardan biri, tabarruk ziyoratgoh sifatida mashhurdir.

### Lug'at

tavallud topmoq – родиться  
yoshlik – молодость  
odamoxunlik – человеколюбие  
oqqa ko'chirmoq – переписывать  
takrorlanmoq – повторяться

qorong'i – темный  
o'tkir – острый  
safar – путешествие  
yod bilmoq – знать наизусть

### Savol va topshiriqlar.

1. Imom al-Buxoriy kim bo'lgan?
2. U yoshligidan nimalarga qiziqqan?
3. Al-Buxoriy qaysi mamlakatlarda, shaharlarda bo'lgan?
4. Matnni reja asosida so'zlab bering.

### 27-DARS

Gapning uyushiq bo'laklari (Однородные члены предложения)	
Bir xil gap bo'lagi bo'lgan va bir xil savolga javob beradigan so'zlar <u>gapning uyushiq bo'laklari</u> deyiladi. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklar uyushib kelishi mumkin. Masalan: <u>Bozorda olma, uzum, shaftoli bor.</u> <u>Bog'da oq, qizil, sariq gullar bor.</u>	Однородными членами предложения называются такие члены предложения, которые выполняют одинаковые синтаксические функции, отвечают на один и тот же вопрос. Однородными могут быть главные и второстепенные члены предложения.
Undalma (Обращение)	
So'zlovchining nutqi qaratilgan so'z <u>undalma</u> deyiladi. Undalma so'z boshida, o'rtasida va oxirida bo'lishi mumkin. Masalan: <i>Akmal, eshikni yop!</i> Undalma vergul bilan ajratiladi.	Обращением называется слово, которое называет того, к кому обращена речь. Обращение может находиться в начале, в середине и в конце предложения. Обращение выделяется запятыми.
Kirish so'z va birikmalar	

(Вводные слова и сочетания)

Kirish so'z va birikmalar gap bo'lagi bo'lmaydi, ular bildirilayotgan fikrga so'zlovchining munosabatini bildiradi.

Kirish so'z va birikmalar quyidagi ma'nolarni bildirishi mumkin:

1. Fikrning manbasi: menimcha, sizningcha, uningcha.

2. Fikr ketma-ketligini: birinchidan, ikkinchidan.

3. Fikrni bildirish uchun: shunday qilib, xullas, qisqasi.

4. Fikrga ishonch: albatta, shubhasiz.

5. So'zlovchining fikrga hissiyoti: baxtimizga, baxtga qarshi.

Вводными называются такие слова и сочетания слов, которые не являются членами предложения и служат для выражения отношения говорящего к высказываемой мысли.

Вводные слова могут указывать:

1. На источник высказывания: по-моему, по-вашему, по-его словам.

2. На последовательность мысли: во-первых, во-вторых, прежде, следовательно.

3. На способ выражения мысли: так сказать, одним словом, короче говоря.

4. Уверенность: конечно, разумеется.

5. Чувства, выражаемые говорящими: к счастью, к сожалению.

**Mashq. Undalmalarni toping. Tinish belgilarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.**

1. Qadrli mehmonlar, sizlarni Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining 35 yilligi bilan tabriklaymiz. 2. Talabalar ertaga hamma shanbalikka. 3. Toshkentim – go'zalsan, mehribon jonajon. 4. Ona yurtim O'zbekiston oltin to'ying muborak. 5. Do'stim rahmat sizga yaxshi maslahat berdingiz. 6. Bitiruvchilar sizning kelajagingiz porloq bo'lishiga ishonaman. 7. Dugonajon menga bergan kitoblaringiz juda qiziq ekan. 8. O'g'lim Vatanga sodiq yigit bo'lg'in.

**Mashq. Gaplarni ko'chiring. Qaysi gap bo'laklari uyushib kelganligini toping va rus tiliga tarjima qiling.**

1. Faqat uning rangi har xil: oq, qora, ko'kintir. 2. Sadarayhonlarning, atirgullarning hidi havoda anqirdi. 3. Xalil, Karim, Salim bir mahallada yashashadi. 4. Ular bir sinfda o'qishadi, birga dars tayyorlashadi, birga o'ynashadi. 5. Burgutlar, kalxatlar, lochinlar ilonga o'ch bo'lishadi. 6. Alijon qafaslardagi rangdor to'tini, bulbulni, maynalarni tomosha qildi. 7. U toza, chiroyli, bexato yozishga kirishadi.

**Mashq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling, uyushiq bo'laklarning tagiga chizing.**

1. В нашем институте учатся представители разных национальностей: русские, узбеки, казахи, таджики, туркмены. 2. В человеке все должно быть прекрасно: и лицо, и одежда, и душа, и мысли. 3. Трамваи, троллейбусы, автобусы, метро- все это общественный транспорт. 4. В самых различных местах: в лесах, в горах, в степях и на побережье морей-есть заповедники. 5. Наблюдение за животным и растительным миром ведутся учеными круглый год: и зимой, и летом, и весной, и осенью. 6. Работали дружно, без перерывов, с песнями, с шутками.

**Mashq. Kerakli tinish belgilarini qo'yib gaplarni ko'chiring. Tarjima qiling.**

1. Земля дает золото серебро медь железо уголь нефть
2. Со всех сторон слышались смех песни веселье
3. Купи тетради бумагу перо резинку
4. В комнате смотрелось уютно чисто светло
5. Колхозники выращивают пшеницу рожь кукурузу овес рис чай картофель свеклу.

**Topshiriq. Quyidagi matnni o'qib, rus tiliga tarjima qiling.**

## USTOZ JAZOSI

Har bir kasalga nihoyatda e'tibor bilan qarash zarurligini, shu bilan birga shifokorlik kasbida loqaydlik, bugungi ishni ertaga qoldirish mumkin emasligini Sodiq Aliyevich o'z namunasida ko'rsatar, ammo shundaylarga nihoyatda rahm-shafqatsiz edilar.

O'sha paytda klinik ordinator Karimjonga ham o'n sakkizta kasal biriktirilgan edi. Har kuni kundalik yozish, kasallik tarixini to'ldirish kerak. Bir kuni odatdagidek kasallarni ko'rish uchun kasallik varaqalari turadigan papkasini qidirsan – papka yo'q. «Mening papkam qani?», so'radi u bosh hamshira Anna Moiseyevadan. «Papkam Sodiq Aliyevichda, O'zlari kasallarni ko'rib chiqyaptilar», - dedi u. Karimjonning ranglari o'zgardi. Ha, u ustozining nimadan jahli chiqishini darrov sezdi. O'n sakkiz kasaldan 2 tasiga kundalik yozilmagan edi. Bir necha kun Sodiq Aliyevich bir og'iz gapirmadi. Kasallarni faqat o'zi ko'rdi. Karimjon uchun bundan ortiq jazo yo'q edi. Ana shu jazo uni har bir ishni o'z vaqtida qilishga o'rgatdi, desa mubolag'a bo'lmaydi.

**SHIFOKOR BILAN HAMSHIRANING POLIKLINIKADAGI  
MULOQOTI**

<b>Shifokor</b>	<b>Hamshira</b>
-Siz bemorlarni qabul qilishga tayyormisiz?	-Ha, men chiroqni yoqdim, ventilyatorni o'chirdim, havo sovutgichni yoqdim, derazani yopdim, deraza pardasini tortib qo'ydim.
-Вы готовы к приему больных?	-Да, я включила свет, вентилятор, кондиционер, закрыла окна, задернула шторы на окнах.
-Bemorlardan iltimos qiling, shovqin qilishmasin.	-Yaxshi.
-Попросите больных не шуметь.	-Хорошо.
-Retseptlar va yo'llanmalar uchun zaruriy blankalarni tayyorlang.	-Ularning barchasi tayyor.
-Подготовьте необходимые бланки для рецептов и направлений.	-Готово.
Sizda laboratoriyalarning, shifokor-mutaxassislarning, rentgen muolajasi xonasining ish jadvali bormi? Bu jadvalni menga keltirib bering. У вас есть расписание работы лабораторий, врачей-специалистов, рентгеновского кабинета. Дайте мне это расписание.	-Ha, bularning hammasi bor, marhamat.  -Да, все есть. Возьмите, пожалуйста.
-Bemorni xonaga taklif eting.	-Bemor Aliyev, marhamat kiring.
Пригласите больного в кабинет.	-Больной Алиев, пожалуйста зайдите.
-Bemorning haroratini, qon bosimini o'lchang.	-Harorati 36,6; qon bosimi 120 ga 80;
-Измерьте больному температуру, артериальное давление.	-Температура 36,6; артериальное давление 120/80.

**BEMORNI PALATADA TIBBIY KO'RIKDAN O'TKAZISH**

Ahvolingiz qalay? Kechagidan tuzukroqmisiz? Kechasi yaxshi (yomon) uxladingizmi? -Ko'rsating-chi, qayeringiz og'ridi? Hozir qayeringiz og'riyapti? -Yutinganingizda (nafas olganingizda, qimirlagangizda) og'riq bormi? -Men sizni ko'rib qo'yaman. -Endi ... orqangizni o'giring.	Как вы себя чувствуете? Лучше (хуже), чем вчера? Вы ночью спали хорошо (плохо)?  -Покажите, где болело? Болит сейчас? -Вам больно смотреть глотать, (дышать, двигаться)?  -Я вас осмотрю. Повернитесь на ... спину, правый (левый) бок. -Сядьте в постели. -Здесь больно? -Вам нельзя (разрешено) поворачиваться (сидеть, ходить) -Вам нельзя сегодня есть и пить.
-Joyingizga o'tiring. -Bu yerda og'riq bormi? -Sizga .. burilish (o'tirish, yurish) mumkin emas (mumkin). -Sizga bugun ovqat yeyish va suyuqlik ichish mumkin emas. -Siz har ikki soatda qo'lingiz bilan jarohatingizni mahkam bosib turib, besh-olti marta chuqur nafas olishingiz lozim. -Xotirjam bo'ling, hammasi joyida bo'ladi. -Sizni tekshiruvdan o'tkazamiz. -Siz qayerga va qachon borishingizni hamshira tushuntirib beradi.	-Вы должны, прижимая руками рану, делать пять-шесть глубоких вдохов каждые два часа.  -Успокойтесь, все будет в порядке. -Мы вас обследуем. -Сестра скажет, когда и куда вы будете направлены.

Bir va ikki tarkibli gaplar (Односоставные и двусоставные предложения)	
Bosh bo'lakli gaplarning ishtirokiga ko'ra bir va ikki tarkibli gaplar farqlanadi. Bir tarkibli gaplarda faqat ega yoki faqat kesim bo'lishi mumkin. <u>Masalan: Bahor. Bilsang, gapir.</u>	По наличию главных членов различают односоставные и двусоставные предложения. Односоставные предложения имеют один главный член: или подлежащее, или сказуемое. <u>Весна. Если знаешь, говори.</u>
Bir tarkibli gaplarning quyidagi turlari bor: 1.Shaxsi aniq gaplar. Masalan: <u>Tushundingizmi?</u> 2.Shaxsi noaniq gaplar: <u>Ertaga dam olishingiz kerakligi aytili.</u> 3.Shaxsi umumlashgan gaplar: <u>Yetti o'lchab bir kes.</u> 4.Shaxssiz gaplar: <u>Sizga hamma gapni aytib bo'lmaydi.</u> 5.Nominativ gaplar: <u>Yoz. Issiq kunlar.</u> 6. So'z gaplar. <u>Ha! Mayli.</u>	Различаются следующие типы односоставных предложений: 1.Определенно-личные предложения. <u>Поняли (вы)</u> 2.Неопределенно-личные предложения. <u>Сказали, что вы завтра должны отдохнуть.</u> 3.Обобщенно-личные предложения. <u>Семь раз отмерь, один раз отрежь.</u> 4.Безличные предложения. <u>Вам нельзя сказать обо всем.</u> 5. Номинативные предложения. <u>Лето. Жаркие дни.</u> 6.Слова предложения. <u>Да! Ладно.</u>

**Mashq.** Quyida berilgan gaplar bir tarkibli gaplarning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

1.Yakshanba kuni toqqa lola sayriga bordik. 2.Yaxshiga yondoshtir, yomondan adashtir. 3.Bu filmni bir marta ko'rsa bo'ladi. 4.Subhidam. 5.Qushlarning sayrashini dilga xush yoqadi. 6.Yomonga yaqinlashsang balosi yuqar, qozonga yaqinlashsang – qorasi. 7.O'zboshimchalikka yo'l qo'yilmasin. 8.Imtihonlarga puxta tayyorlanish lozim. 9.Tozalikka rioya qilinsin.

To'liq va to'liqsiz gaplar (Полные и неполные предложения)	
Hamma gap bo'laklari ishtirok etgan gaplar <u>to'liq gaplar</u> deyiladi. Masalan: <u>Men yozda dam olish uchun oromgohga bordim.</u> To'liqsiz gaplarda birorta gap bo'laki bo'lmaydi, lekin ma'nosiga ko'ra uni oson aniqlash mumkin. To'liqsiz gaplar quyidagicha bo'ladi: 1. Egasiz to'liqsiz gaplar. Masalan: <u>Boraman va hamma gapni aytib beraman.</u> 2. Kesimsiz to'liqsiz gap: <u>-Kim boradi? - Men.</u> 3. Egasiz va kesimsiz to'liqsiz gap. <u>Karim kimni chaqiryapti? - Seni.</u> 4. Ikkinchi darajali bo'laklarsiz. <u>Men bordim.</u>	Полными предложениями называются такие предложения, в которых представлены все необходимые члены. Неполными предложениями называются такие предложения, в которых тот или иной отсутствующий член предложения легко восстанавливается, исходя из контекста. Неполные предложения бывают: 1. Без подлежащего. <u>Пойду и обо всем расскажу.</u> 2. Без сказуемого: <u>-Кто пойдет? - Я</u> 3. Без подлежащего и сказуемого: <u>-Кого зовет Карим? - Тебя.</u> 4. Без второстепенных членов предложения. <u>Я ходил.</u>

**Mashq.** Matndagi so'z-gap va bir so'zdan tuzilgan to'liqsiz gaplarni topib, ularning o'zaro farqini tushuntirib bering.

Kechki payt edi. Eshik taqilladi-yu, shifokorning qo'shnisi Olim ota kirib keldi.

-Doktor bolam, bu tish qurg'ur qattiq azob beryapti, bir ilojini qilsangiz.

-Tish doktoriga bormadingizmi?

-Yo'q.

Doktor ko'p o'ylab o'tirmadi-da, oldida turgan bir piyola issiq choyni Olim otaning qo'liga quyib yubordi. Ota jon-jahdi bilan qo'lini tortib oldi.

-Qalay, og'rig'i bir oz qoldimi? - so'radi vrach.

-Ha-ya, tish og'rig'i esimdan ham chiqib ketdi, - dedi Olim ota jilmayib. -

Darvoqe, og'riq ham to'xtadi-ya.

-Qo'lingiz kuymadimi?

-Yo'q, bir oz jimillashib turibdi. men choyni qaynoq deb qo'rqan edim.

-Ertaga, albatta, tish doktoriga boring.

-Boraman. Lekin bolam bu qanaqa muolaja bo'ldi-a?

-Kishining miyasi ikki og'riqdan eng zo'rini sezib, kuchsizini sezmay qoladi.

## SOG'LOM TURMUSH TARZI VA SOG'LOM AVLOD

Sog'lom turmush tarzining ahamiyati beqiyosdir. Sog'lom turmush tarzi – insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligini ta'minlovchi turmush tarzidir. Uning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

- o'z turmush tarzi uchun mas'uliyatni sezish;
- to'g'ri tuzilgan kun tartibi;
- to'g'ri ovqatlanish;
- sog'lom munosabatlardir.

Ko'pgina odamlar o'z sog'liqlariga bee'tibor bo'lib, ularning salomatliklarini shifokorlar tiklab berishini kutib o'tirishadi. Ammo hozir o'z salomatligini ta'minlab beruvchi sog'lom turmushga e'tiborli faol insonlar ko'payib bormoqda.

Sog'lom turmush tarzi o'z ichiga ishda va oilada mehnat jarayoni, madaniy hordiq, sport bilan shug'ullanishni uzviy olib borishdir. Shuningdek, zararli odatlardan voz kechish kerak. Bu o'z navbatida sog'lom avlodni voyaga yetkazishda muhim omildir. Buning uchun yoshlar orasida muntazam ravishda tushuntirish ishlarini olib borish kerak. Bu tushuntirish ishlari natijasida yoshlar chekish, alkogol ichimliklarini iste'mol qilish, giyohvand moddalarni qabul qilish insonning o'ziningina emas, bo'lajak avlod uchun ham xavfli ekanligini his qilishlari kerak. Shuning uchun ham respublikamizda bir necha yildan beri turmush qurish bo'sag'asida turgan yoshlar albatta tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi.

Har bir yosh bo'lg'usi ota -ona sifatida ham o'z sog'lig'i uchun javobgardir.

Sog'lom onadagina sog'lom farzand tug'iladi. Shu tufayli homilador ayollar sog'lom turmush tarziga rioya etishlari, ovqatlarning darmondorilarga boy bo'lishiga e'tibor berishlari kerak. Doimiy hordiq va mehnat bilan shug'ullanish muhimdir. Ruhiy holatni yaxshilash ham sog'lom turmush tarzini saqlashning asosiy qoidasidir. Turmush sog'lom bo'lgan taqdidagina kelajak avlod ham sog'lom bo'ladi.

### Lug'at

turmush tarzi – образ жизни  
voz kechish – отказать  
homilador – беременная  
shug'ullanmoq – заниматься


ko'rik – осмотр  
faol – актив  
hordiq – отдых

### Savol va topshiriqlar.

1. O'z turmush tarzingiz haqida so'zlang.
2. Turmush tarzingizdagi nimalar sizga yoqadi, nimalar yoqmaydi?
3. Sizningcha, ideal turmush tarzini kechirgan inson haqida so'zlab bering.
4. Matn asosida quyidagi konstruktsiya bo'yicha gaplar tuzing.


«Nima bu nimadir?»

Sog'lom turmush tarzi




«Nima nima tamoyillardan iborat?»

Sog'lom turmushning  
asosiy tamoyillari



«Nima nimaning uyg'unligi?»

Sog'lom turmush  
tarzi o'z ichiga



## ZARARLI ODATLAR VA ULARNING OQIBATLARI

Kashandalik – eng ko'p tarqalayotgan odatlardan biri. Kashandalik inson umrini qisqartirishga olib keladigan asosiy omillardan biridir. Kashandalarda surunkali o'pka kasalliklari ko'p uchraydi. Kashandalik yurak xastaligi va o'sma kasalliklari paydo bo'lishi xavfini kuchaytiradi. Yoshlikdan chekishga o'rganish o'smirning aqliy qobiliyatini susaytiradi. Kashandalar chekmaydigan tengdoshlaridan ancha qarimsiq ko'rinadilar. Kashandalarda terining qarishi, eshitishning pasayishi juda tez kechadi. Chekuvchilar faqat o'zlarini emas, balki atrofdagilarni ham zaharlaydilar.

Ichkilikbozlik – spirtli ichimliklarni doimiy iste'mol qilish oqibatida kelib chiqadigan surunkali og'ir kasallikdir. Ichkilikbozlik oqibatida har kuni dunyoda millionlab odamlarning yostig'i quriydi. Yo'llardagi baxtsiz hodisalarning 2/3 qismiga ana shu illat sabab bo'lmoqda. Ichkilikbozlik o'smirning aqliy qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ichkilikbozlik bosh miya, markaziy asab tizimi, oshqozon, buyrak, jigar va boshqa a'zolari ishdan chiqaradi. U bolaning ruhiyatini shikastlaydi, shaxsning buzilishiga olib keladi. Spirtli ichimliklarni doimiy iste'mol qilish hayotni ma'nosiz qilib qo'yadi.

Giyohvandlik – giyohvand moddalarga ruju qo'yish shaxsni telbalik va majruhlikka olib boradi. Asab tizimi va, umuman, organizmni zararlaydigan giyohvand moddalar o'simliklardan yoki sun'iy yo'l bilan olinadi. Giyohvand moddalarga juda tez o'rganib qolish mumkin, organizm esa uni tobora ko'proq talab qilaveradi. Giyohvandlikka o'rganan kishilarga o'z-o'zini davolashning hech qanday usullari ta'sir qilmaydi. Giyohvand moddalarni iste'mol qilish dastlab markaziy asab tizimini ishdan chiqaradi, natijada inson ruhiyati o'zgaradi, tushkunlik va miya aynishi sodir bo'ladi. Giyohvand moddalarga



o'rganish og'ir yurak va falaj xastalıkları ehtimolini oshiradi. Giyohvandlik inson umrini 20-25 yilga qisqartiradi.

**Lug'at**

kashandalik – курение  
 xastalik – болезнь  
 qisqartirmoq – укорачивать  
 qarimsiq – старческий вид  
 falaj – паралич

pasaymoq – понижаться  
 ichkilikbozlik – алкоголизм  
 illat – недостаток  
 tushkunlik – упадок

**Topshiriq. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.**

«Nima bu nima?»

Kashandalik

Ichkilikbozlik

Giyohvandlik

«Nima nimaga salbiy ta'sir ko'rsatadi?»

Kashandalik

Ichkilikbozlik

Giyohvandlik

«Nima nimani zararlaydi?»

Kashandalik


Ichkilikbozlik


Giyohvandlik


**Quyidagi matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.**

Никотин действительно активно разрушает витамины, без которых человеческий организм не может нормально работать. Одна сигарета уносит 25 мг витамина С (столько витамина С содержится в одном апельсине). В табачном дыму содержатся также цианиды, разрушающие витамины группы В. Содержание витамина В<sub>12</sub> у курящих в 20 раз меньше, чем у некурящих.

**Quyidagi matnni rus tiliga tarjima qiling.**

OITS – Ortirilgan immunitet tanqisligi sindromi VICH deb ataladigan virus. Qonga singib, immun tizimni izdan chiqaradi. Natijada inson infeksiyalar oldida himoyasiz bo'lib qoladi. Uning natijasida giyohvandlar o'zaro ishlatadigan shprits virus tarqatuvchi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. OITS kasalligi turli xil shaxslar bilan jinsiy aloqa qilganda ham yuqadi. Uning yashirin davri bir necha oydan bir necha yilgacha bo'lishi mumkin. OITS davolab bo'lmaydigan, oxiri o'lim bilan tugaydigan kasallikdir. VICH infeksiyasi yuqqan kishilarning o'rtacha umri 12 yildan oshmaydi.

**Lug'at**

kashandalik – курение  
 qarimsiq – старческий  
 salbiy – отрицательный  
 susaytirmoq – ослаблять

baxtsiz – несчастный  
 ruhiyat – психология  
 ma'no – смысл

**Topshiriqlar.**

**1. Matnni o'qing va tarjima qiling.**

**2. Zararli odatlar qanday oqibatlarga olib kelishini so'zlab bering.**

Qo'shma gap. Bog'langan qo'shma gap (Сложное предложение. Сложносочинённые предложения)	
Qo'shma gap ikki va undan ortiq sodda gapdan tashkil topadi. Qo'shma gaplar bog'lovchilar yordamida yoki ularsiz tuziladi. <u>Eshik ochildi va o'qituvchi kirdi.</u> <u>Eshik ochildi, o'qituvchi kirdi.</u> Qo'shma gaplar 2 xil bo'ladi:	Сложное предложение состоит из двух или более простых предложений. Простые предложения соединяются с помощью союзов и без них.
1. Bog'langan qo'shma gaplar.  2. Ergashgan qo'shma gaplar.	Сложные предложения бывают двух видов: 1. Сложносочинённые предложения 2. Сложноподчинённые предложения
Bog'langan qo'shma gaplarda sodda gaplar bir-biri bilan teng bog'lovchilar yordamida bog'lanadi. a) biriktiruv bog'lovchilari (va, ham); b) zidlov bog'lovchilari (ammo, lekin, biroq); d) ayiruv bog'lovchilari (yo, yoki, ba'zan); e) yuklamalar (-u, -yu, -da).	В сложносочинённом предложении простые предложения соединяются сочинительными союзами. а) соединительные (и, тоже); б) противительные (но); в) разделительные (или, иногда); г) частицами (-у, -ю, -да).

**Mashq.** Quyidagi sodda gaplardan tegishli bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gap tuzing. Zarur tinish belgilarini qo'ying.

1. Men o'zimning kimligimni sizga aytib berdim. 2. Siz o'zingizning kimligingizni aytib bermadingiz. 3. Narigi uydan qandaydir musiqa ovozi eshitilar. 4. Qizlarning kulgusi jaranglar edi. 5. Yigitlarda shunchalik hunar bor ekan. 6. Bilmay yurgan ekanmiz. 7. Alisher hali yosh bola edi. 8. Husayin saroyida hizmat qilardi. 9. Mehnat hayot chirog'iga yog' quyadi. 10. Tafakkur uni yoritadi. 11. Cholning chap ko'zi yumuq...o'ng ko'zida qandaydir yomon o't yonib turardi. 12. Yaxshi nom chiroyli so'zlar bilan berilmaydi. 13. U mehnat natijasi uchun beriladi.

### MILLIY QADRIYATLAR

Madaniy merosning qadri tushmaydigan qismiga milliy qadriyatlar deyiladi. Bular jamiyatimiz, insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa, hodisa va voqealar, madaniy, moddiy va ma'naviy boyliklar, obidat-yodgorliklar, go'zallik, axloqiy fazilatlar, an'ana, urf-odat, udumlar va boshqalar. O'zbekistonda istiqloq sharofati bilan milliy qadriyatlar qayta

tiklanmoqda.

Respublikamizda «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi qoshida 1996-yil yanvar oyida «Oltin meros» xalqaro jamg'armasining tashkil etilishi mustaqillik sharoitida o'tmish madaniy merosini o'rganish va o'zlashtirishning yorqin dalilidir. Yangi xayriya jamg'armasi faoliyati xalqimiz merosning nodir namunalarini to'plash va asrab-avaylashga, uni nafaqat respublikamizda, balki turli mamlakatlarda targ'ib qilishga qaratilgan. Ushbu jamg'arma fuqarolarda, ayniqsa, yoshlarda vatanparvarlik, mustaqillik tuyg'ularini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Moddiy va ma'naviy madaniyatimiz shu qadar ulkanki, merosimiz nafaqat o'z xalqimiz, balki Yevropa, Osiyo mamlakatlarini ham o'ziga jalb qilib, qiziqish uyg'otmoqda va bu umuminsoniy qadriyatlarga qo'shilgan salmoqli hissadir. X-XI asrlarda Yevropa madaniyati hali uyg'onish pallasiga kirmagan paytdayoq bizning Sharq madaniyatimiz barcha jabhalarda yuqori cho'qqilarni zabt etdi. Yaqin vaqtgacha barcha fanlar poydevori yunonlar tomonidan yaratilgan, degan qarash mavjud edi. Aslida ular yaratgan ilm-fan, falsafaning poydevoriga bir necha asr oldin «Avesto»da asos solingan.

Qadimgi yunonlarning o'zlari Platon va Aristotel ta'limoti, umuman, yunon falsafasi zardushtiylik ta'siri ostida shakllandi deb tan olganlar.

Ibn Sino, Al-Forobiy, Farg'oniy kabi ko'plab olimlarimizning asarlari lotin, fransuz, italyan, ispan tillariga tarjima qilinib, tarjimalar Yevropa ilm-fani, falsafasiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Bu asarlarning ko'pchiligi Parij Milliy kutubxonasida hozirgacha saqlanadi.

### Lug'at

markaz – центр

yorqin – яркий

dalil – доказательство

fuqaro – гражданин

moddiy – материальный

qadriyatlar – духовные ценности

targ'ib – пропаганда

jalb qilmoq – привлекать

salmoqli – весомый

palla – время

zabt etmoq – завоевать

### Savol va topshiriqlar.

1. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.

«Nimaga nima deyiladi?»

Madaniy merosning qadri tushmaydigan qismiga

«Nimaga nima kiradi?»

Milliy qadriyatlarga

«Nimada nimaga asos solingan?»

Avesto

2. Respublikamizdagi «Oltin meros» xalqaro jamg'armasi nima bilan shug'ullanadi?

3. Viloyat yoki shahringizdagi biror tarixiy yodgorlik haqida so'zlab bering.

Ushbu matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Навруз в переводе с фарси означает новый день-самый большой из всех праздников поклонения солнцу и огню, отмечающийся три тысячелетия назад по солнечному календарю 22 марта,- в день весеннего равноденствия.

По старинному обычаю каждый участник праздника должен выполнить три условия. Во-первых, посадить цветы и не менее трех саженцев деревьев. Во-вторых, настроить себя на добрые дела и радость. Помириться с тем, с кем был в споре. И в-третьих, стремиться жить по-новому, честно и достойно.

### FARZANDLARNING OTA-ONASI OLDIDAGI BURCHLARI

Xalqimizda kattalarga, ayniqsa, ota-onalarga hurmat ko'rsatish azaliy odatdir.

Oqil va dono farzand ota-onasining haqlarini bekamu ko'st bajaradi. Ularni hurmatlashda kamchilik ko'rsatmaydi, nomini yaxshilik bilan tilga oladi. O'z farzandi unga nisbatan qanday bo'lishini istasa, u ham ota-onasiga shunday muomalada bo'ladi.

Ota-ona farzandini tarbiya qiladi, o'stiradi, shu yo'lda ancha mashaqqat chekadi, unga hech vaqt yomonlikni ravo ko'rmaydi, baxtli, saodatli bo'lishini tilaydi. Shunday ekan, har bir farzand bu muhtaram zotlarning izzat-hurmatlarini bajo keltirishga g'ayrat qilishi kerak. Ularning dillarini og'ritmaslik, ochiq yuzli, shirin so'zli bo'lish, doimo hollaridan habardor bo'lish, hech vaqt muhtojlikda qoldirmaslik, har jihatdan ularni o'zlaridan rozi qilib, duolarini olishga harakat qilish kerak.

Ota-onaning farzand oldidagi burchlari bo'lgani kabi farzandlarning ham ota-ona oldidagi burchlari mavjud. Ular quyidagilar:

1. Muhtoj bo'lganda taomlantirmoq.
2. Xizmatini qilmoq.

3. Chaqirganda labbay deb javob bermoq.
4. Gunohdan boshqa ishlarga buyursa itoat etmoq.
5. Ota-ona bilan yumshoq muomalada gaplashmoq.
6. Ota-onani, qodir bo'lsa, libos bilan ta'minlamoq.
7. Ota-onaning orqasida yurmoq.
8. O'zi rozi bo'ladigan narsani ota-onasiga ham ravo ko'rmoq.
9. O'zi yomon ko'rgan narsani ota-onaga ravo ko'rmaslik.
10. Doimo o'zi uchun duo qilganda, ota-onani ham duo qilmoq.

### Lug'at

oqil – умный

bekamu-ko'st – безупречный

muomala – обращение, отношение

mashaqqat – мучение

izzat – уважение

muhtojlik – нужда

Savol va topshiriqlar.

1. Matnni o'qing, rus tiliga tarjima qiling.

2. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.

«Nima nimadir?»



xalqimizda azaliy odatdir

«Kim nima qiladi?»

Oqil va dono farzand

Ota-ona

«Kim qanday bo'lishi kerak?»

Har bir farzand

3. Farzandning ota-onalari oldida qanday burchlari bor?

Ergashgan qo'shma gaplar (Сложноподчинённые предложения)	
<p>Ergashgan qo'shma gaplar ikki va undan ortiq sodda gapdan tashkil topib, ularning biri <u>bosh gap</u>, ikkinchisi <u>ergash gap</u> bo'ladi.</p> <p>Ergash gap o'zaro ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'lanadi.</p> <p>Ergashgan qo'shma gaplarning bir nechta turi bor:</p> <p>1.To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap bosh gapning ma'nosini to'ldirib keladi. Masalan: <u>Men bilamanki, bizning oramizda yolg'onchilar yo'q.</u></p> <p>2.Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap bosh gapdagi biror bo'lak belgisini aniqlash uchun xizmat qiladi. Masalan: <u>Shun-day talabalar borki, ular har ishda boshqalarga namuna bo'ladilar.</u></p> <p>3.Hol ergash gapli qo'shma gap fe'l bilan bog'liq bo'lib, harakatning o'rni, vaqti, sababi, miqdorini bildiradi. Masalan: <u>Qayerda intizom yaxshi bo'lsa, shu yerda ish yaxshi bo'ladi.</u></p>	<p>Сложноподчинённые предложения состоят из двух или более предложений, одно из них является главным, другое придаточным.</p> <p>Сложноподчинённые предложения связываются между собой подчинительными союзами.</p> <p>Сложноподчинённые предложения делятся на несколько видов:</p> <p>1.Изъяснительные придаточные предложения конкретизируют и раскрывают значение главного предложения.</p> <p>2.Определительные придаточные предложения служат для определения признака одного из членов главного предложения.</p> <p>3.Обстоятельственные придаточные предложения относятся к глаголу и уточняют место, время, причину, цель действия.</p>
Ko'chirma va o'zlashtirma gap (Прямая и косвенная речь)	
<p>So'zlovchining nutqi muallif tomonidan hech qanday o'zgarishsiz berilsa, bunday gapga ko'chirma gap deyiladi. Masalan: <u>Boshliq: «Bugun majlis bo'ladi», - dedi.</u></p> <p>Muallif tomonidan so'zlovchi nutqining ma'nosi berilsa, bunday gap o'zlashtirma gapga deyiladi. Masalan: <u>Boshliq bugun majlis bo'lishini aytdi.</u></p>	<p>Чужая речь, передаваемая от автора без изменений, называется прямой речью.</p> <p>Косвенной речью называется чужая речь, передаваемая автором от своего лица.</p>

**Mashq. Gaplarni ko'chiring. Ergashgan qo'shma gaplarning turini aniqlang.**

1.Kimki o'z kasbini sevsa, unday kishi hurmatga loyiq bo'ladi.  
2.Vazifang shundan iboratki, beshta xonani bugunog tozalab qo'yan.  
3.Anvarning xizmati shuki, u do'stini yolg'izlatib quymadi.  
4.Shu narsa ayonki, inson bilimi bilan munavvar.  
5.Kim sport bilan shug'ullansa, u o'zini sog'lom va bardam his etadi.  
6.Shunday oliy davrda yashaymizki, bu davrda ilmsizga o'rin yo'q.  
7.Kim ko'p o'qisa, u shunchalik bilimli bo'ladi.

**Mashq. Gaplarni ko'chiring. Hol ergash gaplarning qanday ifodalanganini aniqlang.**

1.Uning xursandchiligini ko'rib, onasi quvonib ketdi.  
2.Ko'z qaerda bo'lsa, mehr o'sha yerda bo'ladi.  
3.Rangi-ro'yim o'chganini ko'rib, onam yugurib keldi.  
4.Javob beruvchilar shunchalik ko'p ediki, Alijonga navbat tegmadi.  
5.Qatorda noring bo'lsa, yuking yerda qolmaydi.  
6.Orqadan kelayotgan qiz-juvonlar yetib kelsin deb, Valijon mashinani ancha berida to'xtatdi.

### MEHNAT INSONNI ULUG'LAYDI

Rivoyat qilishlaricha, dunyodagi barcha go'zallikning 99 qismi Yusufga in'om qilinib, qolgan bir qismi esa dunyodagi barcha yigitlarga ato etilgan ekan. Ammo biz Yusufdan ko'ra Farhodni hurmat qilamiz. Chunki Farhod obrazi – mehnatsevarlik timsoli. Mehnat insonni ulug'laydi. Bejizga agar noming xalq orasida hurmat bilan yod etilishini istasang, mehnat qil deyilmagan.

Inson tarbiyasida eng diqqat qilinadigan va eng e'tiborga olinadigan narsas – bolani yoshligidan boshlab bir ishga o'rgatish, kichkina vaqtidanoq unga yumush berib, ishga odatlantirishdir. Insonda mehnat malakasi vujudga kelsa, u ota-onasi, birovlarining ko'rsatib turishini kutib o'tirmay, o'zi eplab ketaveradi.

Agar martabasi ulug', hurmatga sazovor qaysi inson bilan so'zlashsangiz u bu cho'qqiga faqat mehnat orqali erishganligi guvohi bo'lasiz. Sportda g'alabaga erishgan sportchilar ham, taniqli olimlar, xalq olqishini olgan ijodkorlar va san'atkorlar yutug'i ham tinimsiz mehnat natijasidir.

Xalqimizning juda dono maqoli bor. «Bekor o'tirgandan ko'ra, bekor ishla». Maqol ma'nosi shundaki, inson qilgan mehnati uchun baribir haq oladi. Bu haq – hurmat, minnatdorchilik va shu bilan birga o'z malakasini va bilimini oshirishdir. Biror talaba darsni a'lo o'zlashtirdi, uning dugonalari esa mavzuni tushunmadi. A'lochi qiz dugonalariga mavzuni tushuntirish uchun qo'shimcha adabiyotlardan foydalanadi va o'z bilim doirasini kengaytiradi. Mehnat nafaqat insonni ulug'lash, balki uning umrini uzaytiruvchi, salomatligini saqlovchi vosita hamdir. Uzoq umr ko'rgan deyal barcha insonlarning umri ish va samarali mehnat bilan o'tgandir.

## Lug'at

go'zallik – красота  
 ato qilmoq – подарить, дать  
 cho'qqi – вершина  
 mehnatsevarlik – трудолюбие

tarbiya – воспитание  
 yumush – работа  
 odat – привычка

### Savol va topshiriqlar.

1. «Mehnat insonni ulug'laydi» iborasini biror mashhur inson misolida tasdiqlang.
2. Inson o'zida mehnatsevarlikni tarbiyalash uchun nima qilishi kerak?
3. Mehnat, iroda va bardosh har qanday odamni normal hayotga qaytaradi va mehnat mo'jiza yaratadi, degan fikrga qo'shilasizmi?
4. Quyidagi ma'lumotlarni o'qing. O'z fikringizni yana boshqa ma'lumotlar bilan tasdiqlang.

AQSH da bo'lgan yugurish bo'yicha 3-Olimpiada chempioni Vilma Rudolf yoshligida og'ir turdagi polimelitni boshidan kechirgan.

\*\*\*

Buyuk shoir Jorj Bayron yoshligidan oqsoq bo'lgan. O'z jismoniy nuqsonini u chidamlilik, kuch va jasurligi bilan berkitganday bo'lgan. U bo'sh vaqtida 15 metr chuqurlikdagi suvga sakrab, uning tubidan mayda tangani olib chiqardi. U Temzani kuniga bir necha bor kechib o'tardi.

Mehnat insonni go'zal ko'rsatadi, degan fikrga munosabatingiz qanday? Quyidagi parchani o'qing va o'z mulohazangizni bildiring.

Bir kuni biz bir guruh yigit va qizlar bilan muzeyning ma'ruza zaliga bordik. Birpasdan keyin ma'ruzachi keldi. Uni ko'rgach, zalda kulgu ko'tarildi. Bundan ham xunukroq odamni tasavvur qilish qiyin edi: burni uzun, shalpanqquloq, kichkinagina ko'zlari chuqur joylashib qolgandek. Bu xunuklikni uning yuzidagi pushti rang yara qoldig'i yanada kuchaytirayotgandek edi. Uzun bo'ynini, hatto, tik yoqa ham berkitmas edi. Ma'ruzachi ma'ruzasini qandaydir bir xirillagan, uncha baland bo'lmagan ovoz bilan boshladi. Zaldagilarning kulgusi sekinlashdi. Bir ozdan keyin esa shunday sokinlik cho'mdiki, pashsha uchganini ham eshitish mumkin edi. Chunki hamma uning gaplariga qiziqib qolgan edi. Keyingi hayotimda juda ko'p ma'ruzalar tinglashga to'g'ri keldi, ammo men ulardan bunchalik kuchli taassurotga ega bo'lmadim. Ma'ruzachining chuqur fikriyu, mahorati bizga uning uzun burniyu, ulkan quloqlari, yarasini unutishimizga majbur qildi. Bu inson ko'z o'ngimizda nafaqat boshqalardek oddiy. balki kelishgan, o'ziga xos qiyofaga kira boshladi. Ma'ruza tugadi. Notiqni hamma o'rab oldi. Uni savollarga ko'mib tashlashdi. Men esa so'nggi savolni berdim: Siz bunday maroqli ma'ruza o'qishni qayerdan o'rgangansiz?

«Yoshligimda bir ma'ruzachiga shogird bo'lgandim. U menga ko'p xatolarimni ko'rsatar edi. Ammo urushda jarohat olgach, yuzim badbashara

bo'ldi. Men o'z notiqligimni davom ettirmoqchi edim. Endi o'z ustimda yuz karra ko'proq ishlashim zarur edi, chunki mahoratim mening tashqi ko'rinishimdagi nuqsonlarimni berkitishi kerak edi. Men ushbu mahoratga juda qattiq mehnatim orqaligina erishdim».

## 31 -DARS

Adabiy til uslublari (Стили литературного языка)	
<p>Til uslublari jamiyat hayotining biror-bir qirrasini: rasmiy ish munosabatlari, targ'ibot-tashviqot faoliyatini, ilmni, so'z san'atini yoritish uchun xizmat qiladi.</p> <p><u>So'zlashuv uslubining</u> maqsadi - muloqot, fikr almashish. Bu uslub, asosan, dialoglarda ishlatiladi.</p>	<p>Стиль языка обслуживает какую-либо сторону общественной жизни: официально-деловые отношения, агитационно-просветительскую деятельность, науку, словесно-художественное творчество.</p> <p><u>Разговорный стиль</u> – цель разговорного стиля-общение, обмен мыслями. Обычная форма этого стиля-диалог.</p>

### Topshiriq.

1. Haqiqiy madaniyatli odamlar to'g'ri, qoidaga asosan so'zlashishadi. Har tilning, jumladan, o'zbek tilining ham o'z me'yorlari bor: bu talaffuz me'yorlari, grammatik me'yorlar, so'zlarni ishlatish me'yorlari. O'z nutqingizni yana bir bor kuzating. Undagi kamchiliklarni toping. Buning uchun guruhdoshlaringizga dam olish kunini qanday o'tkazganingizni gapirib bering.
2. Ushbu dialogdagi so'zlashuv uslubiga xos bo'lgan frazeologizmlar, emotsional ekspressiv so'zlar, ko'chma ma'nodagi so'zlar, kirish, undov so'zlar, undalmalarni toping.

Ona: Bolaginam, tuzukmisan?

Bola: Voy! Oyijon! Yaram o'rni qattiq og'riyapti. Yotib ham zerikib ketdim.

Ona: Yana bir oz sabr qil. Sabr tagi-sari oltin deyishadi.

Bola: Ey, yana qancha sabr qilishim kerak?

Ona: Do'xtirlarning qo'li yengil ekan. Operatsiyang yaxshi o'tdi. Qara, senga kubik-rubik olib keldim. O'ynab yot.

Bola: Rahmat, oyijon!

Ona: Tezroq tuzal, toychog'im!

Ushbu dialog shaklida «Qabulxona shifokori va bemor bola onasi» dialogini tuzing.

### 3. Quyida berilgan hamshira va bemorning telefon orqali suhbatini o'qing.

-Assalomu alaykum, bu Valiyevlar xonadonimi? Men poliklinikadan telefon qilyapman.

-Vaalaykum assalom, ha!

-Menga Shahnoza kerak edi. Ularni telefonga chaqirib bera olmaysizlarmi?

-Qaysi Shahnozani, bizning uyda ikkita Shahnoza bor. Kennoyim va opam.

-Menga Shahnoza Valiyeva kerak edilar.

-Ular ikkisi ham Shahnoza Valiyeva.

-Menga 1985-yili tug'ilgan Shahnoza Valiyeva keraklar.

-Unda sizga kennoyim kerak ekanlar, hozir chaqiraman.

-Rahmat.

Ushbu suhbat qisqaroq bo'lishi uchun hamshira savolini qanday berishi kerak edi?

### 4. Hamshiraning quyidagi bir xil so'zlarini qanday so'zlar bilan almashtirish mumkin?

Azizani kasalxona hovlisida ko'rib, "Voy bu yerda nima qilib yuribsan?" - dedim men.

-Ammam shu yerda yotibdilar - dedi u.

-Xabar olgani keldingmi? - dedim men.

-Ha, xabar olmoqchiydim, dedi u.

-Sen bu yerda nima qilyapsan?

-Men shu yerda hamshira bo'lib ishlayapman, - dedim men.

-Ammang qaysi palatada yotibdi?

-Terapiya bo'limida, 3-palata, dedi u.

-Men ulardan xabar olib turaman, dedim men.

### 5. Ba'zilar biror voqeani aniq qilib aytib bera olmaydilar, ammo bunda boshqalarni ayblashadi. Quyida A.Pirriyevning hajviyasi va bu voqeani Sherzod qanday qilib so'zlab bergani keltirilgan. Sherzodning tushunarli bo'ldimi? U nima kamchiliklarga yo'l qo'ydi? A.Pirriyevning hikoyasini guruhingizda bo'lib o'tgan voqea sifatida so'zlang.

#### MASLAHATLI OSH TARQADI

Domlalar haqida talabalarlik ko'p ma'lumot biladigan kishi bo'lmasa kerak. Hatto necha yillar birga yashaydigan umr yo'ldoshi bilmaydigan qirralarini biladi, bu talabalar. Ayniqsa, qaysi domla dars o'tadigan bo'lsa, u haqidagi barcha ma'lumotlar bir oy oldindan yig'ib bo'linadi: uning xarakteri, dars o'tish uslubi, «saviyasi», nimani yoqtirish-

yoqtirmasligi va hokozi. Yotoqxonadagi talabalar orasidagi «razvedka», mana-man degan davlatning maxfiy razvedkasidan qolishmaydi.

Bu «shumxabar» o'qishdan ko'ra ko'proq vaqtini «razvedka»ga bag'ishlaydigan guruhdoshimiz Alimardonning boshini qotirib qo'ydi. LOR fanining qiyinroq hamda domlari biroz qattiqqo'lligini yaxshi bilgan talabalar oldingi guruhlarning ma'ruzalarini qidirishni boshlagan bir paytda, vaziyatning qaltisligini tushungan Alimardon ham «razvedka»ni puxtaroq qilishga kirishdi. Buni qarangi, guruhimizga tushgan professor uning yon xonadoshi Quvvatga ham dars o'tgan ekan.

-Domla juda vazmin, lekin qattiqqo'l. U rost gapirganlarni yaxshi ko'radi, - deb gap boshladi asli tojik bo'lgani uchun o'zbek tilini qiyinchilik bilan gapiradigan Quvvat maslahatga kelgan Alimardonga.

-Kel senga bir do'stlik qilay, deya gapida davom etdi u. -Domla birinchi kuni ma'ruza o'qiydi va, albatta, kim chekishi haqida so'raydi. Bizning guruhdagi bolalar domladan qo'rqib qo'l ko'tarishga jazm qilishmagandi, domlamiz bizni qo'rqqollikda ayblab, urishib berdi. Agarda keyingi gal «kim chekadi?» deb so'raganda men deb javob bersang bo'ldi, rostgo'y va mard talaba sifatida ko'ziga yaxshi ko'rinasan-qolasan va «besh» naqd deyaver.

Ertasiga samarali «razvedka»dan ruhlangan Alimardon yaxshi kayfiyat bilan LOR kafedrasiga yo'l oldi. Har doimgiday, fan professorning ma'ruzasidan boshlandi. Domlalar yil davomida bir xil ma'ruzani takrorlayverib, nuqta-verguligacha yod bo'lib ketgani uchun hech bir so'z, hech bir savol takrorlanmasdan qolmaydi. Bu gal ham Quvvat aytganidek, domla ma'ruza orasida savol berib qoldi.

-Chekish barcha kasalliklarga sharoit yaratadi. Ammo shuni bila turib, ertaga shifokor bo'laman deb turgan ba'zi bir talabalarimiz ham chekishadi. Qani mard bo'lsalaringiz aytinglar-chi, sizning orangizda chekadiganlar bormi?

Barcha boshini quyi solib turgan bir paytda Alimardon qo'lini ko'tardi.

-Men chekaman domla!

-Iye. Yaxshi. Turingchi o'rningizdan, o'g'lim.

Barchamiz, Alimardonning bu xatti-harakatidan domlamizning jahli chiqishidan qo'rqib, egilgan boshimiz stol tagiga kirayozdi.

-Bu chekishingizni otangiz biladimi?

-Biladi, domla, - ishonch bilan javob berdi Quvvat.

-Yaxshi. Bu otangiz sigareta tishlarni sarg'aytirib, og'izdan badbo'y hid keltirishini ham bildaimi?

-Biladi.

Fikriga qarshi chiqishlarini yoqtirmasligi uchun, domla biroz asabiylasha boshladi.

-Otangiz sigareta tutuni ichak, qon-tomir tizimi uchun koni zarar ekanligini biladimi?!

-Biladi.

-Bu otangiz sigareta chekkanda o'pka tutunga to'lib, rakka olib kelishini ham biladimi?!

Orqaga yo'l yo'qligini tushungan Alimardon, nima bo'lsa bo'ldi qabilida javob berdi:

-Biladi, domla, biladi.

-He, otangning ham padariga la'nat!

Domla shunday deya stolni mushtladi-yu bizga tanaffus bergancha o'zi chiqib ketdi.

Chuv tushganini tushungan Alimardon o'zicha takrorlardi:

-Maslahatli osh tarqadi.

### SHERZODNING HIKOYASI

Bilasanmi, Alimardonning «Lori» uxladi. Quvvat uni bopladi. Zo'r maslahat beruvdi. Alimardon o'sha ishni qildi. Domla jahlidan naq yondi. Endi «Lor»dan dumi bo'lishi aniq. Stipuxa ham ololmaydi.

### 32-DARS

Publitsistik uslub gazeta, jurnal, radio va televizorda targ'ibot-tashviqot uchun ishlatiladigan uslub.	Публицистический стиль употребляется для агитации и пропаганды в газетах, журналах, по радио и телевидению.
---	---

Publitsistik janrlarga xabar, kengaytirilgan informatsiya, maqola, reportaj, musohada, ocherk, felyetonlar kiradi.

Publitsistik uslubning o'ziga xos jihati unda tantanavor so'z va frazeologizmlar, emotsional -ekspressiv so'zlarning ishlatilishi va pafosdir.

#### Topshiriq.

1. «Стажировка в Германии» nomli kengaytirilgan xabarni qisqa xabarga o'zgartiring.

#### Стажировка в Германии

В ТашПМИ с этого года в рамках проекта темпус открылась магистратура нового направления в здравоохранении Узбекистана - «Менеджмент здравоохранения и общественное здравоохранение». Как известно, это направление является новым. Для того, чтобы обучение на этом курсе соответствовало международным стандартам, группа преподавателей ТашПМИ в апреле-мае этого года находилась на стажировке в Германии, в городе Оснобрюке.

Это доцент Н.В.Агзамова, доцент Р.Юнусов и Ж.Туйчиев. После занятий в высшей школе Оснобрюка группа продолжила изучение менеджмента в городе Барселоне (Испания). В Испании проходил стажировку профессор М.Б.Шарапов. Мы познакомились с программой

обучения студентов и магистров в этом учебном заведении, посетили лекции и практические занятия профессоров высшей школы. Основной нашей задачей являлось детальное ознакомление с богатым опытом зарубежных коллег по менеджменту. Наш визит помог нам собрать ценный материал для более основательного преподавания нового предмета, позволил разработать материал на перспективу для лекционной работы и практических занятий. Обучение на этом курсе ведется на английском языке. У наиболее успевающих резидентов этого курса будет возможность пройти обучение одного из семестров в Германии.

Думается, что дальнейшее сотрудничество с этим учебным заведением станет важным этапом в реализации государственной программы по подготовке кадров у нас в республике.

2. Ushbu ilmiy kengash haqidagi axborot «ma'ruza qildi» so'z birikmasi o'rniga quyidagi so'zlarni qo'llang: so'zladi, tinglandi, ko'rib chiqildi, muhokamaga qo'yildi, gapirdi.

### ILMIY KENGASHDA

ToshPTI Ilmiy kengashining navbatdagi yig'ilishi 28-mart kuni institut faollar zalida bo'lib o'tdi. Unda ma'naviyat masalasi bo'yicha ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha prorektor, dotsent M.A.Ahmedova ma'ruza qildi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining hay'at qarorlari haqida dotsent M.N.Daminova ma'ruza qildi.

Professor A.A.Ataniyazova Nukus filialininig faoliyati bo'yicha yillik ma'ruza qildi. Ixtisoslashtirilgan Ilmiy kengashining 2006-yildagi faoliyati haqida tibbiyot fanlari doktori M.K.Sharipova ma'ruza qildi.

I, II pediatriya, tibbiy - pedagogika fakultetlarining kuzgi semestri yakunlari haqida ushbu fakultet dekanlaridan professor I.A.Qosimov, dotsentlar N.T. Toirov va Sh.T.Muhamedxonovalar maruza qildilar.

Maruzachi dotsent A.A.Azimov magistratura bo'limi ish faoliyatining tahlili va istiqbol rejalarini haqida ma'ruza qildi.

Umumiy pediatr tayyorlangan kafedralarda fanlararo umumiy integratsiyaning samaradorligini oshirish va uni takomillashtirish yo'llari haqida dotsent E.A.Shomansurova maruza qildi.

3. «Yigirma birinchi asr tibbiyot instituti» reportajini o'qib, «Institut hayoti» haqida reportaj yozing.

Birdan hamma narsa ostin-ustun bo'lganday edi. Ko'zimni ochgach, men boshqa joyda paydo bo'lib qolganimni sezdim. Osmonda quyosh porlar edi. Axir, bir necha daqiqa avval yomg'ir yog'ayotgan edi-ku. Ko'z o'ngimda bo'lgan binoga «Tibbiyot instituti» degan yozuv yozib qo'yilgan edi. Bino

atrofidagi bog'da turli-tuman gullar va daraxtlar bo'lib, orasida favvoralardan suv o'tilib turibdi. Men o'sha bog'dagi o'tirgichga o'tirib, dam olmoqchi bo'lib turgan edim, yonimga bir qiz kelib o'tirdi. Qo'lida shaxsiy kompyuteri bo'lib, asosiy axborotni u shu kompyuterdan olar ekan. Har bir binoda alohida predmetlar o'qitilar, koridordan esa sinf xonalarida nima borligi ko'rinib turar edi. Doska o'rnida katta ekran bo'lib, u yerda o'tilayotgan darsni kinodagidek ko'rish mumkin edi. Boshqa bir xonada o'qituvchi va talaba o'rtasida munozara ketmoqda. Talab o'z ilmiy natijalarini o'qituvchisiga isbotlash uchun urinmoqda.

4. Quyidagi «Ona sutining afzalliklari» maqolasini o'qib, rus tiliga tarjima qiling.

### Ona sutining ahamiyati va afzalliklari

Farzand ota-onaning ezgu orzusi, quvonchi, baxti. Har bir ona farzandining sog'lom, zuvalasi pishiq, baxtli-saodatli bo'lib ulg'ayishi uchun qayg'uradi va chaqaloq tug'ilmasidanoq shunga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Ona bilan bola o'rtasida homiladorlikning dastlabki kunlaridan boshlaboq «ona-yo'ldosh-homila» tarzida o'zaro mustahkam aloqa o'rnatiladi. Bola dunyoga kelgach, bu aloqa «ona-ko'krak suti-bola» tariqasida davom etadi. Mana shu aloqa vositasida bola onadan kerakli ozuqa va biologik faol moddalarni oladi, ona bilan bola o'rtasida mehr rishtalari bog'lanadi. Bu aloqaning buzilishi ona uchun ham, bola uchun ham nihoyatda xavflidir.

Mashhur hakim Abu Ali ibn Sino ona sutini quyosh nuriga qiyos qilgan. Negaki, yer yuzidagi barcha tirik mavjudot bilan o'simliklar dunyosi uchun quyosh nuri qanchalik zarur bo'lsa, o'sayotgan bola uchun ona suti ham shunchalik zarur.

Hozir yer yuzida kuniga 40 mingga yaqin bola ovqat yetishmasligi va ona sutiga to'yimasligi natijasida kelib chiqadigan kasalliklardan vafot etmoqda. Amerikalik olim Odri J.Neylor «Ona suti va 2 mln bola hayoti» (1992-yil) kitobida bolalar o'rtasidagi o'limni kamaytirishning asosiy yo'llaridan biri – bolani ona suti bilan boqishdir, deb ta'kidlaydi.

Bugungi ilmiy tibbiyot xalq tabobatining yutuqlari va ona suti xosiyatini kechikib angladi. Holbuki, ona suti, ona qadri, ona va bola mehri haqida insoniyat tarixi naqadar go'zal hikmatu rivoyatlar, qahramonlik qissalarini dunyoga keltirgan. Lekin, sirasini aytadigan bo'lsak, onaning nigohi chaqalog'iga tushishi bilan uyg'onadigan sut bezlari bir qadar zavol ko'rib, chashmasi so'ndi...

Ona sutini emmay o'sgan inson mehrsiz bo'lsa, ajablanish kerakmas. Shuning uchun ham bobolarimiz, momolarimiz, mabodo chaqaloq onasiz qolgudek bo'lsa, uni yaxshi va pokiza onaga eltib emizishgan. U ayolni o'z oilasining onaxoni kabi e'zozlashgan. Uni emgan bola esa, ayolning bolalari bilan emikdosh, jigar, tug'ishgan deb hisoblangan. Ota-onasi mutlaqo begona

bola ona suti orqali begona oilada izzat topib, kelajakda o'sha oiladagi boshqa bolalar bilan uni emizgan ona xuzurida birdek burchli bo'lgan.

Ona suti tarkibida shunday moddalar borki, ular boshqa hech bir tirik jonzot sutida yo'q. Ona suti inson ma'naviyatining poydevori, chunki onaning eng yaxshi insoniy fazilatlarini bolaga ona suti orqali o'tadi. Shuning uchun onalarimiz doim shirin so'z, xushfe'l, axloqli, halol va pokiza bo'lmoqlari kerak. Ona suti inson ruhini kamol toptiruvchi bebaho va ajoyib murabbiydir.

### Lug'at

quvonch – радость

aloqa – связь

boqmoq – кормить

ozuqa – пища

zuvalasi pishiq – хорошо сохранившийся

xosiyat – особенность, свойство

rivoyat – предание, сказание

metin – крепкий, прочный

hikmat – мудрость

### Savol va topshiriqlar.

1. Bola ona sutidan o'zi uchun nimalar oladi?

2. Ibn Sino ona sutini nimaga qiyoslaydi?

3. Chaqaloqlarning eng ko'p vafot etish sababi nimada?

4. Ona suti xosiyati nimada deb o'ylaysiz?

5. Ona sutini emmay o'sgan bola, onani emib o'sgan boladan nima bilan farqlanadi?

6. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.

«Kim bu kim?»

Farzand bu

«Kim nima uchun qayg'uradi?»

Har bir ona


«Nimaning asosiy yo'li nima?»

Bolalar o'rtasida asosiy o'limni kamaytirish yo'li



## «Nimada nima qilishgan?»

Mabodo, chaqaloq  
onasiz qolsa



7. «Virusli gepatit» mavzusi bo'yicha shifokor va bemor musohabasini tuzing.

## 33-DARS

<b>Ilmiy uslub</b> ilmiy asarlarda, maqolalarda, tezislarda ishlatiladi. Ilmiy uslubda ko'pincha atamalardan foydalaniladi.	<b>Научный стиль</b> употребляется в научных трудах, статьях, тезисах. В научном стиле часто используются термины.
---	--

Ilmiy uslubda odatda, ma'lumki, natijada, xulosa qilib aytganda kabi kirish so'zlar ko'p uchraydi.

**Topshiriq.** Quyidagi «Bronxial astma» ilmiy maqolasidagi asosiy fikrni tashuvchi gapni toping.

## BRONXIAL ASTMA

Bronxial astma – surunkali, mustaqil, allergik kasallik bo'lib, kasallik asosida bronxlar reaktivligining immunologik yoki noimmunologik o'zgarishi yotadi. Kasallikning asosiy klinik belgisi bronxlar shilliq qavatining shishishi, shilliq ishlab chiqarishning kuchayishi va bronxospazm tufayli nafas qisishi hisoblanadi. *Astma* so'zi yunoncha bo'lib, *bo'g'ilish*, *hansirash* degan ma'noni bildiradi.

Odam ko'pincha kechasi nafasi siqib, bo'g'ilib qoladi. Kasallik yanada avj olib borganida xurujlar kunduzi ham tutib turishi mumkin: odamning sovqotishi, asabiylashishi, chekishi, ba'zi hidlar (bo'yoq hidlari), chang (jun changi)ning dimog'iga urishi va boshqalar shunga olib kelishi mumkin. Kasallik xuruj qilgan mahalda bemor o'tirib olib, qo'llari bilan krovat yoki o'rindiq chetlariga suyangan holda nafasni yengillashtirishga urinadi. Kasalning yuzi oqarib ketadi, bir oz tsianoz bo'lishi mumkin. Nafas harakatlarining soni me'yordan kamayib ketadi. Ko'zdan kechirib ko'rilganida ko'krak qafasi eng ko'p nafas olish holatida turadi. Perkussiya qilib ko'rilganda quticha tovushi eshitaladi, o'pka auskultatsiyasida bir talay quruq xirillashlar borligi ma'lum bo'ladi. Kasallik xuruji har xil muddat davom etadi: kasallik

boshida 10-20 minut, u uzoq vaqt davom etib borganida bir necha soatgacha cho'ziladi. Kasallik xuruji ba'zan bir necha kundan ortiqroq vaqt davom etadi, bu bemorning umummiy ahvoli ancha yomonlashib qolishiga, yurakning o'pka tufayli dekompensatsiyalanishiga olib keladi. Bronxial astmaning uzoq tutib turishi *astmatik holat* deb ataladi. Kasallik xuruji yo'tal tutib, shilimshiq aralash yopishqoq balg'am tushishi bilan tugallanadi.

Astmatik holatning uchinchi bosqichida gipoksemik koma rivojlanadi. Bemorning ahvoli yana ham og'irlashib, ko'karish paydo bo'ladi. Qisqa muddat ichida yoki asta-sekin bemor hushini yo'qotadi va barcha reflekslar so'na boshlaydi, «tovushsiz o'pka» va kuchli yurak tonlari eshitaladi, tomir urishi tezlashgan va pasaygan bo'ladi, gipotoniya, kollaps kuzatiladi. Nafas olish markazining falaji natijasida bemor o'ladi.

Bronxial astmani davolashda, bir tomondan, astma xuruji yoki astmatik holat, ikkinchi tomondan, kasallikning patogenetik jarayonlari hisobga olinadi.

Surunkali astmatik bronxit bilan og'rigan bemorlarni (astmadan oldingi holat) dinamik kuzatish, davolash va chiniqtirish bronxial astmaning oldini olishga imkon beradi.

## Lug'at

xastalanmoq – болеть

shilliq qavat – слизистая оболочка

bo'g'ilish – одушье, одышка

bundan tashqari – кроме этого

surunkali – хронический

xuruj – приступ

Savol va topshiriqlar.

1. Bronxial astma qanday kasallik?

2. Uning klinik belgilarini so'zlab bering.

3. Astma qanday davolanadi?

4. Pediatri haqidagi ilmiy va publitsistik uslubda yozilgan quyidagi maqolani taqqoslang. Ularning farqini toping.

Pediatri (yunoncha *paidos* – bola) – bolalardagi ichki (somatik) kasalliklarni aniqlash, oldini olish va davolash bilan shug'ullanadigan mutaxassis shifokor. Mikropediatri (tug'ruqxonada), pediatri (go'daklikdan balog'at yoshigacha) va balog'at yoshi pediatri bo'ladi. Bolalardagi ko'z, quloq, teri kabi organlar kasalliklarini esa pediatri bilan birga shu soha mutaxassis shifokorlari davolaydi.

Jo'rxon opa maktabni oltin medal, tibbiyot bilim yurtini esa imtiyozli diplom bilan tugatdilar.

O'sha paytlarda darsliklar nihoyatda kam, ma'ruzalarni darslik kabi juda e'tibor bilan yozish, o'qituvchining birorta so'zini ham qoldirmaslik muhim edi. O'qishdan so'ng shifokorlik kasbi, so'ng esa Moskvada maqsadli aspiraturada o'qish. Moskvaga ketar ekan, ustozlarining: «Inson o'z maqsadi

sari intilishi, har qanday vaziyatda ham qat'iyatli bo'lishi zarur», - degan gaplarini uqib oldi. Uning ish mavzusi «Sistemali qizil volchanka va sistemali sklerodemiya yurak qon tomirlari o'zgarishlari» edi. Aynan ustozlarining so'zlariga amal qilgan Jo'raxon, 3 yil deganda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

5. «Qizamiq» ilmiy maqolasiga annotatsiya yozing. (Annotatsiya – kitob yo maqolaning qisqacha mazmunidir).

### Qizamiq

Qizamiq – asosan bolalar kasalligi, biroq u bilan kasallanmagan bo'lsangiz, yoshingiz ulg'ayganda ham u yuqishi mumkin. Qizamiqning sababchisi faqat kuchli mikroskop vositasida ko'rish mumkin bo'lgan virusdir.

Qizamiqning yuqishi oson, chunki u bemor yo'talganda chiqadigan tupuk zarrachalari orqali tarqaydi. Ammo hali kasal bo'lmagan virus tashuvchi bilan oddiy munosabatda bo'lish natijasida ham yuqishi mumkin. Qizamiq bilan hayotda bir marta kasal bo'lish mumkin, shuning uchun ham u katta yoshdagilarga ko'p tahdid solmaydi, chunki ular bolalikda kasal bo'lib o'tishgan.

Qizamiq yuqqanidan so'ng 10-12 kun o'tgach, og'iz va tomoqda qizil dog'lar paydo bo'ladi, bemor yo'taladi, harorati ko'tariladi, burni oqadi. Yana 1-2 kundan so'ng toshma butun badanni qoplaydi. Bu davrda isitma kuchayadi. Ko'zning oqi yallig'lanadi va ko'z yorug'likka juda ta'sirchan bo'lib qoladi.

Ammo toshma tushgan zahoti issiq tusha boshlaydi va bemor o'zini bir oz yaxshi his qiladi. Ba'zida boshqa mikroblar quloq, o'pkaga o'tadi va u holda ancha murakkab vaziyat yuzaga keladi.

Qizamiq epidemiyasi har 2-4 yilda katta shaharlarga hujum qilib turadi. Kasallik hali bu xastalik bilan og'rimagan bolalarga yuqadi. 5 oygacha bo'lgan chaqaloqlarga, agar onalari qachonlardir bu kasallikka duchor bo'lmagan bo'lsalar, qizamiq yuqmaydi. Kasallik, odatda, bahor oylarida tarqaladi.

Bu kasallikka qarshi maxsus dori-darmon yo'q. Emlashdan kasallikning yengil o'tishi maqsadidagina foydalaniladi. Ammo kasal bola uchun eng zarur narsa – bu uning qorong'ilashtirilgan joyda bo'lishi va ko'proq dam olishidir.

### Lug'at

sabab – причина  
vosita – средство  
toshma – сыпь  
murakkab – сложный

tupuk – слюна  
yuqish – передаваться  
vaziyat – ситуация

### Savol va topshiriqlar.

1. Matnni o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qiling va mazmunini so'zlab bering.
2. Qizamiq qanday kasallik va uni nima keltirib chiqaradi?
3. Qizamiq kasalligi qanday kechadi?
4. "Qizamiq" matni bilan tanishib, «Mutaxassis maslahati» mavzusida auditoriyada savol-javob o'tkazing.
5. Ushbu matnni rus tiliga tarjima qiling.

Ovqatni yutish jarayoni ancha murakkab jarayon. Bu jarayonda nerv hujayralari, muskullar, paylar va turli bezlar ishtirok etadi. Bunda halqum, tilcha, kichik til, yumshoq tanglay, til, lablar, burun, o'pka, diafragma (ko'krak qorin to'sig'i), qorin muskullari va, nihoyat, bosh miya ishtirok etadi.

### 34-DARS

<u>Badiiy uslub</u> dan badiiy asarlarda foydalaniladi. Badiiy uslubda obraz yaratish uchun hamma til vositalaridan foydalaniladi.	<u>Художественный стиль</u> употребляется в словесно-художественном творчестве. В художественном стиле для создания образов используются все языковые средства.
--	---

### Topshiriqlar.

#### 1. Quyidagi matnlar qay uslubda yozilganini ajrating.

Mikroblar – yunoncha (*bios – hayot*) bakteriyalar, aktinomitsetlar, achitqidoshlar, zamburug'doshlar va bir hujayrali sodda hayvonlar, ya'ni mikroorganizmlarning umumiy nomi. Bularga mikroskopik suv o'tlari va eng sodda organizmlar kirmaydi.

Bir vaqtlar olimlar dunyodagi eng kichik tirik mavjudot burga deb hisoblar edilar. Bizning yonimizda, ichimizda va atrofimizda «ko'zga ko'rinmas» butun bir olam borligi hech kimning esiga ham kelmagan.

Olimlar narsalarni katta qilib ko'rsatadigan mikroskop yordamida ana shu ajoyib olamni kashf etdilar. Shunda ham unga darrov ishona qolmadilar. Lekin keyinchalik ishonch hosil qildilar. Bu olam vakillarini ularning maydaligi uchun mikroblar yoki mikroorganizmlar, deb ataydilar.

-Voy bo', qo'llaring buncha kir, Irkitvoy?

-Hozir yuvaman!

-Tez bo'! Bo'lmasa mikroblar ko'payib ketadi.

Qo'lga oling mikroskop,

Har tomon mikroblar, mikroblar.

Birining nomi savob,

Birining nomi xarob.

Biri tiklab jarayon,  
Biri qilar g'alayon.  
Chiqara turib g'alva.  
Deydi: «Bu hali holva».

2. «Yurak» mavzusida yuqoridagiday uch uslubda yozilgan matnlarni tuzing.

3. «Bolalarning shifokori» she'rini o'qing va tarjima qiling. Ushbu uslubga xos xususiyatlarni toping.

Jujuqvoylar, mittivoylar, shirintoylar,  
Shu hayotga, bir najotga umid boylar.  
Onalari poygaklarda bir so'z poylar,  
Kelajakning, bo'lajakning xaloskori,  
Bolalarning, bolalarning shifokori.

Hordiqdami, ta'tildami, safardami,  
Kechasimi, kunduzimi, sahardami,  
Qahratonda, saratonda, nahordami,  
Siz hayotning qo'llaguvchi madadkori,  
Bolalarning, bolalarning shifokori

Go'daklarning ko'zlari to'rt, tillari yo'qdir,  
Goh bezgakda, goh changakda, goho cho'g'dir.  
Onalari sizni ko'rsa ko'ngli to'qdir,  
Siz ularning shu yerdagi najotkori,  
Bolalarning, bolalarning shifokori.

4. «Anatomiya atamaları» sarguzasht hikoyasini davom ettiring.

5. Ushbu matnda qaysi uslublar mavjudligini ko'rish mumkin.

Ajoyib va g'aroyib «Anatomiya atamaları» mamlakatiga sayohat qilishni xohlaysizmi? Unda, marhamat.

Biz sayohatga chiqishimiz uchun, avvalo, mitti holga kelishimiz va inson organizmi ichiga yo'l olishimiz zarur. Buning uchun ushbu shrli so'zlarni aytamiz:

*Mitti odamga aylan,  
Va sayohatga shaylan!*

Ana bo'ldi. Endi sayohatimizni boshlasak ham bo'ladi. Og'iz ochilganda tilning ustiga sakrashimiz kerak.

*Bir, ikki, uch,  
Bilindudir kuch.*

O'g'il bola: Voy bu nima? Xuddi katta g'or-a? Mana bu qizil narsa nima ekan?  
Qiz bola: Axir bu til-ku! Labdan tilga sakradik ku! Ana, til o'zi haqida she'r

o'qiyapti:

Tilman, uzun-qisqa tilman,  
So'zlaganda tinim bilmam.  
Meni uch ming bo'rtiq.  
So'rg'ichlarim bezaydi.  
Ular ovqat ta'mini,  
Juda yaxshi sezadi.

O'g'il bola: Voy! Men qayoqqa chiqib qoldim? Hammayoq oppoq tog'lar-ku!  
Qiz bola: Hech qanday tog'lar emas, axir, bular tishlar-ku!

Tishlar:

Biz tishlarmiz, tishlarmiz.  
Ovqat yesang ishlarmiz.  
Aytsak, biz juda sodda,  
Bizda bor to'rtta modda.  
Sen ularni sanab boq.  
Chuqurdan chiqqin tezroq.

O'g'il bola: Qaysi moddalar bo'lar edi-ya? Hozir eslayman.

Qiz bola: Emal – tishni qoplovchi qattiq modda.

Dentin – tish tanasi undan iborat.

O'g'il bola: Pulpa-nervlar, vena, arteriyadan iborat.

Til: To'g'ri, javobingiz uchun tish kovagidan ozod etildingiz.

O'g'il bola: Til bizni yana qanday quvurga tashlab yubordi ekan? Bo'ron esib turibdi.

Qiz bola: Menimcha, biz tomoqdan bo'g'izga tushdik, shekilli. Mana bu qizilo'ngach bo'lsa kerak.

O'g'il bola: Buni qayerdan bilding?

Qiz bola: Ana muskul devorlar qisqaryapti. O'zi haqida so'zlayapti ham.

Qizilo'ngach:

Qizilo'ngachman qizil,

Mening vazifam qiziq.

Men qisqarib turaman,

Va ovqatni suraman.

Agar xohlasangiz sizni ham so'rib yuborishim mumkin. Ammo so'rish oldidan sizga bitta topishmoq aytmoqchiman, topsangiz mendan so'ng keladigan a'zoni topasiz.

Qani toping-chi darrov:

Bitta bo'g'inim palov.

Boshqalari-chi har vaqt.

Sizga pishirar ovqat.

O'g'il bola: Nima edi-ya! Bitta bo'g'ini palov pishirsa....

Qiz bola: Boshqalar ovqat pishiradi. Oshpazmi. Yo'g'-ey qozon, ha oshqozon.

Qiz bola: Voy-vo'! Bo'tqalar ichida qolding-ku!

O'g'il bola: To'g'ri-da, oshqozonning asosiy ishi ovqatni hazm qilish.

Qiz bola: «Devor»ni ushlasam qo'limga nimalardir yopishyapti.

Oshqozon:

Bu mening shiralarim,

Ovqat hazm qilar bari.

Pentin hamda xlorid kislotasi.

Ovqatni maydalovchi modda.

U yog'idir uzun yo'l,

Ichakning turlari mo'l.

Bola va qiz: Yo'q, yo'q ichakka tushmaymiz!

Oshqozon: Undan sizlarni qon tomirlari orqali xohlagan a'zoingizga o'tkazib yuborishim mumkin. Axir, sizlar kichrayish xususiyatiga egasiz-ku!

6. Badiiy uslubda so'zlar orqali obrazlar chiziladi. Quyidagi iboralar orqali «Hamshira» nomli badiiy matn tuzing. Unda quyidagi iboralardan foydalaning: mehrlil nigoh; osmonda quyosh charaqlaganday bo'ldi; qo'llar sehrli; mo'jiza sodir bo'lganday bo'ldi.

7. Tibbiyot mavzusida yozilgan qanday badiiy asarlarni, badiiy filmlarni bilasiz? Ularda shifokorlar obrazi qanday talqin qilingan? Hamshiralilar obrazi-chi? Biror asarni o'qib u asosida munozara darsi o'tkazing.

8. Ibn Sinoning qanday badiiy asarlarini bilasiz?

### 35 -DARS

Rasmiy ish uslubi (Официально-деловой стиль)	
Rasmiy ish uslubi fuqarolar, tashkilot va muassasalar yozishmalarida, davlat hujjatlarini tuzishda, ish qog'ozlarini yozishda ishlatiladi. Rasmiy ish uslubida tushunmovchilik bo'lmasligi uchun juda aniqlik zarur. Rasmiy ish uslubi hujjatlarni ma'lum tartibda rasmiylashtiradi.	Официально-деловой стиль употребляется в переписке граждан, в переписке учреждений, для составления государственных документов и деловых бумаг. Для официально-делового стиля важна предельная точность изложения, которая исключала бы разное толкование. Документы официально-делового стиля оформляют по особым стандартам.

**Tarjimai hol** – ma'lum bir shaxs tomonidan o'z shahsiy hayoti va faoliyati bayon qilingan yozuvdir.

Tarjimai holning asosiy zaruriy qismlari:

1. Hujjatning nomi (Tarjimai hol).

2. Matn:

- muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi;
- tug'ilgan yil, oy, kun va tug'ilgan joyi;
- ma'lumoti va ma'lumotiga ko'ra mutaxassisligi;
- ish faoliyatining turlari;
- oxirgi ish joyi va lavozimi;
- mukofot va rag'batlantirishlar;
- jamoat ishlarida ishtiroki;
- partiyaviyligi;
- oilaviy ahvoli va oila a'zolari;
- turar joyi (uy manzili).

3. Sana.

4. Imzo.

### TARJIMAI HOL

Men, Safarov Ravshan Toshpo'latovich, 1961-yilda Toshkent shahrida tug'ilganman.

Otam – Toshpo'lat Hamdamovich, 1940-yilda tavallud topganlar, professor stomatolog. Onam – Sabaxon Safarova – kardiolog, 1948-yili tug'ilganlar. Men 1968-yil Toshkent shahridagi 5- maktabning 1-sinfida o'qishni boshladim, 1978-yil 10-sinfni imtiyozli tugatdim. Ota-onamning kasbiga qiziqish meni Toshkent Tibbiyot institutiga yetakladi. 1978-yili ushbu institutning stomatologiya fakultetiga o'qishga kirib, 1983-yili tugatdim. Ikki yil armiya safida xizmat qildim. 1985-yili o'zim o'qigan institutda ilmiy izlanishlarimni boshladim. 1995-yili tibbiyot fanlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyamni himoya qildim.

Oilaliman, 2 farzandim bor. Turmush o'rtog'im ham stomatolog.

Manzilim: Toshkent shahri, Markaz 14, 194- uy, 47- xonadon.

Telefon: 41-52-72.

2005-yil 5-yanvar

Imzo R.T.Safarov

**Ariza** – muayyan muassasaga yoki mansabdor shaxs nomiga biror iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat.

Arizaning zaruriy qismlari:

- Ariza yo'llangan muassasaning yoki mansabdor shaxsning nomi.
- Ariza yozuvchining turar joyi, vazifasi, ismi, otasining ismi va familiyasi.
- Hujjatning nomi (Ariza).
- Asosiy matn (taklif, iltimos, shikoyat).
- Arizaga ilova qilinadigan hujjatlar nomi (agar zarur deb topilsa).
- Ariza yozuvchining imzosi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi.
- Ariza yozilgan vaqt (yil, kun va oy).

Yuqorida sanab o'tilgan zaruriy qismlarning odatdagi joylashuvi quyidagi ko'rinishga ega:

Qayerga yoki kimga

Ariza yozuvchining turar joyi, lavozimi, to'liq nomi

ARIZA

Ariza matni (mazmuni)

ilova

sana (yil,  
kun,oy)

imzo

I.O.va familiyasi

Shahar Klinik bolalar shifoxonasining bosh shifokori, t.f.n S.N.Nabiyevga 1-somatika bo'limining shifokor-ordinatori F.R.Alimovadan

ARIZA

Menga 26.03.2006 dan 26.04.2006-yilgacha mehnat ta'tiliga chiqishga ruxsat berishingizni so'rayman.

25. 03. 2006-yil

(Imzo) F.R.Alimova

**Tavsifnoma** – bir shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, shuningdek, uning o'ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjat.

Tavsifnomaning asosiy zaruriy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Tavsiflanayotgan shaxs haqida asosiy ma'lumotlar:
  - a) ismi, otasining ismi va familiyasi;
  - b) tug'ilgan yili;
  - d) millati;
  - e) partiyaviyligi;
  - f) ma'lumoti;
  - g) lavozimi;
  - h) ilmiy darajasi va unvoni (agar ular mavjud bo'lsa).
2. Hujjat nomi (Tavsifnoma).
3. Matn.
4. Imzolar.
5. Sana.
6. Muhr.

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti Pediatriya fakultetining 3-kurs talabasi, 1986-yilda tug'ilgan, millati o'zbek Murod Botirovich Eshpo'latovga

### TAVSIFNOMA

Murod Eshpo'latov 2004-yil akademik litseyni tugatgach, pediatriya fakultetiga o'qishga kirdi. Institutda tahsil olish davrida u intizomli, ziyrak va zukko talaba sifatida o'zini ko'rsatdi. O'quv mashg'ulotlariga jiddiy yondoshadi va ularni qunt bilan o'rganishga harakat qiladi. M.Eshpo'latov tibbiy fanlarga alohida qiziqish bilan qaraydi. U 2005-yili aprel oyida bo'lgan Talabalarining respublika ilmiy anjumanida ma'ruzasi bilan qatnashdi. Uning ilmiy ma'ruzasi faxrli 1-o'rinni oldi.

M. Eshpo'latov institutning jamoat ishlarida ham faol ishtirok etadi. U «Yosh mediklar» devoriy gazetasiga muharrirlik qiladi. Institut «Kamolot» YIH a'zosi M.Eshpo'latov aql-zakovat, bilimdonlik talab etiladigan har qanday ishda o'zini ko'rsata oladi va dadillik bilan harakat qiladi.

U kamtarin va to'g'ri so'z, do'stlariga nisbatan g'amxo'r bo'lgani uchun kursdoshlari unga hurmat va ehtirom bilan qaraydilar.

Tavsifnoma «Ibn Sino» stipendiyasi olishga taqdim qilish uchun berildi.

Dekan  
«Kamolot» YIH

A.I.Ismoilov

yetakchisi

S.A.Imomov

Talabalar kasaba uyushmasi  
qo'mitasi raisi

A.I.Yunusov

### 36-DARS

**Bildirishnoma** – muayyan muassasa (tarkibiy qism) rahbariga xizmat faoliyati bilan aloqador muhim masalalar yuzasidan yoki yuqori idora, mansabdor shaxsga biron-bir voqea va hodisa haqida xabardor qilish zarurati tugilganda taqdim etiladigan mufassal yozma axborot.

Bildirishnoma quyidagi asosiy qismlardan iborat:

1. Bildirishnoma yo'llagan rahbarning lavozimi, ismi va otasining ismi bosh harflari hamda jo'nalish kelishigidagi familiyasi.
2. Bildirishnoma tayyorlagan shaxsning lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari hamda jo'nalish kelishigida familiyasi.
3. Hujjat turining nomi (Bildirishnoma).
4. Matn sarlavhasi.
5. Bildirishnoma matni (mazmuni).
6. Qancha varaqligi ko'rsatilgan ilovalar ro'yxati (agar ilova bor bo'lsa).
7. Bildirishnoma tayyorlovchi xodim yoki rahbarning imzosi (agar bir nechta shaxs tomonidan tayyorlangan bo'lsa, u barcha mualliflar tomonidan imzolanadi).
8. Bildirishnoma taqdim etilgan sana (sana muallif yoki muassasa rahbari tomonidan bildirishnoma imzolanayotgan paytda qo'yiladi).

Toshkent shahar 16-kasalxona bosh  
shifokori M.Y.Sharipovga ichki  
kasalliklar bo'limi terapevti  
Z.O.Rahmonovdan

### BILDIRISHNOMA

Men navbatdagi mehnat ta'tilidan qaytib, 6-yanvardan o'z vazifamni bajarishga kirishdim.

2006-yil 6-yanvar

(imzo) Z.O.Rahmonova

ToshPTI Tibbiy pedagogika fakulteti  
dekani X.V. Ahmedovga  
Anatomiya kafedrasini mudiri  
A.F.Ahmedovdan

### Bildirishnoma

124,126-guruh talabalari 24-aprel 3-parada bo'ladigan mashg'ulotga kelishmadi.

Sababini aniqlab, chora ko'rishingizni so'rayman.

2006-yil 24-aprel

(imzo) A.F.Ahmedov

**Ishonchnoma** – muayyan muassasa yoki ayrim shaxs o'z nomidan ish ko'rish uchun ikkinchi bir shaxsga ishonch bildiradigan yozma vakolatli hujjat.

Ishonchnoma quyidagi asosiy qismlardan iborat:

1. Hujjatning nomi (Ishonchnoma).
2. Ishonch bildiruvchining to'liq nomi (ismi, otasining ismi, familiyasi).
3. Ishonchli shaxs (ishonchnoma berilgan shaxs) ning to'liq nomi.
4. Ishonchnoma mazmuni (topshirilgan vazifalarni aniq ko'rsatish).
5. Topshirilgan vazifalar amalga oshirilishi zarur bo'lgan muassasaning nomi.
6. Ishonch bildiruvchining imzosi.
7. Berilgan (yozilgan) vaqti.
8. Ishonch bildiruvchining imzosini tasdiqlagan shaxsning lavozimi va imzosi.
9. Ishonch bildiruvchining imzosi tasdiqlangan sana va yumaloq muhr.

### ISHONCHNOMA

Men, Hojiakbar Ahmedov turmush o'rtog'im Ahmedova Shahinaga institut kassasidan menga 2006-yil yanvar oyi uchun yozilgan maoshimni olishga ishonch bildiraman.

2006-yil 10-fevral

(imzo) H.Ahmedov

H.Ahmedovning imzosini tasdiqlayman.

Institut xodimlar

bo'limi boshlig'i

(imzo) T.G.To'rabekova

Majlis bayoni – turli yig'ilish, kengash va boshqa anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlarini va qabul qilingan qarorlarni

aniq, siqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat.

Majlis bayonidan ko'chirma quyidagi asosiy qismlardan iborat:

1. Tashkilot nomi.
2. Hujjatning nomi (Majlis bayonidan ko'chirma).
3. Sana.
4. Shartli raqam.
5. Majlis bayoni tuzilgan joy.
6. Matn.
  - a) kun tartibi;
  - b) eshitildi;
  - d) qaror qilindi.
7. Imzolar (rais, kotiba).

### **Toshkent shahar kasalxonasi jarrohlik bo'limi xodimlari yig'ilishining 12-sonli majlis bayonnomasidan KO'CHIRMA**

2006-yil 10-aprel. Toshkent shahri.

Qatnashdilar: 15 kishi.

1. Jarroh Ahror Karimovning 60 yoshga to'lishi munosabati bilan tibbiyot sohasidagi ishlarini taqdirlab, uning nomzodini «Sog'liqni saqlash a'lochisi» unvoniga taqdim etish. Bo'lim boshlig'i A. Olimov axboroti.
2. Eshitildi:

A.Olimov A.Karimovning ish faoliyati haqida so'zlab, jarrohlik sohasida ko'p yillardan beri ishlashi, bu sohaga uning anchagina yangiliklar kiritgani, jarohatni davolashda ultratovushdan foydalanishning yangi usullarini qo'llaganini aytdi.
3. Qaror qilindi:

A.Karimovning jarrohlik sohasidagi xizmatlarini e'tiborga olib va 60 yoshga to'lganligi munosabati bilan unga «Sog'liqni saqlash a'lochisi» unvoni berish O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligidan so'ralsin.

Rais  
Kotib

(imzo) L.M.Nosirov  
(imzo) M.Ahmedov

### **37-DARS**

**Hisobot** – muayyan vaqt uchun rejalashtirilgan ish yoki vazifa, topshiriqlarning bajarilishi, amaliy dolzarb ishlar, xizmat va ilmiy safarlar yakuni haqida ma'lumot beruvchi hujjat.

Uning zaruriy qismlari:

1. Sarlavhasi: hisobot qaysi davr uchun qanday bo'lim yoki shaxs tomonidan

berilyapti.

2. Hujjatning nomi (Hisobot).
3. Hisobot matni.
4. Lavozimi, familiya, ismi va ota ismining bosh harflari, imzo.
5. Sana.
6. Hisobotni tasdiqlovchi rahbar imzosi.

**ToshPTI rektori, professor A.V.Alimovga  
institut «Oliy hamshiralik ishi» fakulteti  
dekani, dotsent Sh.T.Muhamedxonovaning  
Germaniyaning Berlin shahrida o'tgan  
xizmat safari haqida**

### **Hisoboti**

Men, Sh.T. Muhamedxonova, 2006-yilning 15-oktabridan 25-oktabrigacha Germaniyaning Berlin shahrida xizmat safarida bo'ldim. Safardan maqsad Berlin tibbiyot oliy o'quv yurtida hamshiralik ishidagi yangi ta'lim pedagogik texnologiyalarini o'rganish va ularning eng samaradorlarini o'qish jarayoniga tatbiq qilish edi. Safar davomida men Berlin tibbiyot oliy o'quv yurtida o'quv jarayoni, rejalari va dasturlari bilan tanishdim. Shuningdek, oliy ma'lumotli hamshiralarning amaliyoti ham meni qiziqitirdi.

Oliy o'quv yurti rahbariyati bilan talabalar almashish masalasida ham fikrlashdim.

«Oliy hamshiralik ishi»  
fakulteti dekani, dotsent (imzo) Sh.T.Muhamedxonova

2006-yil 30-oktabr

**Tushuntirish xati** – ma'lum bir rahbar yoki muassasaga biron ish sababini ko'rsatib yozilgan hujjat.

Tushuntirish xati quyidagi asosiy qismlardan iborat:

1. Hujjat yo'llanayotgan tashkilot yoki mansabdor shaxs nomi.
2. Hujjat nomi (Tushuntirish xati).
3. Hujjat matni.
4. Imzo.
5. Sana.

### Tushuntirish xati

Men 2006-yilning 26-martidan 15-apreligacha betob bo'lganligim sababli darslarga (60 soat) qatnasha olmadim.

Ilova: Kasalligim haqida shifokor bergan ma'lumotnoma

2006-yil 16-aprel

(imzo)

A.Salimova

E'lon – ko'pchilikni yoki ma'lum guruhdagi shaxslarni yaqin orada (kelgusida) bo'ladigan biror-bir tadbir – majlis, uchrashuv, suhbat, shuningdek, ishga, o'qishga qabul qilish va boshqalar haqida xabardor qilish uchun qo'llanuvchi yozma axborot.

E'lonning zaruriy qismlari:

1. Nomi (E'lon).
2. E'lon qilinayotgan tadbirning vaqti, o'tkazilish joyi.
3. Tadbirning mavzusi.
4. Imzo (odatda, bo'ladigan tadbirni e'lon qilayotgan tashkilotning nomi («Ma'muriyat», «Kasaba uyushmasi», «Yozuvchilar uyushmasi»).

### E'LON

2006-yil 15-aprel kuni soat 15<sup>00</sup> da Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti kasaba uyushmasi tashkilotining hisobot-saylov yig'ilishi bo'ladi.

Kun tartibi:

1. Kasaba uyushmasi tashkilotining hisoboti.
2. Taftish komissiyasining hisoboti.
3. Kasaba uyushmasi tashkilotining yangi tarkibini saylash.

Kasaba uyushmasi tashkiloti.

Taklifnoma – biror bir tantanali tadbirga taklif etish uchun qo'llanuvchi yozma axborot.

Taklifnomaning asosiy zaruriy qismlari:

1. Nomi (Taklifnoma).
2. Matn:

- a) taklifnoma turiga qarab: taklif qilinayotgan shaxsning familiyasi yoki ismi va otasining ismi;
- b) taklif qiluvchi muassasaning nomi;
- d) qanday tadbirga taklif qilinayotganligi.
3. Tadbirning o'tkazilish sanasi va vaqti.
4. O'tkazilish joyi.
5. Imzo (tadbirni tashkil etgan tashkilotning nomi).

### TAKLIFNOMA

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Abdulla Oripovga.  
Hurmatli Abdulla Oripovich! Sizni shu yil 9-aprel kuni institutimizda Amir Temur tavalludiga bag'ishlab o'tkaziladigan anjumanga taklif etamiz.

ToshPTI ma'naviyat bo'limi

### 38-DARS

Ma'lumotnoma – bo'lgan voqea yoki mavjud holatlarni bildirish-axborot berish mazmunini ifodalaydigan hujjat. Ma'lumotnomalar, odatda, yuqori idora, mansabdor shaxs hamda oddiy kishilarning ko'rsatmasiga, talabiga yoki iltimosiga binoan tuziladi, so'ralayotgan yoki iltimos qilinayotgan axborot va ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi.

Uning zaruriy qismlari:

1. Hujjat jo'natiladigan yuqori idora yoki mansabdor shaxsning nomi (bosma ish qog'ozining yarmidan o'ng tomonga yoziladi).
2. Hujjat nomi (Ma'lumotnoma).
3. Ma'lumotnoma matniga sarlavha (xat boshidan yoziladi).
4. Asosiy matn (ma'lumotnoma mazmuni).
5. Mansabdor shaxs (tuzuvchi yoki korxonahabari) imzosi.

### MA'LUMOTNOMA

A'lo Sharipovna Maqsudova kasal bo'lganligi sababli 10-apreldan 25-aprelgacha O'SHVI tashxisi bilan davolanish uchun qatnadi. Ma'lumotnoma ish joyiga berildi.

Uchastka shifokori

(imzo)

S.A.Anvarov

Poliklinika bosh shifokori

(imzo)

A.O.Ismatov

Muhr



Tibbiy ma'lumotnomalarning turli shakllari bo'lishi mumkin. Ulardan yana birini sizga taqdim qilamiz.

Shakl kodi OKUD_____
Muassasa kodi OKPO_____

O'zbekiston Respublikasi SSV	№ 095ly sonli tibbiy hujjat
	O'zbekiston Respublikasi SSV
	tomonidan tasdiqlangan
	04.10.2006 № 1030
Muassasa nomi	

### MA'LUMOTNOMA № 25

(oliy o'quv yurti talabasi, litsey, kollej o'quvchisining vaqtinchalik mehnatga yaroqsizligi haqida, kasallik, karantin va maktab yoki maktabgacha ta'lim muassasasiga boruvchi bolaning ushbu muassasani qoldirganligi sababi)

(tagiga chiziladi)

Berilish vaqti 9-aprel 2007-yil

Talabaga, o'quvchiga, maktabgacha ta'lim muassasasiga boruvchi bolaga (tagiga chiziladi)

**ToshPTI 1-bosqich**

Ismi, sharifi: Toshmetov Farrux.

Tug'ilgan yili : 1988.

Kasallik tashxisi: O'ShVI.

Yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bemorlar bilan muloqotda bo'lganligi (yo'q, ha, qanday)\_\_\_\_\_

(tagiga chiziladi, yoziladi)

Mashg'ulotlardan, darslardan, maktabgacha ta'lim muassasalariga qatnashdan ozod etildi.

9-apreldandan 13-aprelgacha

Poliklinika muhri

Shifokor imzosi

Ambulator karta – kelgan bemorlarning shikoyatlari, ko'rigi, tashxis qo'yish, davolash, dispanser hisobiga olish, nazoratga olish anketasidir. Hamshiralar uning birinchi betini to'ldiradilar.

№ 25 /y -87 shakl  
O'zRSSV ning 1338  
tibbiy hujjati

Urush nogironi  
Urush qatnashchisi

guvohnoma №  
guvohnoma №

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

davolash-profilaktik muassasaning nomi

### BEMORNING TIBBIY AMBULATOR KARTASI

1. Familiyasi: Komilov.
2. Ismi, otasining ismi: Sanjar Sharipovich.
3. Tug'ilgan yili: 1987.
4. Uy telefoni: 123-45-67.
5. Manzili: M.Ulug'bek tumani
6. Ish (o'qish) joyi: ToshPTI.
7. Dispanserlash bo'yicha qayerga qarashli: \_\_\_\_\_
- 7.1. Mazkur muassasada \_\_\_\_\_  
(shifokorlik uchastka raqami, nomi)
- 7.2. Boshqa muassasada \_\_\_\_\_

Statistik talon – har bir bemorga yoziladigan qaydnomadir.

№ 25 shakl

Shifokor qabuliga \_\_\_\_\_  
Bemorning F.I.Sh. \_\_\_\_\_  
Yoshi \_\_\_\_\_  
Jinsi \_\_\_\_\_  
Manzili \_\_\_\_\_  
Murojaat etish sababi \_\_\_\_\_ birlamchi \_\_\_\_\_ ikkilamchi \_\_\_\_\_  
Tashxis \_\_\_\_\_ Kod \_\_\_\_\_

Shifokor familiyasi, ismi, sharifi \_\_\_\_\_

Shuningdek, katta hamshiralar beradigan dori-darmonlar, bog'lov materiallarining hisob-kitob daftari tutiladi. Bu daftarda dori-darmonlar, bog'lov materiallari, spirtning olingan sanasi, qayerdan olinganligi, soni, qancha miqdorda ishlatilganligi, qoldig'i, berilgan posti va hamshiraning ismi, sharifi, imzosi yoziladi.

## NUTQNI O'STIRISH UCHUN MATNLAR O'ZBEKISTON O'TMISHI HAM, KELAJAGI HAM BUYUK DAVLAT

Tariximiz necha-necha ming yilliklarga borib taqaladi. Hozirgi O'zbekiston hududida dastlabki mustaqil davlat tuzilmalari eramizdan avvalgi birinchi ming yillik boshlarida paydo bo'lgan edi. O'zbekiston mustaqil davlat barpo etish borasida Xitoy, Misr, Hindiston, Yunoniston, Rim, Eron kabi qadimiy mamlakatlar qatorida turadi. Qadimgi yilnomalarda va turkiy yodgorliklarda qadim zamonlarda Markaziy Osiyo hududida Xorazm, So'g'diyona, Baqtriya va boshqa davlatlar bo'lganligi qayd etilgan. Mamlakatimiz mustaqilligini saqlab qolish uchun o'z jonlarini ayamay, mardona kurashgan To'maris, Spitamen, Muqanna kabi xalq qahramonlarining jasoratlari tarixiy manbalarda o'z ifodasini topgan.

Amir Temur, Ulug'bek kabi dono hukmdorlar hokimiyatni boshqargan zamonalarda hunarmandchilik, ilm-fan va san'at gullab-yashnagan. Bizga ajdodlarimizdan boy ma'naviy meros qolgan.

Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, imom Al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Ulug'bek, Navoiy va boshqa buyuk allomalar jahon tarixida va madaniyatida katta o'rin egallaydi.

Vatanimiz O'zbekiston ko'p asrlik tarixga ega, me'moriy obidalarga boy. Ko'hna Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridagi ajoyib me'moriy yodgorliklarni turli mamlakatlardan kelib ko'rayotgan kishilar xalq ustalarining mahoratiga qoyil qolib, ularga ta'zim qilmoqdalar. Muqaddas yerimiz orqali o'tgan Buyuk Ipak yo'li esa Osiyo va Yevropadagi xalqlar va mamlakatlarni bir-biriga bog'lagan.

Biz ishonamizki, Siz o'zingiz tanlagan mutaxassislikni egallab, insoniyat tomonidan yaratilgan barcha ma'naviy va ma'rifiy boyliklarni o'rganib olganingizdan keyin o'z Ona-Vataningiz uchun katta mehr-muhabbat va cheksiz iftixor his-tuyg'ulari bilan ishga kirishasiz va O'zbekistonning gullab-yashnashiga, ulug'vor buyuk davlatga aylanishiga o'z munosib hissangizni qo'shasiz.

### Lug'at

yilnoma – летопись  
madaniyat – культура  
ipak yo'li – шелковый путь

hunarmand – ремесленник  
usta – мастер

### Savol va topshiriqlar.

1. Markaziy Osiyo hududida qadimda qanday davlatlar bo'lgan?
2. Qadimda mustaqilligimizni mustahkamlashda qaysi tarixiy shaxslar jasorat ko'rsatganlar?
3. Tarixiy yodgorliklarimiz haqida so'zlang.
4. Siz Vatanimiz ravnaqi yo'lida nima ishlar qilishingiz mumkin?

## AHMAD AL-FARG'ONIY (798-865)

Yevropada Alfrangus (Alfraganus) nomi bilan tanilgan Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniyy o'rta asrlarning eng ko'zga ko'ringan allomalaridan edi.

1998-yili Yunesko qarori bilan O'zbekistonda uning 1200 yilligi keng nishonlandi.

Manbalarda Ahmad al-Farg'oniyyning yoshlik yillari haqida ma'lumotlar saqlanmagan, ammo u Farg'onada tug'ilgan va o'z ona yurtida boshlang'ich ta'limni olib, olim sifatida shakllangan bo'lishi kerak. Olim keyinchalik Bag'dod shahriga ko'chib o'tib, xalifa al-Ma'mun saroyida mashhur Bag'dod ilmiy maktabi "Bayt ul-hikma" ("Hikmatlar uyi")da ijod etadi. Bag'dod ilmiy maktabida faoliyat ko'rsatgan donishmandlarning aksariyatini O'rta Osiyo allomalari tashkil etgani alohida e'tiborga loyiqdir. Ahmad al-Farg'oniyy olimlar bilan birga Bag'dod va Damashq shaharlarida olib borilgan astronomik tajribalarda faol qatnashgan. Jumladan, u 832-833-yillari Suriya shimolidagi Sinjor sahosida yer meridianining bir darajasi uzunligini o'lchashda ishtirok etadi. Bundan tashqari, olim 861-yili Qohira atrofidagi Ravdo oroliga o'rnatilgan nilometrni ta'mirlagan. Bu jihoz Nil daryosi suvining miqdorini o'lchash uchun mo'ljallangan. Nil daryosi bo'yida qurilgan bu qadimgi gidrotexnika inshooti Misr qishloq xo'jaligi uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lib, uning Ahmad al-Farg'oniyy tarafidan ta'mirlanishi olimning iqtidorli muhandis ham ekanligidan dalolat beradi. Manbalarda al-Farg'oniyyning al-Jafariya shahrida sug'orish kanalini qazish ishida ishtirok etgani haqida ma'lumotlar ham keltiriladi. Ahmad al-Farg'oniyy umrining so'nggi yillarini Misrda o'tkazib, o'sha yerda vafot etgan va Qohira yaqinidagi Arafa maqbarasiga dafn etilgan.

Al-Farg'oniyyning asarlari Parij, London, Berlin, Moskva, Sankt-Peterburg, Dehli, Qohira, Anqara, Tehron va boshqa shaharlarda saqlanmoqda.

### Lug'at

falakiyotchi – астроном  
начальная  
shakllanmoq – формироваться  
alohida – отдельно  
daryo – река  
ta'mirlamoq – ремонтировать  
qishloq xo'jaligi – сельское хозяйство  
keyinchalik – в дальнейшем, впоследствии

boshlang'ich –  
donishmand – мудрец  
shimol – север  
qurmoq – строить  
qazimoq – копать

### Savol va topshiriqlar:

1. Ahmad Al-Farg'oniy kim bo'lgan?
2. U qayerdagi ilmiy maktabda ijod etadi?
3. Farg'oniy qaysi jihozlarni ta'mirlashda ishtirok etgan?
4. Uning asarlari qaysi shaharlarda saqlanadi?
5. Matnni dialog shaklida so'zlab bering.

### OG'RIQ

Siz qachon bo'lmasin og'riqni his qilishni istaganmisiz? Sirasini aytganda, siz bunday imkoniyatni bergan tabiatdan minnatdor bo'lishingiz kerak. Og'riq – bu bizning saqlagichimiz. Agar tish og'rig'ini sezmaganingizda edi, tishingizni o'z vaqtida davolatmagan bo'lardingiz. Birorta qaynoq narsaga tegib ketilganda og'riqni sezmaslik jiddiyroq shikastlanishga olib kelgan bo'lar edi.

Qizig'i shundaki, fan og'riqning qanday kelib chiqishini hozirgacha to'liq izohlab berolganicha yo'q. Taxmin qilinishicha, u terining band etilmagan nerv uchlari shikastlanishi tufayli yuzaga keladi. Juda zaif ta'sir og'riq keltirib chiqarmaydi. Boshqacha qilib aytganda, bu nerv uchlari biron bir narsani sezadi, og'riq esa kuchli energiya natijasida paydo bo'ladi. Qizigan narsalarda molekular katta tezlikda harakat qiladi va shuning uchun ularga tekkanda og'riqni sezamiz.

Organizmida maxsus og'riq retseptorlari yo'q, ammo qo'zg'alishni qabul qiluvchi maxsus nervlar bor. Ular orqa miya orqali boshga olib boradi.

Qo'zg'alish bosilganda og'riqni sezish paydo bo'ladigan teridagi parchalar og'riq nuqtalari deyiladi. Ular tana bo'ylab bir tekis taqsimlanmagan, ayrim joylarda ular umuman bo'lmaydi. Ammo o'rtacha olganda tananing «O» harfidek har bir parchasida bitta og'riq nuqtasi bo'ladi. Shunday qilib, terida og'riq sezilishi mumkin bo'lgan 3 millionga yaqin nuqta bor.

Og'riq har xil bo'ladi – kuyishdan, kesib olishdan, chaqishdan va shu kabilardan paydo bo'ladi. Og'riq – bosim, yuqori harorat va boshqa sezgilarning majmuidir.

#### Lug'at

minnatdor – благодарный  
qaynoq – горячий  
chtiyotkor – бдительный  
qizimoq – накаляться  
qo'zg'alish – возбуждение

sezimoq – чувствовать  
jarohat – рана  
izoh – пояснение

### Savollar.

1. Og'riq nima?
2. Og'riqni sezish bizni nimalardan saqlaydi?
3. Fan og'riqni qanday izohlaydi?
4. Terida og'riq sezilishi mumkin bo'lgan taxminan nechta nuqta bor?

### YOD TANQISLIGI HOLATLARI VA UNING OLDINI OLISH

Yod tanqisligi holatlari – insonlar tanasida yod elementi yetishmasligi sababli vujudga kelgan qalqonsimon bez hamda ushbu bezning qoniqarsiz ishlashi oqibatida tanadagi miya, yurak-tomir tizimi, oshqozon-ichak tizimi, ichki bezlar, boshqa hayotiy muhim tizimlar xastaliklarini o'z ichiga oladi.

Odatda, yod tanqisligi holatlari dengiz va okeanlardan uzoqda joylashgan mamlakatlar aholisiga xosdir.

Yod tanqisligi kasalliklari qatoriga diffuz eutireoid bo'qoq, tugunli eutireoid bo'qoq, tugunli zaharli bo'qoq, qalqonsimon bez diffuz avtonomiyasi, birlamchi gipotireozlar kiradi.

Yod -inson va hayvonlarning normal o'sishi, rivojlanishi va tananing sog'-salomatligini ta'minlovchi zarur mikroelementlardan biri bo'lib, uning insonlar uchun kerakli kundalik o'rtacha miqdori 100-200 mg ni tashkil etadi.

Yod tanqisligi kasalliklari, ayniqsa, homilaga, homilador ayollarga, yosh bolalarga jiddiy zarar yetkazadi.

Homilaning o'lik tug'ilishi, homilador ayollarning tug'ayotganda nobud bo'lishi, nogiron homila tug'ilishi, chaqaloqlar o'limi, yosh bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishdan orqada qolishi, karlik va soqovlik hollarining yuz berishi yod tanqisligi kasalligining oqibatidir.

Yod tanqisligi holatlarining oldini olish vositasi sifatida aholining yodlangan osh tuzi iste'mol qilishi butun dunyoda tan olingan.

O'zbekiston ham yod tanqisligi holatlari mavjud bo'lgan mamlakatlar qatoriga mansub bo'lib, ushbu holatlar oldini olish uchun hozirda respublikamizda 65 ga yaqin tuzni qazib oluvchi, qayta ishlovchi ( yodlovchi) va qadoqlovchi korxonalar ishlab turibdi.

#### Lug'at

tizim – система  
homila – плод  
jismoniy – физический  
holat – положение, ситуация  
nobud bo'lmoq – гибнуть, умереть  
vykapyvat' – выкапывать  
tanqislik – нехватка, недостача  
qadoqlamoq – расфасовывать, развешивать

oqibat – результат  
soqov – немой  
sifat – качество  
qator – ряд  
qazib olmoq –

## MENING BIRINCHI BEMORIM

O'qish davri, talabalik yillari birpasda o'tib, biz uchirma qush bo'ldik. Har qaysimiz qo'limizga diplom olib, ulkan Vatanimizning turli burchaklariga bolalar sog'lig'ining himoyachisi bo'lib otlandik. Men bolalar anesteziologiya va reanimatologiyasi kafedrasining klinik ordinatori, assistenti bo'ldim.

Ammo bugun sizga bu haqda emas, balki mening birinchi bemorim haqida so'zlab bermoqchiman. Bo'limga kelgach, bo'lim mudiri meni barchaga tanishtirdilar. Keyin meni hammalari birgalikda palataga olib kirishdi. Shu palatadagi bemor menga birlashtirilganini, uni sog' olib chiqishga harakat qilishim zarurligini aytishdi.

Palatada 7-8 yoshlik qizaloq yotardi. Hamkasabalarim menga omad tilab, palatadan chiqib ketishdi. Men esa ish faoliyatimni boshladim. Ammo faoliyatim juda katta hayajon, tizzalarimning titrashi bilan boshlandi.

Negadir vahimam «Qizcha o'lib qolsa nima qilaman?» degan xayol bilan kechar edi. Peshonamni muzday ter qopladi.

Qizchani mashina urib ketgan, o'mrov suyagi singan, ikki oyog'i gipslangan, bosh miyasi og'ir jarohatlangan, ichaklari yorilib ketgani uchun axlatli peritonit boshlangan, qorin bo'shlig'ida operatsiya o'tkazilgan edi. O'tiraman-u, go'yo chuqurroq nafas olsam ham unga xalaqit berayotgandekman. Qo'rqib-qo'rqib bo'lsa-da, barcha zarur choralarni shifokorlar yordamida amalga oshirdik.

Uyimga kelgach ham, har soniya O'g'iloyini o'ylar edim. Birin-ketin bedor kunlar va tunlar o'tar edi.

Nihoyat, bemorim ko'zini ochdi. Mening quvonchim cheksiz edi. Bu orada O'g'iloyning oilasi bilan ham tanishib oldim. Ular oilasida besh opa-singil ekan. O'g'iloy katta opasi bilan sayr qilishga chiqqanida to'satdan opasining qo'lidan chiqib, katta yo'ldan yugurib o'tmoqchi bo'ladi, ammo shu payt mashina uni urib yuboradi. Shu alfozda uni kasalxonaga keltirishadi. Lekin aynan shu kunlarda uning otasi ham og'ir ahvolda edi. Jigarning og'ir xastaligi - jigar sirrozi - O'g'iloyning dadasiga qo'yilgan tashxis edi. Ammo otasi qizning ahvolidan hexabar edi. O'g'iloyning yostig'i ostida esa otasining rasmi doim turardi. Bir kun qizcha «Otamni sog'indim» dedi. Nimagadir otasining rasmini so'radi. Uni bag'riga bosdi va yig'lab yubordi. Biz bu holatga balki e'tibor bermasdik. Ammo kechqurun sovuq xabar keldi. Aynan qizcha dadasining suratini so'ragan payt u kishi olamdan o'tgan ekanlar. Shum xabarni shundoq ham tinkasi qurigan qizchadan yashirishdan o'zga chora yo'q edi.

Men O'g'iloyga, O'g'iloy esa menga nihoyatda o'rganib qolgan edik. Uning sevimli Sayyora kennoysi bor ekan, negadir meni birinchi ko'rishdayoq «Sayyora kennoyi» deb atay boshladi.

Ishdan bo'sh vaqtlarimda men unga ko'pincha ertaklar o'qib berardim. Keyinchalik ertaklar o'mini latifalar egalladi. U sog'ayib oyoqqa tura boshladi. Nazarimda, biz birga oyoqqa turgan edik. Chunki undan yashirib achinib yig'laganlarim, uni qanchalik o'ylaganlarimni yolg'iz parvardigorning o'zi

biladi. O'g'iloyning kasallik tarixi ham ikki jildlik kitobni tashkil qildi. Ammo, agar bizning suhbatlarimizni kitob qiladigan bo'lsak, undan o'n chandon ortardi. Nazarimda O'g'iloyni nafaqat dori-darmon, balki barcha shifokorlarning mehr-muhabbati oyoqqa turgazdi. Chunki kasalxonaga keltirilgan payti uning tirik qolishiga deyarli hech kim umid bog'lama ham, uning hayoti uchun kurashga otlandik. Uchqundek umid alangaga aylandi. Zarur paytda shifokorlar, hamshiralalar ham bu norasida go'dakdan o'z qonini ayamadilar.

Men kasalxonada bir necha oy yotib sog'ayib ketgan birinchi bemorimni kuzatar ekanman, tanlagan kasbimning nechog'lik zarurligini, ma'suliyatini yana bir bor his qildim. Qalbimda mehr va shifo tarixining, oynomasining ilk sahifasi yozib tugatilgandek edi.

### Topshiriqlar.

1. Ushbu matnni o'qib, ruschaga tarjima qiling.
2. Ushbu maqola asosida shifokorning kunma-kun yozilgan kundaligini tuzing.

## DARMONDORILAR

«Vita» so'zi hayot degan ma'noni anglatadi. Darmondorilar (vitaminlar)-hayotni qo'llab-quvvatlash uchun zarur moddalardir. Ularni giyohlar yoki hayvonlar hosil qiladi va hayotiy jarayonlar davom etishi uchun ular organizmga juda oz miqdorda bo'lsa-da, tushib turishi kerak.

XIX asr oxiriga qadar «singa» nomini olgan g'aroyib va xavfli kasallik butun dunyoda kemalar jamoalarida uchrab turgan. XVIII asr oxirida bu xastalikni yangi meva va sabzavotlar yordamida davolash mumkinligi aniqlangan. Olimlarga bu hodisalar sababalarini aniqlashlari uchun 100 yil kerak bo'ldi; ma'lum bo'lishicha, yangi mahsulotlar tarkibida darmondorilar mo'l ekan!

Olimlar o'sha davrda darmondorilarning aniq kimyoviy tabiatini bilmaganliklari uchun ularni nomlamaganlar va oddiy alifbo bo'yicha A, B, C, D va shu tartibda ataganlar. Ularning ayrimlari sog'liq uchun nega kerakligini ko'rib chiqamiz.

A darmondorisi doimo hayvon organizmidagi yog' bilan bog'liq. U o'simliklarda hosil bo'ladi va o'txo'r hayvonlarga shu giyoh orqali o'tadi. A darmondorisi yuqumli kasalliklarning oldini olishga yordam beradi. U sut, tuxum sarig'i, jigar, baliq yog'i, shuningdek, sabzi, salat va ismaloqda bo'ladi.

